

ISBN 978-83-68188-26-4

Uralov Axtam Sindarovich,
Imomov Muhiddin Rustamovich

# O'ZBEKISTON IQLIMI SHAROITIDA KICHIK BOG'LARNI LOYIHALASHNING ME'MORIY ASOSLARI

Monografiya

iScience
Warsaw, Poland - 2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH
UNIVERSITETI

Uralov Axtam Sindarovich,
Imomov Muhiddin Rustamovich

# O‘ZBEKISTON IQLIMI SHAROITIDA KICHIK BOG‘LARNI LOYIHALASHNING ME’MORIY ASOSLARI

**Monografiya**

**Warsaw - 2025**

**УДК:725.731(575.1)**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti Ilmiy kengashining qarori bilan (№ 1 - son bayonnoma, 29.08.2025 y.) nashrga tavsiya etilgan.*

***Taqrizchilar:***
***Adilov Z.H.*** *– "Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, "Shaharsozlik" kafedrasi mudiri, arxitektura fanlari doktori, professor;*
***Mustayev B.B.*** *– Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti "Arxitektura"fakulteti, "Landshat dizayni" kafedrasi arx.f.bo'y.fal. doktori (PhD),dotsen v.b.*

**Uralov A.S., Imomov M.R.** O'zbekiston iqlimi sharoitida kichik bog'larni loyihalashning me'moriy asoslari. Monografiya / professor A.S. Uralovning umumiy tahriri ostida. – Warsaw: iScience Sp. z.o.o. – 2025. – 145 p.

Monografiyada kichik bog'larning tarixiy shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, kichik bog'larni shakllantirishning vatanimiz va xorijiy tajribalari, kichik bog'larni loyihalashning zamonaviy yo'nalishlari va tipologiyasi, kichik bog'larning atributlari va semantikasi, kichik bog'larni yaratishning me'moriy dasturi, kichik bog'larda qo'llaniladigan landshaft kompozitsiyalari bo'yicha tavsiyalar, kichik bog'larda qo'llaniladigan suv dunyosi va mo''jaz me'moriy shakllar bo'yicha tavsiyalar, amaliy loyihaviy takliflar keltirilgan.

Monografiya O'zbekiston Respublikasidagi barcha loyiha-qidiruv va obodonlashtirish tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan loyihachi arxitektorlar, landshaft dizaynerlari, bog'-park qurilishi mutaxasislari hamda arxitektura va landshaft dizayni sohasida tahsil olayotgan talabalarga mo'ljallangan.

В данной монография содержит термин малый сад, исторические этапы становления и развития садов, отечественный и зарубежный опыт формирования малых садов, современные направления и типологию дизайна малых садов, атрибуты и семантику малых садов, архитектурную программу создания малых садов, ландшафтный дизайн, композиции, используемые в малых садах, даны рекомендации по водному миру и замечательным архитектурным формам, используемым в малых садах, даны практические предложения по оформлению.

Монография предназначена для архитекторов-проектировщиков, ландшафтных дизайнеров, специалистов в области паркового строительства и студентов, обучающихся в области архитектуры и ландшафтного дизайна, работающих во всех проектно-изыскательских и благоустроительных организациях Республики Узбекистан.

The monograph contains the term small garden, the historical formation and development stages of gardens, domestic and foreign experiences of small garden formation, modern directions and typology of small garden design, attributes and semantics of small gardens, architectural program for creating small gardens, landscape compositions used in small gardens. recommendations on water world and wonderful architectural forms used in small gardens, practical design suggestions are given.

The monograph is intended for project architects, landscape designers, park construction specialists and students studying in the field of architecture and landscape design working in all project-research and improvement organizations in the Republic of Uzbekistan.

**ISBN 978-83-68188-26-4**

© Uralov A.S., Imomov M.R., 2025
© iScience Sp. z o. o.

# MUNDARIJA

**KIRISH** .......................................................................................... 4
**I–BOB. KICHIK BOG‘LAR HAQIDAGI UMUMIY MA’LUMOTLAR** .... 13
1.1. Bog‘larning tarixiy shakllanishi va rivojlanish bosqichlari.................... 13
1.2. Kichik bog‘larning tarixiy turlari ....................................................... 16
1.3. Kichik bog‘larning o‘simliklar dunyosi.............................................. 22
1.4. Bog‘larning me’moriy–rejaviy va landshaft semantikasi (badiiy-estetik obrazi)........................................................................................ 31
I–bob xulosasi ........................................................................................ 33
**II–BOB. KICHIK BOG‘LARNI YARATISHNING XORIJIY VA VATANIMIZ TAJRIBALARI. KICHIK BOG‘LARNING TIPOLOGIYASI** ............................................................................... 39
2.1. Kichik bog‘larni shakllantirishning Vatanimiz tajribalari...................... 39
2.2. Bog‘larni shakllantirishning xorijiy tajribalari..................................... 41
2.3. Bog‘larni me’moriy - landshaft loyihalashda qo‘llaniladigan tabiiy va sun’iy vositalar ................................................................................ 49
2.4. Kichik bog‘larni loyihalashning zamonaviy yo‘nalishlari va tipologiyasi ........................................................................................ 59
II–bob xulosasi ....................................................................................... 73
**III–BOB. O‘ZBEKISTON IQLIMI SHAROITIDA KICHIK BOG‘LARNI YARATISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI** ..................................... 85
3.1. Kichik bog‘larni yaratish bo‘yicha ishlab chiqilgan me’moriy dastur .... 85
3.1.1. Kichik bog‘larning atributlari va semantikasi .............................. 85
3.1.2. Kichik bog‘larni yaratishning me’moriy dasturi............................ 86
3.2. Bog‘larda qo‘llaniladigan o‘simliklar va landshaft kompozisiyalari bo‘yicha tavsiyalar.............................................................................. 93
3.3. Kichik bog‘larda qo‘llaniladigan suv qurulmalari va mo‘jaz me’moriy shakllar bo‘yicha tavsiyalar.................................................................. 97
3.4. Amaliy loyihaviy takliflar ..................................................................103
III–bob xulosasi.......................................................................................105
**XULOSA** ..........................................................................................125
**MONOGRAFIYADA QO‘LLANILGAN TERMINLAR GLOSSARIYSI** .130
**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXAT**....................................132
**DISSERTATSIYANING TAQDIMOT MATERIALLARI**........................137

# KIRISH

Jahon landshaft arxitekturasida kichik bog‘larning paydo bo‘lishi, arxitektura inshootlari va ularga tutash kichik bog‘lar orasida kompo zitsiyaviy aloqalar mavjudligi, shuningdek kichik bog‘lar hayotimizning ajralmas tarkibiy qismi sifatida shakllanayot-ganligi namoyon bo‘lmoqda.Inson hayot muhitining bir qismi va tarixning barcha bosqichlarida qadim zamonlardan beri unga yondosh bo‘lgan bu bog‘larning ko‘rinishi tarixiy davrlarning o‘zgarishi va ijodiy usullarning evolyusiyasi asosida o‘zgargan. Jahon madaniyati tarixining umumiy qabul qilingan amallariga muvofiq tashkil etilgan.

Dunyo olimlarining bog‘-park san’atiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarida zamonaviy kichik bog‘larni shakllantirishdagi kompozitsion usullar, sohadagi innovatsiyalar qayd etilgan. Kichik bog‘larning yangi badiiy shakllari, ularda yangi materiallar va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, shaharlarda kichik bog‘lar rivojlanishining istiqbolli yo‘nalishlari va tamoyillarining ilmiy-nazariy asoslarini yaratishni shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etgan. Biroq, O‘zbekiston amaliyotida kichik bog‘larning shakllanish asoslari innovatsiyalarini o‘rganish va ulardan foydalanish ishlari sust olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 29-dekabrda chiqargan 322 - sonli “2011-2015 yillarda madaniyat va istirohat bog‘larining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyati ni yanada takomil-lashtirish chora tadbirlari dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori ham asosan respublikamizdagi katta va yirik bog‘larni rivojlantirishga qaratilgan edi. Biroq, bizning har kungi ehtiyojimizga zarur bo‘lgan kichik bog‘larni loyihalash va me’moriy landshaft tashkillashtirish bo‘yicha shu vaqtgacha meyoriy tavsiya va takliflar ishlab chiqilmagan. Ayni paytda, ta’kidlash lozimki, landshaft arxitek-turasi va kichik bog‘larni yaratishga bog‘liq fanlarining Markaziy Osiyo respublikalarida jahon amaliyoti va ilmu fanidan orqada qolishi sezilmoqda.

Shunday ekan, kichik bog‘larni loyihalash va yaratishning respublikamiz iqlimiga mos me’moriy dasturini yaratish bugungi kunimiz va kelajak hayotimiz ehtiyojlaridan kelib chiquvchi dolzarb muammolardan biri deyishga haqlimiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi haqida”gi Farmoni, 2013-yil 13-avgustdagi PQ-223-sonli “O‘zbekiston Respublikasida landshaft dizaynini rivojlantirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2019-yil 4-iyunidagi PQ-4850-sonli “Aholi punktlarini obodonlashtirish sohasidagi ishlar samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari, 2021-yil 30-

dekabrdagi PF-46-sonli “Respublikada ko‘kalam-zorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvaridagi PF-60-son “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”[1]gi Farmonlari, shuningdek sohaga tegishli boshqa meyoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnolo-giyalar rivojlanishining I “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Ta’kidlash kerakki, Markaziy Osiyo xalqlarining bog‘-istirohatchiligi haqidagi tarixiy ma’lumotlar qator yozma manbalarda: “Boburnoma”, “Zafarnoma”, “Ubaydullanoma”, “Buxoro tarixi” kabi kitoblarda hamda Markaziy Osiyoga kelgan qadimgi arab geograflari va boshqa xorijiy tarixchilar, kelgan qadimgi arab geograflari va boshqa xorijiy tarixchilar, elchilar va sayohatchilar tomonidan bu haqda qiziqarli ma’lumotlar berilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbekiston bog‘-parkchilik san’ati, uning tarixi, landshaft arxitekturasi va dizayni, bog‘-park obyektlarini loyihalash masalalari ustida G.A. Pugachenkova[2], U. Alimov[3], Sh.D. Asqarov[4], M.S. Bulatov[5], M. Tuxtaxujayeva[6], M.Q. Axmedov[7], A.S. Uralov[8], L.A. Adilova[9], K.D. Raximov[10], T.F. Kodirova[11],

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

[2] Пугаченкова Г.А.Среднеазиатские Сади и парки.//В кн. Из художественной сокровишнитси Среднего Востока – Т., 1987. - С. 95-100.

[3] Alimov O‘. O‘rta asrlarda Movorounnaxrda bog‘chilik xo‘jaligi tarixi. – T., 1984.

[4] Асқаров Ш.Д. Город, регион, пространство.- М.,1997.

[5] Булатов М.С. Сади и парки Темуридов. Маскан. журнали,1993, №2. - Б. 36-38.

[6] Тухтахужаева М.С. Обшее В архитектурно-планировочних приемах садово-паркового исскуства Средней Азии ХИВ-ХВ вв.и Индии ХВИ-ХВИИ вв // Градостроителъства и архитектура. - Т., 1989.

[7] Axmedov M.Q. O‘rta Osiyo me’morchiligi tarixi. - T., 1996.

[8] Uralov A.S., Sadikova S.N. O‘rta Osiyo ana’aviy “Chorbog‘” uslubi va zamonaviy bog‘-park san’ati. Monografiya – T., 2012.

[9] Adilova L.A., Uralov A.S. bog‘ va parklarni ta’mirlash - T., 2017.

[10] Raximov K.D., Uralov A.S. Sharq mamlakatlarining bog‘-park san’ati. - T., 2013.

[11] Qodirova T.F. Mamatmusayev T.SH. Ulug‘bek davrida bog‘sozlik san’ati // O‘zbekiston arxitektura va qurilishi. № 2. 2009. - Б. 28-31.

N.V. Drobchenko[12], M.A. Yusupova[13], K.D Sattarova[14], D.A. Nozilov[15], T.Sh. Shirinov, A.S. Berdimurodov[16], T.Sh. Mamatmusayev[17], X.X. Kamilova[18], S.N. Sadikova[19], A.E. Jonuzokov[20], F. Maksimov[21], E. Klark[22], V.V. Dorminontova[23], B.B. Mustayev[24], M.S. Zoxidova[25] va boshqalar tadqiqot olib borganlar.

Ta’kidlash kerakki, Markaziy Osiyo xalqlarining bog‘-istirohatchiligi haqidagi tarixiy ma’lumotlar qator yozma manbalarda: “Boburnoma”, “Zafarnoma”, “Ubaydullanoma”, “Buxoro tarixi” kabi kitoblarda hamda Markaziy Osiyoga kelgan qadimgi arab geograflari va boshqa xorijiy tarixchilar, kelgan qadimgi arab geograflari va boshqa xorijiy tarixchilar, elchilar va sayohatchilar tomonidan bu haqda qiziqarli ma’lumotlar berilgan.

Akademik G.A. Pugachenkova O‘rta Osiyo bog‘-istirohatchilik san’ati an’analarini atroflicha o‘rganib, ana shu bog‘larga xos “chorbog‘”ning aksio nometrik tasvirini yaratgan. Bizgacha saqlangan o‘rta asr miniatyuralari hamda O‘. Alimov, G.A. Pugachenkova, D.A. Nozilov, A.S. Uralov, K.D. Raximov va S.N. Sadiqov, N.V. Gilmanovalar ishlab chiqqan grafik tasvirlar va ilmiy ma’lumotlar bizning o‘rta asr sharqona milliy bog‘larimiz, ayniqsa, chorbog‘ haqidagi bilimlarimizni ancha boyitishga yordam beradi.

Arxitektura doktori, akademik M.S. Bulatov o‘zining “Сади и парки эпохи Темура и Темуридов”nomli maqolasida Amir Temur va Temuriylar, shuningdek, Boburiylar davrida Shimoliy Hindistonda bunyod etilgan bog‘lar misolida o‘sha davr bog‘larining o‘ziga xos tasnif tizimini ishlab chiqqan. Shuningdek, S.S.Ojegov, A.S. Uralov, K.D. Raximovlarning

---

12 Дробченко Н.В. История становления и пути развития ландшафтной архитектуры // Ўзбекистон архитектура ва курилиш журнали, №2. 2009. - Б. 12-14.

13 Юсупова М.А. Традитсии архитектурного сада “Чорбоғ” В зодчестве Бухари ХВИ-ХВИИИ вв // Средная Азия: археология, История и културa – М., 2001.

14 Саттарова К.Д. Декоративная дендрология и световодство. - Т., 2010.

15 Nozilov D. A. Chorbog‘. – T., 1997.

16 Shirinov T.SH , Berdimurodov A.S. Amir Temurning bog‘-saroylari – Samarkand, 1996.

17 Mamatmusayev T.SH. Ulug‘bek davri arxitekturasi – T., 2013.

18 Камилова Х.Х. Проектирование многофункционального парка в саду. Учебное пособие. - Т., 2007.

19 Садикова С.Н. Парк Садова искусства Бабуридова. - Т., 2016.

20 Jonuzokov A.E. Shahar muhitida bog‘-parklarning o‘rni // Memorchilik va qurilish muammolari ilm tex. jurnal, №4, 2015. – b. 36-38.

21 Maksimov F.S. An’anaviy “Chorbog‘” uslubidagi milliy bog‘larning shakllanish tarixi // konferensiya materiallaridan 2015.-b.29-31

22 Кларк Э. Исскуство исламского сада. Пер. s.angl. – М. “Ниола-Пресс”, 2008.

23 Дорминонтова В.В История садова-парковых стилей. Учебное пособие. - М. 2004.

24 Mustayev B.B. O‘zbek milliy bog‘ini me’moriy dasturini yaratishning ilmiy-nazariy va loyihaviy asoslarini takomillashtirish // Dissertatsiya – T., 2019. - B. 70-80.

25 Zaxidova M.S. Kichik bog‘larni loyihalashni o‘rganish asosida ularni yaratishning me’moriy dasturini ishlab chiqish. Magistrlik dissertatsiyasi.Samarqand, 2018. - B. 65-75.

“landshaft arxitekturasi va dizayni” nomli kitobida, shuningdek K.D. Raximov, A.S.Uralovlarning “Sharq mamlakatlarining bog‘-park san’ati” nomli kitobida o‘rta asrlardagi sharqona bog‘-saroylar haqida juda qiziqarli ma’lumotlar keltirilgan va, xususan, “chorbog‘”larning tuzulishi va tasnif-tizimi haqidagi yangi fikr mulohazalar ilgari surilgan. Bu masalaga, shuningdek, arxitektura bo‘yicha falsafa doktori S.N. Sadikova ham yaqindan yondoshib, o‘zining “O‘zbekiston landshaft arxitek-turasida Temuriylar bog‘larini qayta tiklash konsepsiyasi” degan nomzodlik dissertatsiyasida Markaziy Osiyoda Temuriylar davrida tiklangan bog‘lar bilan Boburiylarning Hindistonda, xususan, Kashmir va Laxorda bunyod etgan bog‘lari orasida o‘ziga xos tarixiy –tadrijiy davomiylik va an’anaviylik borligini va ayni paytda, ular orasidagi mavjud tafovutlarni, yani me’moriy o‘ziga xosligini ham aniqlashga muvaffaq bo‘lgan .

Xorij olimlari orasida kichik bog‘lar mavzusida shug‘ullanganlar soni juda kam. J. Amidon zamonaviy kichik bog‘lar haqida “Radical Landscapes” (2001)[26] nomli kitobini, J. Brown “The modern garden” (1997)[27] nomli asarini yozgan. Rossiyalik olima E. Lazarova Shahar muhitida kichik bog‘larga bag‘ishlangan “Малий сади в городской среде” (M, 2001)[28] dissertatsiyasini yozgan. E.B. Zabelina esa kichik bog‘larning, xususan, “ART landshaftlari”ning yangi shakllarini tadqiq qilishga doir “Poisk novix form v landshaftnoy arxitekture” (M., 2005)[29] kitobini yaratgan. Ushbu asarda Yevroittifoq mamlakatlari, Yaponiya va AQShda yaratilgan kichik va mo‘jaz bog‘lar haqidagi mulohazalar bayon etilgan. Xorijiy tadqiqotchilar Rosemary Alexander, Richard Sneesbylarning “The garden marker’s manual” (2005)[30] qoo‘llanmani yaratgan.

Ushbu qoo‘llanmada obodonlashtirish va inshootlarning barcha jihatlarini - asfalt va yo‘llardan tortib suv o‘tkazgichlari, yorug‘lik, devorlar va to‘siqlargacha ko‘rsatilgan.

Kod asosida shahar maydoni va kichik bog‘lar hududlarini me’moriy landshaft dizayni rekonstruksiyasi vositalarini taklif qilish, shahar muhiti land-shaftini qayta tashkil qilish, ekologik barqarorligini ta’minlash, turli maqsadlardagi kichik bog‘lar muhiti, bino va inshootlar, ko‘kalamzor hududlar, yo‘l bo‘yi hududlari, reklama konstruksiyalari uchun arxitektkra dizayn yechimlari ishchi loyihalarini tuzish hamda ularni tartibga solish, shahar landshaft elementlarining, shu jumladan kichik bog‘larning shahar

[26] Amidon J. Radical Landscapes - 2001.
[27] Brown J. The moderns gardens – 1997.
[28] Лазарева Э. Малий сади в городской среде” – M., 2001.
[29] Zabelina E.B. Poisk novix form v landshaftnoy arxitekture - M., 2005.
[30] Rosemary A., Richard S. The garden marker`s manual – 2005.

hayotidagi rolini, kichik bog‘larning funksiyalari va afzalliklarini ko‘rib chiqish va yaratish, modernizasiyalash yo‘nalishlari ustivordir.

Yuqorida keltirilgan adabiyotlardagi ma’lumotlar kichik bog‘lar yaratish ishlariga yetarlicha xizmat qila oladi, deb ayta olmaymiz. Bu sohadagi zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va ijodiy loyihaviy izlanishlar respublikamizda endigina boshlanmoqda desak xato bo‘lmaydi. Chunki hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan ulkan o‘zgarishlar kabi landshaft arxitekturasi va bog‘ - istirohatchilik san’atida yirik, katta hududlar talab qiladigan ulkan bog‘lardan ko‘ra kichik bog‘larga bo‘lgan moddiy va ma’naviy ehtiyoj keng quloch yoymoqda. Shu munosabat bilan O‘zbekiston iqlimi sharoitida kichik bog‘larni yaratishning ilmiy –nazariy asoslarini o‘rganish, ularni loyihalash va me’moriy dasturini ishlab chiqish dolzarb masalaga aylanmoqda.

**Tadqiqotning monografiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat arxitektura - qurilish universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘rta Osiyo o‘rta asrlar landshaft arxitekturasida qo‘llanilgan “Chorbog‘” uslubini zamonaviy bog‘-istirohatchilik amaliyotida qayta tiklash” (2009-2011) hamda F1-23 “O‘zbekiston arxitekturasining mustaqillik mafkurasi va innovatsion rivojlantirish qonuniyatlari asosida tadqiq etish va samarali yo‘llarini ishlab chiqish” - (2018-2022) mavzulari doirasida bajarilgan.

**Monografiyaning maqsadi** O‘zbekiston milliy bunyodkorlik qadriyatlariga xos bo‘lgan,biroq shu choqqacha ilmiy jihatdan kam o‘rganilgan sohalardan biri kichik bog‘larni Respublikamiz sharoitiga moslab loyihalashning me’moriy dasturi va arxitekturaviy landshaft tamoyillarini ishlab chiqishdir.

**Monografiyaning vazifalari:**

- issiq quruq iqlimli mamlakatlar, shu jumladan vatanimiz tajribalarini o‘rganish orqali kichik bog‘larni yaratishning ilmiy asoslarini yoritib berish;
- kichik bog‘larni loyihalashning vatanimiz va xorijiy tajribalarni o‘rganish;
- kichik bog‘larni loyihalashning zamonaviy yo‘nalishlarini aniqlash;
- kichik bog‘larning tarixiy va zamonaviy tipologiyasini aniqlash va ular ning tasnif tizimini yaratish;
- kichik bog‘larni loyihalashning arxitekturaviy landshaft tamoyillarini yaratish;
- kichik bog‘larni amaliyotga joriy qilish uchun ilmiy asoslangan me’moriy dasturni ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O‘zbekiston bog‘ – park san’atiga xos tarixiy va zamonaviy obyektlar: mehmonxona komplekslari, supermar ketlar,

xordiq chiqarish va davolanish maskanlari, bolalar bog‘chalari, maktablar, litseylar, kollejlar va texnikumlar, turar joylar uylari guruhining bog‘lari, kvartallar ichidagi hovli bog‘i, kottejlarning hovli bog‘lari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** esa xorijiy mamlakatlar va O‘zbekiston misolida kichik bog‘larni yaratishning tarixiy va zamonaviy tipologiyasini, me’moriy-rejaviy va landshaft yechimlarini o‘rganish va ular asosida bunday bog‘ni loyihalashning me’moriy dasturini yaratishdan iboratdir.

**Tadqiqotning usullari** muammoga doir ilmiy va maxsus adabiyotlar, loyiha va hujjatlarni o‘rganishdan to‘plangan materiallarni taqqoslash usulida tahlil qilish; bog‘–park san’atiga doir tarixiy tajribalar, yutuqlar, an’analar va ijodiy yo‘nalish-larni o‘rganish va umumlashtirish; loyihaviy takliflar berish.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

- kichik bog‘lar tushunchasiga aniqlik kiritilgan;
- kichik bog‘larning tarixiy va zamonaviy tasnif–tizimi va tipologiyasi yaratilgan;
- kichik bog‘larni loyihalashning zamonaviy yo‘nalishlari aniqlanib, ularga “Zamonaviy ekologik bog‘lar” va ularning turlari (loyihalanayotgan joy tabiatining bir qismi tarzida yaratilgan kichik bog‘lar, loyihalanayotgan bino muhandislik tizimining bir qismi sifatida shakllan tirilgan mo‘jaz bog‘lar, yashil arxitektura tarzida, ya’ni bino va bog‘ mushtarakligida yaratilgan kichik bog‘lar) hamda “Art-landshaftlar” va ularning turlari kiritilgan;
- kichik bog‘larni loyihalashda qo‘llaniladigan landshaft kompozitsiya larining turlari takomillashtirilgan;
- kichik bog‘larni me’moriy landshaft loyihalashda qo‘llaniladigan tabiiy va sun’iy vositalar tarkibi takomillashtirilgan.Tabiiy vositalarga o‘simliklar, suv hav-zalari, tabiiy relyef elementlari, tabiiy toshlar, parrandalar, qushlar va baliqlar dun-yosi kiritilgan.Sun’iy vositalarga yer relyefi bilan bog‘liq qurilmalar, geoplastik kompozitsiyalar suv qurilmalari, yer to‘shamalari, mo‘jaz milliy me’moriy shakl-lar, xalq amaliy san’ati elementlari va landshaftni nurli-rangli yorug‘lantirish qurilmalari kiritilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

- kichik bog‘lar landshafti uchun O‘zbekiston tabiati va iqlimiy sharo itlarini hisobga olib, ularga xos o‘simliklar turlari viloyatlar kesimida ajratib ko‘rsatilgan;
- kichik bog‘lar hududlarini ko‘kalamzorlashtirishda turli tashqi ta’sir larga chidamli manzarali zamonaviy daraxtlar, butalar va lianlar turlari va shakllarini respublikamizning turli iqlimiy mintaqalarida qo‘llash bo‘yicha ishlab chiqilgan o‘simliklar assortimentlardan foydalanish tavsiya etilgan;
- kichik bog‘larni loyihalash va yaratish bo‘yicha 16 ta qoidadan iborat me’m oriy dastur ishlab chiqilgan;
- kichik bog‘larni yoritishning nurli-rangli badiiy kompozitsiyalari

aniq langan.Ularga: manzaraviy yoritish usullari, dekorativ yoritish, o‘simliklar guruhlarini yoritish, grlyandlar, favvora tizginlarini yoritish, kichik land shaft kompozitsiyalarini yoritish, klumbalar, tekis parterlar, rabatkalar, yo‘laklar, suv havzalari va boshqa landshaft elementlarini yoritishlar kiradi;

- amaliyotda qo‘llash uchun uchta kichik bog‘ loyihasi taklif etilgan.

Ularning biri kichik topiar bog‘i, ikkinchisi Navoiy viloyati, Karmana tumani tibbiyot birlashmasi qoshidagi kichik bog‘i, uchinchisi Narpay tumani Oqtosh shahridagi Islom shoir va Bektosh Rahimov bog’ining landshaft dizayni taklif loyihasidir.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ishda qo‘llanilgan ilmiy yondashuv-lar, usullar va nazariy ma’lumotlarning me’moriy loyihalash orqali amaliyotga joriy etilganligi,dissertatsiya natijalari va loyihaviy takliflarning respublikadagi sohaga tegishli vakolatli tuzilmalar tomonidan e’tirof etilganligi to‘g‘risidagi dalolatnomalar bilan asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, O‘zbekiston arxitekturashunos- ligi va landshaft dizayni sohasida ushbu muammo ilk bor falsafa doktori dissertatsiyasi tarzida bajarilib, uning asosida masalani kengroq, ya’ni O‘rta va Yaqin Sharq, Yevropa va Uzoq Sharq mamlakatlari hamda O‘zbekiston misolida tadqiq qilingan va mavzuning ilmiy natijalarini yanada takomillashtirishga qulay imkoniyat tug‘ilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O‘zbekiston bog‘-istirohatchilik san’atida kichik bog‘larni me’moriy-landshaft loyihalashning ilmiy asoslari va me’moriy dasturining yaratilishi respublikamiz loyiha-qurilish va landshaft dizayni tashkilotlari uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lishligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O‘zbekiston iqlimi sharoitida kichik bog‘larni yaratishning me’moriy asoslari tadqiqoti bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Kichik bog‘larning me’moriy-rejaviy yechimini shakllantirish bog‘ uchun ajratilgan hududning holatiga bog‘ning qanday funksiyaga mo‘ljallanganligiga, uning hududini funksional zonalarga bo‘lish va bu zonalarga mos tarzda bog‘larning rejaviy elementlarini aniqlashga bog‘liqligi, eng asosiy masala bog‘ning badiiy me’moriy-landshaft yechimini topish va shakllantirish ekanligi, bog‘ rejasini aniqlovchi asosiy tabiiy omil bu hudud re’lefi ekanligi, bog‘ landshaftini shakllantiruvchi asosiy komponent bu bog‘ o‘simliklari ekanligi haqidagi muallif xulosalaridan hamda kichik bog‘larni loyihalash bo‘yicha ishlab chiqilgan 16 ta qoidadan iborat me’moriy dasturdan Samarqand, Kattaqo‘rg‘on, Termiz va Navoiy shaharlarida obodonlashtirish boshqarmalari faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi

vazirligining 2024 yil 16-yanvardagi 08-06/441-son ma'lumotnomasi). Natijada kichik bog'larni me'moriy – landshaft shakllantirishda muallif tomonidan ishlab chiqilgan 16 ta qoidadan iborat me'moriy dasturdan foydalanish imkoniyati yaratilgan.

O'zbekiston iqlimi sharoitida kichik bog'larni me'moriy-landshaft shakllan-tirishda tavsiya etilgan o'simliklar: **daraxtlardan** (yaproq bargli daraxtlarga ginkgo biloba kashtan turlari, qayrag'och turlari, gledichiya, sofora, aylant, oq akatsiya, maklyura va boshqalar; **nina bargli daraxtlardan** metasekvoyya, biota, virgin archasi, eldor qarag'ayi, sarv, va boshqalar); **butalardan** (amorfa, yulg'un, qandim, cherkez, qum akatsiyasi, ligustrum, gibiskus, shilvi, forzitsiya, totim, drok, na'matak); **lianlardan** (O'zbekistonda amur toki, yapon toki, beshbargli devichiy vinograd, xitoy glitsiniyasi, yapon jimolisti, jimolost kaprifol, klematis, plyush, tekoma va boshqalar); **gullardan** (romashka (moychechak), hamisha bahor, narsiss, gvozdika turetskaya, iris, sinniya, astra, petuniya, pelargoniya, bazilik fioletoviy "Tyomniy opal", begoniya grasilis, margarita mnogoletnaya, nastarin, guli rano, nilufar, rudbika, atirgullarning bir nechta turlari va xrizantema kabilar); **yeryopar o'simliklardan** ("gilam" ko'rinishli o'simliklar timyan, ochitok) lar tanlanishining maqsadga muvofiq ekanligi, haqidagi tadqiqot natijalaridan Samarqand, Navoiy, va Termez shahar obodonlashtirish boshqarmalari faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2024-yil 16-yanvardagi 08-06/441-son ma'lumotnomasi). Natijada O'zbekiston sharoitida kichik bog'larni me'moriy-landshaft tashkillash tirishda milliy an'analarimizga asoslangan daraxtlar, butalar, lianlar va yeryopar o'simliklarni tanlash ishlarida samarali natijalarga erishilgan.

Kichik bog'lar landshaft dizaynining asosiy obyekti hisoblanishi, kichik bog' deganda landshaft dizayni vositalaridan foydalanib shakllantirilgan, jamoat va turar joy binolari hovlilari hamda rekreatsion obyektlar hududida joylashgan, hududi jihatidan cheklangan bog'lar tushunilishi, kichik bog'lar hududi O'zbekistonda, odatda 0,2 gektardan to 1-2 gektargacha, ayrim hollarda esa 5 gektargacha bo'lishi mumkinligi, ularning hududi 20 sotokgacha bo'lsa, ular mo'jaz bog'lar deb atalishi, kichik bog'larga, odatda, turarjoy hovlilari, ofislar, mehmonxona komplekslari, super-marketlar, xrodiq chiqarish va davolanish maskanlari, maktabgacha tarbiya muassasalari, maktablar, litsey va kollejlar va boshqa muassasalarning hududlarida me'moriy-landshaft vositalari asosida tashkillashtirilgan bog'larning kiritilishi haqidagi muallif xulosalaridan Samarqand va Navoiy shahar obodonlashtirish boshqarmalari faoliyatida foydalanilgan ("O'zshaharsozlik LITI"davlat muassasasining 2023-yil 21-dekabrdagi 1-01/1511-sonli dalolatnomasi). Natijada kichik bog'larni shakllantirishda ularning hududiy chegaralarini, o'lchamlarini va yer

maydonini aniqlash, ularni ko‘p funksiyali istirohat bog‘laridan farqlashda, ijtimoiy muassasalar hovlilaridagi kichik bog‘larni yaratish ishlari takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tqa zilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 21 ta ilmiy ish, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, ularning 8 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob xulosalari bilan yakuniy xulosa, dissertatsiya natijalari va takliflar, foydalanilgan adabiyotlardan iborat va 134 betni tashkil qiladi.

# I–BOB.
# KICHIK BOG‘LAR HAQIDAGI UMUMIY MA’LUMOTLAR

## 1.1. Bog‘larning tarixiy shakllanishi va rivojlanish bosqichlari

Kichik bog‘larning ilk shakllanish davri (eramizgacha 2000 yillardan to eramiz boshlarigacha) haqida turli xil yozma manbalar adabiyotlarda ma’lumotlar saqlanib bizgacha yetib kelgan. Bog‘dorchilik san’atining ilk shakllanishi asosan, Osiyo hududidagi issiq iqlimli mamlakatlar (Misr, Bobil, Eron, Hindis tonlar) ga to‘g‘ri keladi. Bog‘chilik san’ati insoniyat sivilizasiyasi vujudga kelgan va sug‘orish inshootlari yaratilgan [42; 44; 46; 61]. Bu davrdagi kichik bog‘lar hukmdorlarga tegishli bo‘lib, ular asosan uylar va saroylar, ibodatxonalar hovlisidagi manfaatli bog‘larni tashkil qilgan. Bu kichik bog‘lar muayyan reja asosida shakllantirilib, me’moriy yechimini muntazam simmetrik kompo-zisiyalarga asoslangan. Bu davr kichik bog‘larining maydoni nisbatan kichik bo‘lgan. Biroq, Eron shohlarining eramizgacha bo‘lgan davrlardayoq tog‘ vohalarida katta ov bog‘lari “payridez” larni tashkil etgan [53; 11. b].

Kichik bog‘larning qadimgi va o‘rta asrlar davri (eramiz boshidan to XIV asrgacha) haqida juda kam ma’lumotlar mavjud. Ularning ayrimlari arxeologik topilmalarda, buyum va gravyura larda, devoriy surat va naqshlarda, barelyeflarda uchraydi [48; 65]. Bu davr kichik bog‘lari o’rta Osiyo hududidan chiqib qadimgi Yunoniston va Rim mintaqalarini qamrab olgan. Bu davrdagi kichik bog‘lar oldingi davr bog‘laridan farq qilmasada, soni va tipologiyasi bilan ajralib turgan. Turar joylarning hovli bog‘lari, saroylar, ibodatxonalar qoshidagi kichik bog‘lardan tashqari shaharlardan tashqari dagi villalar, gimnaziyalar, liseylar, akademiyalar, shahar piyoda ko‘chalaridagi bog‘larini tashkil qilgan. Ularning o‘lchamlari ham ancha kattargan. Bu davrda topiar san’ati va labirintlar shakllantirilgan [53; 12. b].

Kichik bog‘larning rivojlanish davri (XV–XVII asrlar) Bu davrda qurilgan bog‘larning ko‘pchiligi dastlabkidek ko‘rinish va salobatga ega bo‘lmasada, bizgacha yetib kelgan. Bu davrda yer yuzining turli mintaqalarida bir–biridan farq qiluvchi milliy bog‘lar shakllantirila boshlangan. Temuriylar davridagi chorbog‘lar, Yevropada inglizcha, fransuzcha, italyancha, ruscha, Uzoq Sharqda yaponcha, xitoycha, O‘rta va Yaqin sharqda keng tarqalgan islomiy bog‘lari aynan ana shu davrda rivojlantirilgan [24; 18. b]. Bog‘lar peyzajli, ya’ni erkin tabiat manzaralari ko‘rinishini olgan bog‘larga va arxitektura viy, ya’ni muntazam tartibli, geometrik rejali bog‘larga ajratilgan. Fransuzcha bog‘lar odatda, tekis joylarga, italyancha bog‘lar esa pog‘onasimon muntazam rejali bog‘larga

bo‘lingan. Islomiy bog‘lar chorbog‘ uslubi da, muntazam rejali tekis va pog‘onasimon turlarga bo‘lingan. Ularning chorbog‘ – xiyobon turlari ham mavjud bo‘lgan [53; 14. b].

Bog‘-park san’ati, xususan kichik bog‘lar Markaziy Osiyoda ham juda qadim zamonlardan rivojlangan. Bunga tarixiy manbalar ham guvohlik beradi. Jumladan, Zarafshon vodiyining yuqori qismida shaharchasidan topilgan hujjatlardan Sug‘d yerlarida VII-VIII asrlarda ham dam olishga mo‘ljallangan bog‘lar bo‘lganligi ta’kidlanadi [11; 25. b].

“Chorbog‘” nomli Buxoro bog‘lari X asr tarixchisi Narshaxiy asarida ham tilga olingan [77; 20. b].Chorbog‘ hamma, aniqrog‘i to‘rt tomoni devor bilan o‘ralgan, to‘rt qismli bog‘ degan tushunchadan kelib chiqqan bo‘lsa kerak. Bog‘-pakr san’ati tadqiqotchisi O‘. Alimov ham shunday fikrda.

XIV-XV-asrlarda ”Chorbog‘” nomli muntazam rejali bog‘ yaratishga alohida e’tibor berilgan. XIV-asrda Samarqandda Bog‘i Naqshi Jahon, Bog‘i Behisht, Bog‘i Bo‘ldi, Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Shamol, Bog‘i Zog‘an, Bog‘i Baland, Bog‘i Davlatobod va boshqalar chorbog‘ uslubida bunyod etilgan bog‘lar bo‘lgan. Bunday chorbog‘lar to‘g‘ri to‘rtburchak yoki tomonlari teng to‘rtburchak maydonga ega bo‘lib, uning markazidan bog‘ imorati (ko‘shk-saroy) o‘rin olgan [33; 12. b].

Bog‘ imoratlari tarhda bir necha xonalardan tashkil topgan. Ularning atrofida, burchaklarida ayvonlar o‘rnatilgan. Xona derazalari o‘rni ham bir nechta va katta bo‘lgan. Bog‘ ayvonida o‘tirgan kishining bog‘ manzarasidan yaxshi bahramand bo‘lishiga mo‘ljallangan. Qadimiy qo‘lyozmalarda “Chordara” nomli kichik bog‘ yoki bog‘ imorati ham ko‘p uchraydi [50; 12. b].

Bunday bog‘-imorat saroylar simmetrik qoidalarga rioya qilingan holda qurilgan bo‘lib, ichki ko‘rinishi xochsimon shaklda tuzilgan. Ularning to‘rt tomonidan joylashgan eshiklariga alohida e’tibor berilgan.

Chorbog‘ atrofi paxsa devor bilan o‘ralgan. Devorining yuzasida bizgacha saqlangan XIX asr bog‘ qo‘rg‘onlari kabi naqshlar o‘yilgan. Bog‘ning to‘rt tomonida kirish darvozalari bo‘lib, ular peshtoq bilan belgilangan [51; 26. b]. Peshtoqlar sirlangan rang-barang koshin bilan bezatilgan bo‘lishi kerak. Uzun va baland bog‘ devorlar mustahkamligini ta’minlash uchun bog‘ burchaklarida va devor oralarida minora shaklida guldastalar o‘rnatilgan. Boqqa suv katta ariqdan ajralgan ariqchalar orqali keltirilgan. Ariq chorbog‘ ichidan atrofi bo‘ylab aylantirilgan va markazidagi hovuzga va chor-chamanlarga yo‘naltirilgan. Bog‘ yuzasi to‘rt qismga, har qaysi qism bog‘ esa chorchamanga, to‘rt chamanga bo‘lingan. Imorat maydonidan to‘rt tarafga yo‘laklar tarqalgan.Chorbog‘lar mutaxassislar tomonidan loyihalar asosida yaratilgan. Bunga XVI asr tarixchisi Xasanxo‘ja Nasoriy dalillari ham guvohlik beradi uning yozishicha, hirotlik Mirak Said

G‘iyosning ishti rokisiz biron bir imorat, bog‘lar tarhi, yer osti inshootlari va ekin dalalar joylashish tartiblari amalga oshmagan. Mirak Said G‘iyos Buxoroda Ubaydulloxon uchun juda ko‘rkam chorbog‘ barpo qilgan [33; 13. b].

Ma’lumki, qadimiy shaharlar atrofi kichik bog‘zorlarga burkangan. Ularning aksariyati xo‘jaliklarga tegishli bo‘lgan. Ular erta bahorda Boqqa ko‘chib o‘tishgan. Hozirgi kunda ham Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa shahar lar atrofida XVII-XIX asrlarga oid kichik bog‘ imoratlarining qisman saqlangan bo‘lagini, devorini yoki o‘zini uchratish mumkin. Bog‘ imorati Samarqandda qo‘rg‘on, Buxoroda qo‘rg‘oncha, Xivada hovli deb yuritilgan. Qo‘rg‘onlarning aksariyati ikkita, ichki va tashqi hovlidan iborat bo‘lgan. Tashqi hovlida xo‘jalik, ichida esa turar xonalar joylashgan. Qo‘rg‘on devor lari yuzasi har xil kompozisiyada geometrik va o‘simliksimon o‘yma naqshlar bilan bezatilgan.

Devor yuzasida har xil doira, romb, to‘g‘ri to‘rtburchak, archasimon naqshlar o‘yilgan. Shuningdek, katta va kichik mehrob shaklidagi naqshlar mavjud. Katta mehrob ichiga mayda naqshlar did bilan joylashtirilgan. Naqshlar xuddi uzukka ko‘z qo‘ygandek qo‘rg‘onni bog‘ manzarasi bilan bog‘lan gan. Kichik bog‘-qo‘rg‘on mustahkamligini ta’minlash uchun uning burchaklari minoraga o‘xshash qalin guldastalar bilan belgilangan.

Devorning qolgan qismida ham har to‘rt-besh matoda shunday qurilmali guldastalar mavjud. Ularning ham yuzalari naqsh bilan to‘ldirilgan. Ayrim qo‘rg‘onlarda katta guldastalar oralig‘ida devorning o‘rtasidan yuqoriga ko‘tarilgan juft, toq, yakka holda o‘rnatilgan guldastalar asosan dekorativ bezak vazifasini o‘tagan. Ularning ayrimlari ustunlarga o‘xshatib poy kursi, madoxil, tana va kalla (kapitayel) kabi qismlarga bo‘lingan [50; 53. b].

Bog‘ imorati bog‘ chegarasiga qarab, ya’ni bog‘ ko‘chalar yonida joylash-tirilgan. Natijada bog‘ ko‘chalaridan borar ekanmiz alohida-alohida bir-biridan uzilgan bog‘ imoratlariga duch kelamiz. Ayrim paytda ular ko‘chaning ikki betida bir biriga qaratilgan bo‘lib, xuddi ma’muriy, diniy obidalar dagidek “qo‘sh” uslubidagi ansambl turkum tarzida qurilgan [33; 14-16. b].

Bog‘ imoratining kirish qismi ko‘cha tarafga yoki yon tomonga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Kirish eshigi ko‘chaga qaralgan kichik bog‘ ko‘chadan biroz ichkariga siljitilgan holda, ya’ni oldida maydon qoldirish imkoni yaratilgan holda qurilgan. Maydonda esa dam olish uchun supa va hovuz bunyod etilgan. Kirish eshigi yon tomonga qaratilgan qo‘rg‘onning yon tomonida maydon mavjud. Bunday paytda qanday manzaraga duch kelishimizni faraz qilib ko‘raylik. Bog‘ ko‘chadan, qo‘rg‘onning baland

devori yonidan borayotib miz. Ko‘zimiz uning naqshlarini tomosha qilish bilan band. Qo‘rg‘on devori tugashi bilan ko‘z o‘ngimizda bexosdan katta maydon, o‘rtasida hovuz, hovuz atrofida katta-katta sersoya daraxtlar, yonida esa supali manzara namoyon bo‘ladi. Bahri dilingiz ochiladi, hoy-nahoy supada dam olgingiz keladi. Qo‘rg‘on nafaqat o‘zining guldastalari, o‘yma devoriy naqshlar bilan boy ko‘rinishga ega. U o‘zining tuzilishi, oldidagi maydoni bilan ham o‘zaro bog‘langanligi, mutanosibligi bilan esa chiroyli, yaxlit kompozisiyani tashkil qiladi. U yer rangidan ajralmagan paxsa devori, yuzasidagi o‘simlik simon, geometrik naqshlari bilan yozda ko‘m-ko‘k, yam-yashil, kuzda barglari sariq, qizg‘ish tus olgan daraxtzor bilan bog‘lanib, tabiat landshaftidan ajralmagan tabiiy muhitni tashkil qiladi. Kishi ko‘zini quvontiradi. Bunday manzarani yaqin yillargacha Samarqandning Lolazor mahallasida uchratish mumkin edi. Endilikda bunday manzarali bog‘lar o‘rinini ko‘p qavatli imoratlar egallagan [33; 14-16. b].

Fikrimizga yakun yasab, quyidagilarni ta’kidlashimiz lozim:

- O‘rta Osiyoda kichik bog‘dorchilikka juda qadim zamonlardan alohida e’tibor berilgan;
- o‘rta asrlarda chorbog‘larni simmetrik tarhda yaratishga o‘tilgan;
- bog‘ tarhi loyihasini tuzuvchi maxsus mutaxassislar bo‘lgan;
- chorbog‘ imorati ko‘shk saroyi serhasham va tomonlari dekorativ panjara lar bilan to‘silgan chortoq orqali boqqa qaratilgan. Shuningdek, bog‘ ko‘shki kompozisiyasida ayvonlarga ko‘p e’tibor berilgan;
- XVIII-XIX asrlarda bog‘ imoratlari (qo‘rg‘on hovli) shahar atrofidagi bog‘larda shinam maydon va ansambllarni tashkil qilgan;
- kichik bog‘ imoratlaridagi o‘yma bezaklar ularni atrof-muhit manza rasi bilan kompozision bog‘langan va bir-birini to‘ldirgan [33; 14-16. b]. [50; 60-62. b]. (1-ilova).

## 1.2. Kichik bog‘larning tarixiy turlari

Eng qadimgi kichik bog‘larning fanga ma’lum bo‘lganlari yer yuzining dastlabki sivilizasiyalaridan biri hisoblangan Misrda vujudga kelgan. Sug‘orilish inshootlari va qurilmalariga asoslangan yuksak saviyadagi Misr dehqonchiligi o‘ziga xos issiq iqlim, jazirama quyosh taftidan bekinish va quyuq soyaga erishish ehtiyojlari bu o‘lkada kichik bog‘lar yaratishni talab qilgan.

Misrda eramizgacha II ming yillar o‘rtalaridan boshlab yangi podsholik davri naqsh–bezaklarida turli hovuzlar va bir–biridan farq lanuvchi ekinlar va manzarali daraxtlarga, to‘g‘ri burchakli muntazam me’moriy rejaga ega bo‘lgan xususiy kichik bog‘larning tasvirlari uchraydi [26; 48. b].

Kichik bog‘larning tarixiy turlariga quyidagilar kiradi:

- hukmdorlarning saroylari qoshidagi yoki hovlisidagi bog‘lar;
- ibodatxonalarning hovli bog‘lari;
- maqbaralar qoshidagi bog‘lar;
- o‘quv muassasalari, akademiyalar qoshidagi bog‘lar;
- amaldorlarning qo‘rg‘onlar (dala hovlilari);bog‘lari
- Ispaniyaning “patio” bog‘lari;
- Eronning “mushrabiya” bog‘lari;
- Italyancha bog‘lar;
- Fransuzcha bog‘lar;
- Xitoy xovli bog‘lari;
- Yaponiyaning choy bog‘lari;
- Yevropaning qishgi va oranjereya bog‘lari.

Endi ushbu bog‘larga aloxida to‘xtab o‘tamiz.

**Hukmdorlarning saroylari qoshidagi yoki hovlisidagi bog‘lar -** Bunday kichik bog‘lar hukmdorlar saroylari oldida, badavlat uylarning ichki hovlilarida, ibodatxonalar atrofida qurilgan. Saroylar va ibodatxonalar odatda Nil daryosining toshqini yetib bormaydigan tepaliklarda qurilgan. Qadimgi Misr qirlari etaklarida pog‘onali (ko‘p sahnli) kichik bog‘lar vujudga kelgan. Saroylarning ichki hovlilari tekislanib to‘g‘ri burchakli tekis kichik bog‘lar barpo etilgan. Bog‘ chetlariga katta dov–daraxtlar, ichkariga esa past bo’yli manzarali daraxt va butalar ekilgan. Kichik bog’ o‘rtasida katta hovuz, uning yoniga soyabon qurilgan [59; 43-44. b].

**Ibodatxonalarning hovli bog‘lari.** Karnak shahridagi Amon va Edfu shahridagi Gora ibodatxona qoshda «Sfinkslar xiyobonlari» saqlangan bo‘lib, ular eramizgacha XV–XIV asrlarda landshaft arxitekturasining xiyobon ko‘rinishidagi yodgorligi hisoblangan. Ibodatxonaga Sfinkslar xiyoboni orqali kirib kelishgan . Misrdagi eng uzun Sfinkslar xiyobonining uzunligi 3,5 kilometr bo‘lgan. Shahar ko‘chalarining landshaft muhitini yechish tajribasi ham Qadimgi Misrda ushbu davrga taalluqli bo’lgan. Shimoldan janubga qarab bir necha kilometrga cho‘zilgan Axetaton shahrining shoh ko‘chasi esa har ikki tomonidan palma daraxtlari bilan chiroyli bezatilgan. Bir qatorda joylashgan sfinkslarni palma daraxtlari bilan almashtirish shahar shoh ko‘chalarining landshaft yechimida katta yangilik hisoblagan. Misrdagi bu qadimiy xiyobonning kompozision uslublari keyinchalik hayotga keng qo‘llanila boshlangan [59; 46-47. b].

**Maqbaralar qoshidagi bog‘lar**. Hindistonning maqbara-bog‘lari. Hindistondagi maqbara-bog‘lari orasida eng mashhur bo’lgan Agradagi Toj Mahaldir (XVII asr). Uni Boburiy Shoh Jahon rafiqasi Orzumandbonu (Mumtoz Mahal) ning so‘nmas xotirasi bag’ishlab qurdirgan. Toj Mahal ham boshqa maqbara-bog‘lar kabi chorbog‘ uslubida rejalangan. Maqbara binosi

Humoyun va Akbarshoh maqbaralari kabi kichik bog‘ markazida emas, balki uning to‘rida joylashtirilgan. Natijada maqbara-bog‘ g‘oyasini o‘zida mujassamlashtirgan ertaknamo obida va go‘zal chorbog‘ hosil bo‘lgan [66; 67]. Bosh xiyobon bo‘ylab o‘tkazilgan keng ariqlar va hovuzlarga tushgan maqbarasaroy aksi kichik bog‘ muhitiga yanada maftunkor fayz baxshida etib turubdi. Toj Mahalni tomosha qilishga kelganlar chorbog‘ darvozasidan kirib to maqbara binosiga borguncha ko‘z o‘ngida ming turfa jilo berib tovlanayotgan obidaning jamoliga to‘ymay, bu jannatmakon bog‘ni kengroq mushohada etishga shoshiladi. Hindistonning Auranobod shahrida ham me’moriy-rejaviy kompozisiyasi jihatidan Toj Mahalga yaqin bo‘lgan Bibi-Kamakbar maqbara-bog‘i (XVII asr) saqlanib qolgan [59; 74-75. b].

**Amaldorlarning qo‘rg‘onlar (dala hovlilari) bog‘lari.** Hovli bog‘lari tarhda, to‘g‘ri to‘rt burchak shakllarda bo‘lib, ularning arxitekturasi hovlini o‘rab turgan xonalarning devorlari, eshiklari, derazalaridagi naqshlar, eng asosiysi, g‘aroyib suv inshootlari favvora va hovuzchalar shakllarining o‘zaro kompo-zisiyaviy uyg‘unligi, ularning “inson masshtabi”ga mutanosibligidadir. Algambra Sherlar hovli bog‘ining marka zida marmardan ishlangan 12 ta (yilning 12 oyi) sher haykallari majmuasi joylashib, ular og‘zidan suv tizgini otilib turadi. Haykallar ustida katta basseyn kosasi joylashgan. Suv shu kosadan toshib sherlar ustiga tushadi va maxsus yer osti quvurlariga kirib, saroy atrofidagi dala bog‘larini sug‘oradi. Algambradagi keyingi hovli bu – mirt hovlisidir. Uning ichida shakli to‘g‘ri to‘rt burchakli sathi kattagina keng hovuz joylashganki, unga atrofdagi mo‘jaz favvorachalaridan suv oqib tushadi. Hovuzga uning atrofidagi saroy ravoqlari va palma daraxtlarining aksi tushib turadi [59; 78. b].

**Ispaniyaning “patio” bog‘lari.** Arablar Ispaniyani bosib olgan dastla bki davrlarda va so‘ngra o‘zlari qurgan uy-joylarning ichki hovlilarida Yevropa adabiyotlarida “patio” deb ataladigan ispan mavritan bog‘ini shakllantiradilar.

Hovli va yashash xonalari devorlari bilan aylantirilgan bu mo‘jaz bog‘da favvora, hovuzcha, shalola, ariq va bog‘ mebeli kabi elementlardan tashqari, ayrim hollarda atirgul, shipovnik va mirt o‘simliklari bo‘lgan. patio asosan tinch dam olish va oila bilan ochiq havoda xordiq chiqarish uchun mo‘ljallangan. Ana shunday mo‘jaz “patio” bog‘lari keyinchalik Granadadagi Algambra va Generalif qasr-saroy ansambllari ning ichki hovlilari va atrofida ham tashkil etila boshlanadi va “me’mo riy bog‘”larga aylanadi [59; 79-80. b].

**Italyancha bog‘lar.** Italiyaning Alban va Sabin tog‘lari etaklari va nishabliklarida joylashgan villa bog‘lari o‘ziga xos yechimlarga ega bo‘lgan. Tivoli yaqinidagi imperator Adrian villasining bog‘i qadimgi Yunoniston va

Sharqning eng mashhur imoratlarining miniatyuralashtirilgan maket lari bilan bezalgan [59; 86. b].

**Fransuzcha bog‘lar.** Afsuski, haqiqiy o‘rta asr Yevropa bog‘lari bizgacha to‘liq saqlanmagan. Biroq, ularning ayrimlari tarixiy rasmlar va yozuvlar orqali qayta tiklangan. Bu bog‘lar o‘rta asr saroy qal’a devorlari va imoratlari orasidagi cho‘zinchoq tor maydonlarni egallagan. Fransiyadagi Ambuaz qal’asi va uning tarkibidagi mo‘jaz bog‘ tarhi keltirilgan. Qal’a–saroylar qoshidagi bunday bog‘lar odatda sun’iy asosga ega bo‘lib, bosilgan tuproqqa qurilgan. Qal’a bog‘lari muntazam rejada ishlanib ularda foydali ekinlar zonasidan tashqari “ko‘ngil ochish” yoki “jannat bog‘lari” zonalari ham bo‘lgan [59; 79-80. b].

**Xitoy hovli bog‘lari.** Xitoy bog‘-parklarining olti xil turi mavjud: imperator bog‘lari, imperator qabrlari qoshidagi kichik bog‘lar, ibodat xona kichik bog‘lari, tabiiy peyzajli bog‘lar, hovli bog‘lari, allomalar (yoki adabiyot) kichik bog‘lari. Bog‘larni bunday turlarga bo‘lish o‘ta shartli bo‘lib, u kichik bog‘larning me’moriy - rejaviy kompozision jihatlariga ko‘proq lirik xususiyatlarini ochib bergan. Bog‘lar, albatta o‘zlarining ko‘lami, rejaviy tuzilishi, shahar muhiti yoki tabiiy muhitda joylashishiga qarab bir-biridan farqlangan. Xitoydagi eng mashhur va katta bog‘lar - bu imperator bog‘lari bo’lgan. Bu bog‘larning erkin rejaviy yechimlari, to‘g‘ri burchakli hovlilar zanjirini tashkil qilgan qatiy simmetrik kompozisiyali saroy bilan qorishib ketgan. Bunday zanjir qator bog’lar nafis ishlov berilgan tabiat landshaftidagi ko‘l va qirliklar quchog‘iga uyg‘unlashib ketgan. Bog‘ landshaftining eng jozibador sun’iy elementlari hisoblangan ko‘priklar, odatda yorqin qizil, yam-yashil, sariq va boshqa ranglarga bo‘yalgan shiyponlar bilan jonlantirilgan [59; 79-80. b].

**Yaponiyaning choy bog‘lari.** Yaponiyada zamonaviy turarjoy maskanlarini ko‘kalamzorlashtirishning o‘ziga xos shakli sifatida xususiy uylar tarkibida yaratilgan kichik bog‘larni ko‘rsatish mumkin. Yashash muhiti bilan uyg‘unlashib ketgan bu mo‘jaz bog‘da kishi o‘zini go‘yoki uyda emas, balki tashqarida, ochiq muhitda yurgandek his qiladi. Tabiiyki, bunday mo‘jaz bog‘lar maxsus loyihalangan xususiy turarjoylar hovlisida yaratilgan. Bunday kichik bog‘larda yaponlar milliy choy ichish marosimini o‘tkazishni yoqtirishadi va ular ayrim hollarda “Choy bog‘lari” deb ataladi [59; 82. b].

**Yevropaning qishki va oranjereya bog‘lari.** Germaniyaning Frankfurt shahrida 1997 yilda balandligi 53 qavatli “Kommersbank minorasi” deb nomlangan bino qurilgan. Uning ichkarisidagi atrium atrofida spiralsimon tarzda butun bino bo‘ylab to‘rt qavat balandligida bir nechta qishgi bog‘ loyihalangan bo‘lib, binoda tabiiy landshaft muhitini yaratishdan tashqari mikroiqlimni yaxshilash, zamonaviy qulay ekologik va estetik

imkoniyatlar yaratilgan. Tarhi uchburchak shaklidagi bu binoning har bir qavati uch qismdan tuzilgan bo‘lib, uning 2 tasida bankning ofis xonalari, uchinchisida to‘rt qavatli qishki bog‘larning bir qismi joylashgan. Bu bog‘lar binoning “yashil oazislari” hisoblanib, har bir qavatdan ularni kuzatish, bog‘dagi o‘simliklar va bino atrofidagi shahar manzarasi bilan zavqlanish, bino interyerining fito dizaynidan foydalanish mumkin. Uch burchakli ichki atrium va spiralsimon o‘suvchi to‘qqizta uzluksiz qishki bog‘larga ega bo‘lgan bu ulkan binoning tuzilishi kishiga go‘yoki tabiatning tirik organizm lariga mos bo‘lgan xujayra shaklini eslatib turadi. Bu esa bino mualliflarining katta yutug‘i hisoblanadi [59; 88-90. b].

Bog‘lardagi o‘simliklar botanikasi quyidagicha tanlangan:

- sharq tomondagi 3 ta kichik bog‘da Osiyo o‘simliklari (astilba, bambuk, Osiyo klyoni, magnoliya, azaliya, gibaskus);
- janubdagi 3 ta kichik bog‘da O‘rta yer dengizi o‘simliklari (timyan, olivka daraxti, oleandr, lavanda, anor daraxti, kiparis, sitrusli o‘simliklar);
- g‘arb tomonga qaragan yana 3 ta kichik bog‘da shimoliy amerika o‘simliklari (klen, mamont daraxti, sekvoyadendron, rododendron, astra).

To‘rt qavat balandlikdagi fazoviy bu kichik bog‘lar binoning ichki ofis xonalariga keraklicha quyosh nurini yetkazish, bank xodimlarining dam olishi va erkin muloqot qilishini ta’minlashdan tashqari binodagi xonalar va atriumni tejamli tabiiy shamollatish tizimining bir qismi tarzida ham xizmat qiladi [52; 74-79. b].

Arxitektura doktori D. Nozilov Samarqand viloyatidagi Sintab tog‘laridagi osmono‘par kichik bog‘lar haqida shunday yozadi: “Boqqa qarab miyamdan quyidagi fikrlar o‘tdi. Sharq xalqlari tushunchalarida qadim zamonlarda osmon-erkak, yer ayol timsoli sifatida gavdalangan. Ular osmon obihayot urug‘ini sochadi, yer esa nasl keltiradi, deb o‘ylashgan. Qoyadagi bog‘li bir parcha yer ham osmon obihayot urug‘ini sochavermaganidan so‘ng, xuddi uzoqdagi ikki sevishgan qalb bir-biriga intilgandik, bog‘ ham osmonga muhabbat izhor qilgani vaqtincha baland-balandlarga ko‘tarilib, abadiy qolib ketganmikan deb o‘ylab qoldim. Shunda inson qo‘li qanday mo‘jizalarga qodir, deb o‘zimga o‘zim tasalli berdim [33; 18-21. b].

1980-yil Mojurum qishlog‘idagi qal’a deb nomlangan joyni o‘rgatayotib qi-ziq dalilga duch keldik. Qal’a o‘rni aylana shaklida bo‘rtib chiqqan. Hozir ham qal’a poydevorlarining o‘rni mavjud. Cho‘qqi atrofi esa zinalarga bo‘linib, oldi de-vor bilan o‘rab chiqilgan. Zinalar soni cho‘qqi tuzilishi kengligi, balandligiga bog‘-liq holda bunyod qilingan. CHo‘qining soy tomoni da 14 ta, o‘ng tomonida 8 ta pog‘ona bo‘lgan. Yuqoriga ko‘tarilgan sayin pog‘ona lar torlashib, son jihatdan ka-mayib borgan. Bu pog‘onalar kichik bog‘lar vazifasini bajargan ekan [33; 18-21. b].

Pog‘onaning har qaysisi bitta bog‘cha-manzil hisoblangan. Mazkur bog‘ maydoni tepalikdan pastga qarab tushurilgan to‘rtta devor bilan olti qismga bo‘lingan. Bo‘linmalar ularning boshqa-boshqa kishilarga tob’ ekanligini anglatadi. Shuningdek, ularning navbatma-navbat sug‘orish sistemasini osonlash-tiradi hamda ularning har qaysisida turli xildagi ekinlarni ekish imkonini beradi. Boqqa suv tog‘ yon bag‘ri bo‘ylab keltir ilgan. Bog‘ning yuqorisidan bir ariq, to‘rtinchi zinasidan ikkinchi ariq, uchinchisidan-uchinchi ariq o‘tkazilgan. Bog‘ yuqoridan pastga qarab sug‘orilgan. Yuqoridagi pog‘onadagi hududi suvga to‘lgandan so‘ng pastki pog‘onalarga suv oqizilgan. Mojurum qishlog‘ining Dari Abe degan joyidagi qadimiy kichik bog‘ oltita zina maydonchadan iborat. Zina maydonchasi bu yerlarda (Nurota tog‘ qishloqlarida) “chel” deb nomlangan. Chellar uzunligi, kengligi, baland ligi tog‘ yon bag‘rining qulayligiga bog‘liq bo‘lgan. Mazkur bog‘dagi Chellar uzunligi 4 metrdan 16 metrgacha, eni 2 mertdan 4 metrgacha. Chellarning balandligi 80 smdan 1 M. 80 sm. gacha. Pillapoyalarning old qismi toshdan devor shaklida qalanib chiqilgan [33; 18-21. b].

Mojurumning Novi Voxid darasida ham bir nechta shunga o‘xshash bog‘ni uchratdik ulardan bittasi to‘rtta zinadan tashkil topib zinalar uzunligi 4 metrdan 8 metrgacha bir-biridan 1-1,5 metr balandlikda ajratilgan. Mojurum qishlog‘ida shunday bog‘lar behisob, hatto tog‘ yon bag‘ri uzunasiga zinalarga ajratilgan joylarni ko‘ramiz, ayrimlarining uzunligi 80-100 metrga yetadi. Bundan tashqari uy bilan birgalikda yaratilgan chellarni uchratish mumkin. Bunday paytda yuqorida uy-joy uning pastida, tog‘ yon bag‘rida ikki uch zinali bog‘ maydonini ko‘ramiz [33; 18-21. b].

Sintab qishlog‘idagi Chordara bog‘i tuzulishi va nomi bilan kishi diqqatini tortadi. Bog‘ soy bilan tog‘ yon bag‘ri oralig‘idagi yassiroq may donda barpo qilingan. Uning maydoni taxminan 2,5 ga. ni tashkil qiladi. Bog‘ atrofi devor bilan o‘ralgan. Bog‘ yuzasi soy tomon bir-biridan pasayib borgan pog‘onali maydonlardan iborat. Bog‘ning janubiy g‘arb qis mida balandligi 4 metr keladigan qoya ustida kvadrat tarhli tomonlari 12 metrli maydon yaratilgan. Unda 100 yillar muqaddam katta ayvon qurilgan. Uning to‘rt tomonida ham ochiq qismi bo‘lganligi uchun “Chordara” (to‘rt eshikli) bog‘, deyilgan. Bog‘ning g‘arb, sharq, janub tomonlaridan devor lar ichi bo‘ylab sug‘orish arig‘i o‘tkazilgan [33; 18. b].

Chavakda Boymurod va Do‘sti Ali bog‘larining atrofi 2 metr qalinlik dagi devor bilan o‘ralgan. Aniqlanishicha, qalin devor ho‘l meva quritishga ham mo‘ljallangan ekan. Bog‘ning sermanzara joyida toshdan terilgan supa mavjud. Bedakda Avaz Murod bog‘i ham shunday tarzga ega [33; 18. b].

Bo‘stonlik tuman Nanay, Burchmulla, Bog‘uston Mulalo, Polvonak, Taka Yong‘oq, Pskom va boshqa qishloqlarida Nurata tog‘ qishloqlaridek, zina shaklida chel juda kam qo‘llanilgan. Bu yerlarda tog‘ning tekis-notekis yonbag‘irlarida ham yer yumshoq va sernam bo‘lganligi sababli hamma narsa ko‘karavergan. Shuning uchun qiya joylarni daraxtzorga, tekisroq maydon larni ekinzorga aylantirishgan. Tog‘larda ekin maydonini Nurota tog‘ bog‘laridagidek pillapoya shakliga keltirish odati birinchi navbatda tosh qatlamli va o‘ta nishab tog‘ yonbag‘ir ida qo‘llanilgan. Bunga sabab tosh qat lamli nishob maydonni pillapoyaga o‘x shatib ko‘tarilgan tekis manzillarga taqsimlab ustiga sof tuproq to‘kib, ekin ekish mumkin. Shu-ningdek, o‘ta nishabli va hosildor tuproqli joyda yom g‘ir suvi ekin maydonidagi tuproq qatlamini yuvib ketishi mumkin. Buning oldini olishning birdan-bir yo‘li o‘sha maydonni pillapoyali manzillarga taqsimlashdir [33; 18-21. b].

Demak, yuqorida ko‘rib o‘tgan kichik bog‘larni tuzilishi jihatidan quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

- soyning ikki qirg‘og‘ida joylashgan tekis yoki sal qiyaroq yuzali bog‘lar;
- tog‘ ustida bo‘sh tuproqli tekis yoki qiyaroq yuzaga ega bo‘lgan bog‘lar;
- tog‘ yonbag‘ri zina shakliga keltirilgan pog‘onasimon bog‘lar;
- tog‘ yonbag‘rida imorat bilan birga bunyod qilingan pog‘onasimon bog‘lar;
- soy bo‘yida imorat yonida bunyod qilingan tekis kichik bog‘lar [33; 18-21. b]. (2-ilova)

### 1.3. Kichik bog‘larning o‘simliklar dunyosi

Kichik bog‘ni ko‘kalamlashtirish uchun o‘simliklar assortimentini tanlashda, eng avvalo, mahalliy tabiiy iqlim sharoitlarini, bog‘ hududi ning funksional vazifalarini, bog‘ni tashkillashtirishning me’moriy–badiiy talablarini hisobga olish zarur. Kichik bog‘da 2 va 3 darajali balandlikdagi daraxtlarni va eng manzarali daraxtsimon o‘simliklarni qo‘llash maqsadga muvofiq. Ayniqsa, bog‘ hududini shamoldan, shovqindan, chang–to‘zonlardan himoya qiluvchi daraxtlarni tanlashda xato qilmaslik zarur [33; 17. b].

Landshaft san’ati yordamida inson o‘zi atrofidagi fazoviy muhitni badiiy go‘zallik va me’moriy mutanosiblik qonuniyatlari asosida o‘zgartirib, kompleks masalalar: funksional, ekologik, badiiy–estetik va texnik vazifalarni yechishga qodirdir. Landshaft dizayni obyektlarini yaratish jarayonida landshaftning tabiiy elementlari (o‘simliklar, relyef, suv, havo)

sun’iy shakllar bilan sintezlashib, landshaftning yangi ko‘ri nishi vujudga keladi [33; 17. b].

Landshaft dizayni obyektlarini shakllantirishda landshaftning muhim elementlari va asosiy vositalari o‘simliklar hisoblanadi. Ularga daraxtlar, butalar va o‘tli o‘simliklar kiradi. Turli xil tabiiy toshlar va sun’iy materiallardan farqli o‘laroq, o‘simliklar–bu yer yuzidagi hayotning bir shaklini ifodalovchi organizmlar bo‘lib, ular o‘ziga xos xususiyatlar va

xossalarga ega. Istalgan landshaft dizaynining sifati, eng avvalo, to‘g‘ri tanlangan o‘simliklar assortimentiga bog‘liqki, ularni to‘g‘ri tanlash obyektning funksional vazifasi va loyihalanayotgan hududning tabiiy, ekologik va biologik sharoitlariga mos kelishi shart [33; 17. b].

Barcha o‘simliklar ikki guruhga: daraxtsimon va o‘tsimonlarga bo‘li nadi. O‘tsimonlarga o‘tlar, bir yillik, ikki yillik va ko‘p yillik gullovchi o‘simliklar hamda o‘tsimon lianlar kiradi. Daraxtsimonlarga esa yer usti va yer osti daraxtsimon qismlarga ega bo‘lgan ko‘p yillik o‘simliklar kiradi. Ular shox–shabbalarining o‘sish xususiyatlari bo‘yicha daraxtlar va butalarga hamda daraxtsimon lianlar (chirmashib o‘suvchilar)ga bo‘linadi [33; 17. b].

Daraxtsimon o‘simliklar o‘sishiga qarab daraxtlar, butalar, yarim butalar va lianlarga bo‘linadi. Daraxtlar yaxshi shakllangan mustahkam tanaga ega bo‘lib, katta o‘lchamlarga erishadi va, odatda, uzoq umr ko‘radi. Butalar ildizlaridan deyarli bir–biriga teng bo‘lgan bir nechta tanachalar chiqarib, daraxtlarga o‘xshab yaxlit tanaga ega emas va uzoq umr ko‘rmaydi [33; 18. b].

Yarim butalar esa daraxt va o‘tli o‘simliklar o‘rtasidagi o‘rtalik holatni egallab turuvchi daraxtsimon o‘simliklardir. Ular shox–shabbasining pastki qismi daraxtsimon bo‘ladi, yuqori qismi har yili qayta yangilanadi.

Lianlar (chirmashuvchilar) ning uzun mayda shoxchalari bo‘lib, ular yuqoriga ko‘tarilib o‘sishi va tayanch nuqtalarga ega bo‘lish uchun maxsus imkoniyatlarga ega bo‘ladi [33; 18. b].

Daraxtsimon o‘simliklar doim yashil va bargi tushuvchilarga bo‘linadi.

Doim yashil o‘simliklar asta–sekin almashtirib turuvchi ko‘p yillik barglarga (eski xvoylarga) ega bo‘ladi. Bargi tushuvchi o‘simliklar har yili barcha barglarni yangilaydi. Ammo ta’kidlash lozimki, daraxtsimon o‘simliklarni 5 guruhga bo‘lish maqsadga muvofiqdir:

- doim yashil ignabargli o‘simliklar;
- bargi tushuvchi ignabargli o‘simliklar;
- bargi doim yashil o‘simliklar;
- bargli bargi tushuvchi o‘simliklar;
- hosilli–mevali bargi tushuvchi o‘simliklar [33; 18. b].

**Gulzorlar, ularning tarkibi, turlari va shakllari.** Landshaft arxitekturasi obyektlarining aksari qismi gulzorlarsiz tasavvur etib bo’lmaydi. Gulzorlar bir necha turlarga bo‘linib, ularga klumbalar, rabatkalar, guruhlar, maysazorlar foniga alohida ekilgan guruh va massiv tarzida ekilgan gulzorlar kiradi [53; 203. b].

Alohida ahamiyatga ega bo‘lgan jamoat binolari hududlarini: me’moriy yodgorliklar, memoriallar, muzeylar, teatrlar, madaniyat saroylari, konsert zallari-ning oldi va atrofini ko‘kalamzorlashtirishda qo‘llaniladigan gulli yashil parterlar va boshqa landshaft kompozisiyalarining shakllantirishida jimjimador yorqin gulzorlar va maysazorlardan foydalanish katta ahamiyatga egadir [53; 203. b].

**Gulzor** deganda muhim me’moriy obyektlar atrofi va hovlilarini, maydonlar, bog‘-parklarni bir yillik va ko‘p yillik gullar bilan bezovchi har xil kattalikdagi shakllardan tashkil topgan kompozisiyalarga ega bo‘lgan landshaft elementlari tushuniladi. Gulzorlar tarkibiga, gullardan tashqari maysalar, yo‘laklar, mo‘jaz me’moriy shakllar kiradi. Xiyobonlar, trotuarlar, maydonchalar, memoriallar atrofi, tinch dam olish joylari, sayr qilish yo‘laklari, yo‘laklar kesishgan joylar va hovlilarni manzaraviy bezashda qo‘llaniladigan gulzorlar shakli kvadrat, to‘g‘ri to‘rtburchak, ko‘p burchak, oval, aylana, segment, tasma va boshqa shakllarda bo‘ladi [53; 204. b].

Gulzorlar yashil maysazorlar fonida ishlanganda xar xil o‘lcham va shakllarga ega bo‘lgan klumbalar, rabatkalar, miksborderlar va bordyurlardan iborat bo‘ladi va tarkibi turli shakllardagi gul o‘simliklari, yo‘laklar va maysazor-lardan tuziladi [53; 205. b].

Gulzorlar tarkibiy qismlarining o‘zaro nisbati, xususan gullar egallagan maydon, yo‘laklar va maysazorlar mikdori 3:5:8 nisbatda bo‘lishligi amaliyotda keng tarqalgan. Keyingi yillarda katta me’moriy muhitlar va shahar maydonlariga manzara beruvchi yirik gulzorlar shakllantirilib, ularda, odatda maysazorlarga ko‘p, gullarga esa kam joy ajratilgan [53; 205. b].

O‘tgan asrning 60-70 yillarida yirik jamoat binolari qoshidagi tekis parter maydonlarida shakllantirilgan gulzorlar ichida gilamnusxa klumbalar, shakli va tuzilishi murakkab geometrik tarzda tuzilgan gulzorlar (masalan, partiya dohiylarining portretlari va murakkab arabeskalar kabi gulzorlar) odat tusiga kirgan [53; 206. b].

Hozirgi vaqtga kelib gulzorlar sodda va yaxlit geometrik tuzilishga ega bo‘lib, maysalar fonida yorqin, kontrast rangli manzarali ko‘rinishni olmoqda. Toshkent shahridagi yirik jamoat binolari qoshida va atroflari, Amir Temur xiyoboni, Mustaqillik maydoni, O‘zbekiston milliy bog‘i va boshqa yangi bog‘-parklardagi gulzorlarini ko’rish mumkin [53; 207. b].

Gulzorlarni shakllantirishda ularning masshtabi va shakliga e’tibor berish, kichik islimiy elementlardan qochish, ranglar garmoniyasiga erishish va ularni yashil atrof bilan uyg‘unlashtirishda katta ahamiyatga egadir.

Gulzorlarda tantanavorlikka erishish uchun fon tarzida sof bir turdagi maysa o‘simliklarini tanlash va ekish, ularni bir rangdagi guldor bordyurlar (hoshiyalar) bilan bezash tavsiya etiladi. Monumentlar, memorial yodgorliklar atrofi va hovlisini gulzorlashtirishda, gullardan axirantes, begoniya grasilis, seloziya, pelargoniya (geran)ni qo‘llash, xoshiyalovchi bordyurni sinerariya primorskiy yoki pileyadan ishlash, maysazor uchun esa yashil alternatera yoki ko‘p yillik javdar qo‘llansa gulzorlarning tantanavor chiqishi ta’minlanadi. Bajarilishi qiyin bo’lgan va tuzilishi murakkab gul naqshlaridan ko‘ra ko‘rinishi manzarador oddiy gulzor shaklini amaliyotda qo‘llash oson va ko‘rklidir [53; 208. b].

**Gulzorlarni yaratish qoidalari** mavjud bo‘lib, ular asosan quyidagi gulardan iborat:

1. Gulzorlarning eng yorqin, diqqatni o‘ziga tortuvchi qismi bu markaziy klumba hisoblanib, u gulzorning o‘rtasida joylashtirish kerak bo’ladi. Klumbalar yodgorlikni, monumentni, basseynni chegaralovchi yoki maysazorlar fonida ish-langan alohida landshaft kompozisiyasi tarzida bo‘ladi.

2. Gulzorlarda qo‘llanilgan gul shakllari bir-biriga aralashib ketmasligi kerak, zero ular yaxlitlikni buzishga sabab bo‘ladi.

Yaxshisi kattaroq rasm va oddiyroq shakllarga ega bo‘lgan gulzorlarni shakllantirish zarur bo’ladi [53;209.b].

3. Gulzorlarda guldor shakllarning soni ko‘p bo‘lmasligi, atroflari ko‘proq maysazor va hoshiyalar bilan bezatilishi va holilashtirilishi kerak.

Gulzorlarni yaratishda ularning barcha turlaridan: klumbalar, rabatkalar, guruhlar, bordyurlar, massivlar, soliterlardan foydalanish taklif etiladi. Quyida gulzorlarning ana shu turlariga kengroq to‘xtalib o‘tamiz [53; 209. b].

***Klumba va rabatkalar. Klumba***–gulzorlarning bir qismi yoki shu nomlar bilan ataluvchi alohida gulzorlarning kompozisiyasidir. U turli geometrik tugal shakllarga ega bo‘lgan, o‘rta qismi va chekkalari atrofidagi maysazor yoki yo‘laklardan baland, markazidan atroflariga qisman qiyalik hosil qiluvchi va sof manzarali (turli rangdor gullar, barglari manzarali) o‘simliklardan shakllantirilgan gulzorlardir. O‘zbekistonning issiq yozgi sharoitida klumbalar doimiy sug‘orishni talab qiladi. Klumbalar yuzasini, odatda, tekis yoki hatto biroz cho‘ktirilgan sathda ishlashadi. Bunday tekis yuzali klumbalarning o‘rta qismi hunuk ko‘rinmasligi uchun ularning markaziy qismiga bo‘yi balandroq gullar va o‘simliklar, haykallar yoki sopol

vazalar, chetki qismlariga esa past bo‘yli manzarali o‘simliklar ekish tavfsiya etiladi. Klumba chegarasi doim yashil bereskletdan ishlangan bordyur bilan hoshiyalanadi. Hozirgi vaqtga kelib maysazorlar foniga ekilgan chetlari dandona shaklidagi ritmli shlakobeton hoshiyalar bilan chegaralangan romb yoki doira shaklidagi klumbalar keng tarqaldi. Alohida tantanavor joylarda (me’morial kompozisiyalar, monumentlar va h.k.) klumbalarning chetlarini dekorativ tabiiy toshlardan, ayniqsa ochiq qizg‘ish rangdagi toshlardan ishlangan bordyurlar bilan hoshiyalash an’ana bo‘lib qolgan [53; 209-210. b].

Klumbalarda qo‘llanilgan o‘simliklarning qaysi guruhga mansub ekanligiga qarab quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Gilamsimon ko‘rinishli, ya’ni sathi tekis pastqam gullovchi yoki yapro g‘i manzarali turli rangdagi o‘simliklar ekilgan klumba. Ularda o‘sim liklar balandligini bir tekisda tutish va yaqqol figurali gulzor shaklini saqlash maqsadida o‘simliklar qirtishlab turiladi [53; 210-211.b].

2. Gulli klumbalarning tarkibi asosan yirik gullovchi o‘simliklardan tuzilgan, qisman yaprog‘i manzarali, bir yillik va ko‘p yillik ochiq muhitda qishlovchi o‘simliklardan tuzilgan. Bir yillik o‘simliklar ikki xil: tuxumli va tuxumsiz bo‘ladi [53; 210-211. b].

O‘zbekistonda o‘simliklarning gullashi fevral oyining oxiri–martning boshidan (viola, margatirka) to noyabrning o‘rtalarigacha (mayda gulli xrizan-temalar) davom etadi. Ana shu davr ichida eng muhim obyekt lardagi klumbalarga ekilgan o‘simliklar uch martagacha (viola, gullovchilar yoki yaprog‘i manzarali; mayda gulli xrizantemalar ketma-ketligida) o‘zgartiriladi [53; 210-211. b].

**Rabatka**–lenta ko‘rinishdagi chiziqli gulzor bo‘lib, asosan gullovchi yoki yaprog‘i manzarali o‘simliklardan ekiladi. Boshqacha qilib aytganda rabatkalar–bu uzun chiziqli tasma gulzorlar bo‘lib, yo‘laklar va xiyobonlar, maydonlar atrofi bo‘ylab ekiladi. Ularning eni va uzunligi turlicha bo‘lib, rabatkalarning qayerga va nima maqsadda ekilishiga bog‘liq. Rabatka sathi, tekis bo‘ladi. Rabatka eni 3 metrgacha bo‘lgan lenta ko‘rinishdagi, gulzor ichiga 5-8 qatorli ko‘p yillik yoki 8-13 qatorli bir yillik gulli yoki yaprog‘i manzarali o‘simliklarni ekish mumkin [53; 210-211. b].

Ko‘p yillik o‘simliklardan ishlangan rabatkalar gulzorlar chetlariga, ularga hoshiya ramka tarzida ekiladi. Rabatkalar joylashgan joyiga va ishlanishiga qarab bir sathli va ikki sathli bo‘lishi mumkin. Bir sathli rabatkalar yo‘laklar va xiyobonlar chetlarida ranjara yoki imorat yoniga, ikki sathlisi esa xiyobonlarning o‘rtasi da joylashgan bo‘ladi [53; 203-214. b].

Uzun rabatkalar zerikarli bo‘lmasligi uchun bir necha bo‘laklar, qismlarga bo‘linadi. Ularning orasiga tarhi kvadrat yoki aylana shaklidagi kichik klumbachalar, yo‘laklar, katta o‘lchamli past bo‘yli o‘simliklar

(palma, drasena, banan, agavalar) ekiladi. Ular davomli, uzun rabatkalarni o‘ziga xos ritmlar, aksentlar bilan bezaydi [53; 203-214. b].

**Guruh va soliterlar.** Guruh–bu gulzorlarning bir qismi, gulli o‘simliklarning o‘ziga xos shakli, odatda, bir xil yoki bir navdagi o‘simlik lardan ekilgan guruh kompozisiyasini tashkil qiladi. Guruhlar uchun aksari hollarda baland o‘suvchi gullovchi o‘simliklar tanlanib, ular odatda bir-biriga yaqin qilib ekiladi.Guruh kompozisiyasi maysazorlar fonida yoki gulzor elementi tarzida ekilgan bo‘lishi mumkin. Guruhlar tarkibidagi o‘simliklar xiliga qarab toza yoki oddiy, aralash va murakkab tuzilishda bo‘lishi mumkin. Bir turdagi gullardan tuzilgan guruhlar oddiy (toza), har xil gullardan tuzilsa aralash deb ataladi [53; 203-214. b].

Guruhlar joylashishiga qarab ikki xil:

1. Devor oldi guruhlari–devorlar, to‘siqlar, daraxtlarning tanalari va yomon ko‘rinadigan predmetlarga yashil manzara berish uchun qo‘llaniladi.

Buning uchun baland o‘suvchi o‘simliklar (kleshevina, qirqilgan bargli rudbekiya, baland o‘suvchi kannlar) qo‘llanadi.

2. Erkin o‘suvchi guruhlar–maysazor ustida erkin tabiiy landshaft holatida yoki muntazam tartibda ekilib, ular uchun balandligi turlicha bo‘lgan o‘simliklar tanlanadi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, guruhlar, odatda, bir tur yoki bir navli o‘simliklardan zarur hollarda esa bir nechta (2-3) tur va navlardan tuzilib, balandligi, rangi-ro‘yi, shakli, shox-shabbalarining tig‘izligi va boshqa manzaraviy xususiyatlariga qarab, o‘zaro uyg‘un, kontrast yoki nyuans bog‘lanishlarda yaratiladi [53; 203-215. b].

**Soliter**–bir yillik yoki ko‘p yillik o‘simliklardan maysazor, gulzor yoki maydon fondida alohida ekilgan yakkaxon kompozisiyadir. U parklar yoki skverlarda, guruhlar, klumba, rabatka, mo‘jaz me’moriy shakllardan alohi da masofada, yakka tartibda ekiladi.

Soliter kompozisiyasiga qo‘yiladigan talablar:

- soliter uchun tanlangan o‘simliklarning har tomonlama go‘zal bo‘lish ligi, agar buning uchun manzarali yaproqli o‘simliklar tanlansa ularning tig‘iz barg-liligi, go‘zal qomati, shaklining noyobligi, barglarining rangdorligi, agar gullovchi o‘simliklar tanlansa ular to‘la-to‘kis va davomli gullab turish kabi xislatlarga ega bo‘lishi zarur;
- soliterlar uchun tanlangan joy har tomondan yaxshi vizual ko‘rina digan bo‘lishi kerak.

Soliter kompozisiyasi guruhlar kabi nafaqat gullovchi yoki manzarali bargli o‘tli o‘simliklardan, balki go‘zal va xushqomat daraxt va butalardan ham shakllan-tirilishi mumkin [53; 203-215. b].

**Bordyurlar va parterlar. Bordyur** – gulzorlarning bir qismi, gullovchi o‘simliklar kompozisiyasining shakli. Klumbalarning chetlariga,

yo‘laklar, rabat-kalar, maysazorlar, xiyobonlar bo‘ylab bir yillik yoki ko‘p yillik gullovchi yoki yaproqsimon manzarali o‘tli o‘simliklardan ekiladigan tasma ko‘rinishidagi kompozitsiya.

Ayrim hollarda, to‘g‘rirog‘i gulzorlar chetlaridagi bordyurlarni hoshiya yoki ramka deb ham atashadi. Ular gulzorlar ko‘rinishiga tugal bezak va manzara beradi. Bordyurlarning eni ular uchun tanlanadigan o‘simliklarning turlari va bordyurning qayerga ishlanishiga qarab 10-40 sm, o‘simliklarning qatorlar soni esa 1-5 ta gacha bo‘ladi. Qatorlarga gullovchi, gilamnusxa, bir yillik yoki ko‘p yillik, past bo‘yli (25-35sm gacha), bargi manzarali o‘tli o‘simliklar ekiladi [53; 203-217. b].

**Parter**–binolar oldiga, bog‘–parklarga kirish yoki ular hududida qo‘llaniladigan tantanali tekis gulzor yoki maysazor kompozisiyadir. Parterlar gulzor kompozisiyasi bilan tashkillashtirilgan va yaxlit birlash tirilgan bir necha elementlardan tuziladi. Parter elementlari–maysazor, maxsus tanlangan manzarali o‘tli va gullovchi o‘simliklar, yo‘laklar, mo‘jaz me’moriy shakllar [53; 209-217. b].

Parterlarda o‘zining yorqinligi va manzaraviyligini uzoq saqlaydigan klumbali va rabatkali maysazorlar asosiy o‘rinni egallaydi.

Keyingi yillarda muhim jamoat binolari yonidagi ko‘chalar, chorrahalardagi maydonlar, asfalt va beton yopmalar, to‘shamalarni yashil va yorqin ranglar bilan bezash maqsadida muhitga manzaraviy samara beruvchi ko‘chma gul vazalari va guldonlar qo‘llanmoqda. Bunday guldon va vazalar quyma beton yoki plastmassa-lardan ishlanmoqda. Ularga, odatda, tayyor o‘simliklar ekiladi. Buning uchun O‘zbekiston sharoitida pelargoniya, petuniya, xlorofitum, setkreaziya, begoniya, grasilis, shprenger asparagusi yoki pilelar birgalikda ekiladi. Gulzorlarning u yoki bu shakli, kompozis iyasini yaratishda o‘simliklarni to‘g‘ri tanlash muhim ahamiyatga egadir. Bu masalada, o‘simliklarning biologik–manzaraviy xususi-yatlari va agrotexni kasini bilishdan tashqari, arxitektorlar yuksak badiiy did va kompozisiyaviy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lishlari zarur [53; 203-218. b].

Parter va gulzorlar uchun o‘simliklarni tanlashda ularning balandligiga e’tibor qaratish zarur. Agar gulzor markazida yodgorlik yoki boshqa biror me’moriy tik qurilma turmagan bo‘lsa, gulzor markaziga bo‘yi baland, ko‘rinishi samarali o‘simliklar, masalan, agava, palma drasena, banan va boshqalar, gulzorlarning chetroq qismlariga pastroq bo‘yli va uning chekkasiga esa eng past o‘simliklar tanlanadi. Bunday joylashishda o‘simliklar bir-birini to‘smaydi va gulzor (klumba) juda samarali ko‘r inish oladi [53; 203-219. b].

Gullash davri va vaqtiga ko‘ra o‘simliklarni tanlashda eng erta gullovchi va davriy uzoq gullovchi o‘simliklarni tanlash ma’qul.

Mustaqillik yillarida Toshkentda va viloyat poytaxtlarida oranjereyalar va issiqxonalarda oldindan maxsus tuvaklar yoki torfli xaltachalarga ekilgan (pelargoniya, begoniya, salviya, piliantovoy atirgullar, axirantes, setkreaziya, xlorofitum, beresklet, shprenger asparagisi kabi) gullar va o‘simliklardan foydalanish ularni ekish ishlarining tugashi bilanoq yaxshi manzaraviy samara bermoqda. Guli yoki bargining rangiga qarab o‘simliklarni tanlashda eng chiroyli va jimjimador gul manzaralarini beruvchi o‘simliklarni tanlash maqsadga muvofiqdir [53; 203-218. b].

Parter uchun gullarni ranglari bo‘yicha tanlashda quyidagilarga rioya qilish tavsiya etiladi:

A) ranglar kontrasti

B) ranglar nyuansi qonuniga

V) neytral tonlar ahamiyatiga

Ranglarning kontrasti qonuniga ko‘ra eng chiroyli gullarning birikuviga erishishiga harakat qilinadi. Qizil gulni unga kontrast bo‘lgan yashil gullar bilan, zarg‘aldoq gulni ko‘k gul bilan, sariqni binafsha gul bilan yonma-yon ekish mumkin. Qizil, zarg‘aldoq va sariq gullar eng faol, issiq ranglar xosil qiladi. Ularning ichida zarg‘aldoq rang eng issiq hisoblanadi. U o‘ta chiroyli, diqqatni jalb qiluvchi, issiq muhit hosil qiluvchi rangdir. Yashil, ko‘k, binafsha ranglar esa – passiv, sovuq ranglar hisoblanadi. Ular ichida ko‘k rang sovug‘ hisoblanadi. Bu kabi tonlar gulzorlarda qat’iylikni baxshida etadi [53; 203-219. b].

Kichik bog’larda konrastlilikni biroz yumshatish uchun kontrast beruvchi gul guruhlari orasiga neytral tonli gullardan ekish tklif etiladi. Hamma qoramtir (to‘q qizil, to‘q-ko‘k, to‘q-zarg‘aldoq) rangdagi gullarni tomoshabinga yaqin joylash kerak.

Kichik bog’larda ranglar nyuansi qonuni barcha rangdagi tonlarning sekin asta o‘zgarib borishini bildiradi, ya’ni ranglar bir-biriga kontrast emas, balki bir rangning turli tonlari, yo to‘qlashib yoki oqarishib boradi. Ushbu qonunga asoslanib, klumbalarni gullar bilan bezashda istalgan rangdagi gulning turli tonlaridan foydalanish mumkin. Klumba gulzori agar unda ekilgan gullarning rangi gulzor chetidan o‘rtasiga qarab to‘qlashib borsa buning teskarisiga ko‘ra chiroyli chiqadi. Neytral tonlar ahamiyatini ham e’tiborga olmog‘i kerak. Neytral ranglar –bu oq va qora ranglardan iboratdir. Oq rang va uning turli tonlari uzoqdan ham yaxshi ko‘rinadi, ularni ko‘pincha konrast ranglarni qisman yumshatish uchun ham qo‘llashadi. Oq ranglar dissonans ranglarini yumshatadi, disgarmoniyani yo‘qotadi. Masalan, agar qizil va binafsha ranglarlar o‘zaro to‘qnashsa ular og‘ir, bejirim ko‘rinadi, ular orasiga oq rang qo‘shilganda bu manzara ancha yumshaydi, neytrallashadi [53; 203-219. b].

Maysazorlar–bu tabiiy yoki sun’iy tarzda yaratilgan, ajiriq maysa o‘tlar bilan yopilgan yashil maydonlardir. Maysazorlar funksiyasi va ahamiyatiga qarab ikki xil: manzaraviy va maxsus maysazorlar guruhiga bo‘lish mumkin.

Manzarali maysazorlar guruhiga parter maysazorlar, o‘tloq maysazor va chiroyli gullovchi ko‘p yillik maysazorlar kiradi. Maxsus maysazorlar guruhiga sport maydonlarining maysazori, magistral ko‘chalardagi transport va piyoda-larning harakatini ajratuvchi turotuarlar bo‘ylab tashkillashtirilgan maysazorlar, qiyaliklar va qirlarni mustahkamlovchi maysalar, qabriston maysazorlari kiritish mumkin. Parter maysazorlar, odatda, tekis bo‘lib, park va bog‘lar oldilari va boshqa tantanali joylarni ko‘kalamzorlashtirishda hamda gulzorlar fondini tashkil etuvchi maysalar xisoblanadi. U o‘ta sifatli, o‘tlari barxatsimon, rangi bir xilda, yuzi o‘ta tekis, bo‘yi past, barglari tig‘is bo‘lishiligi kerak. O‘tloq , ya’ni lugovoy maysalar keng maydonlarga mo’ljallangan. Ularni, odatda, parklar, o‘rmonzor parklar (lesoparklar), lugoparklarning keng ochiq yashil maydonlarini va peyzajli qismlarini ko‘kalamzorlashtirishda qo‘llash mumkin [53; 203-219. b].

Maysazorlar ikki xil uslubda: maysa tuxumini ekish va chimlashtirish orqali yaratiladi. Tekis joylarni maysalashtirishda maysa tuxumini ekish uslubi, qiya va qirlik joylarni maysalashtiirishda esa chimlashtirish usuli qo‘llanadi. Maysa tuxumi yaxshi tayyorlangan tekis tuproqqa sentabrda, oktabr boshlarida yoki erta bahorda – fevralning oxiri martning boshlarida ekiladi. Ekilishi meyorlari 1 $m^2$ maydonga 10-12 gramm tashkil qiladi. Maysa ekilgan joy boshlang‘ich ikki-uch hafta davomida muntazam sug‘orilib turiilishi zarur. Parter tipidagi maysalar har 2 haftada, lugovoy maysalar esa har oyda bir marta qirtishlab turilishi kerak. Maysa o‘simliklarga O‘zbekistonda asosan kanada gren, raygras pastbishniy, ovsyanisa lugovaya, palchatnik, myatnik lugovoylarni qo‘llash mumkin. Hozirgi kunda maysalar tuxumi magazinlarda muxsus upakovkalarda sotiladi. Upakovkalar ustiga ularni ekish qoidalari va meyorlari yozib qo‘yilgan [53; 203-219. b].

Maysalar o‘rniga ko‘p hollarda yeryopar o‘simliklardan ham foydalanish mumkin. O‘zbekistonda o‘sadigan yeryopar o‘simliklarga beresklet poch-vopokrovniy, paporotniki, barvinok, badan, dyusheniya indiyskaya,ofiyapagan yaponskiy, zemlyanika lesnaya, viola gibridnaya, barxatsi otklonenniy kabilarni kiritish mumkin [53; 208-219. b].

Farg‘ona vodiysi Tyan-Shan va Hisor-Oloy tog‘ tizimi orasida joylashgan. Vodiyda paxta yetishtirish, katta bog‘lar va uzumzorlar barpo etish uchun qulay iqlim-tuproq sharoitlari mavjud. Vodiyda 1,5 mln tonna paxta xomashyosi yetshtiriladi.Sug‘oriladigan maydonlar asosan daryo yoqalaridan iboratddir. Vodiyning markazida sahro tipidagi tuproqlar, qum

barxanlari va botqoqsimon ko‘llar mavjud, vodiy chekkalari balandligi 1000-1200 m tog‘larga tutashib ketgan. Vodiy markazida joylashgan Yozvon cho‘li bo‘lib, u hozirgi paytda deyarli to‘liq o‘zlashtirilgan [53; 211-215. b].

O‘zbekistonda sahro zonasida va tog‘lar poyasida o‘ziga xos landshaftlarni yuzaga keltirgan va ular shu hududga xos o‘simliklar dunyosi bilan bog‘liq. Tekisliklar qum-sahro o‘simliklari bilan qoplangan bo‘lsa, quyi tog‘oldi hududlarida yarim sahro o‘simliklar, tog‘oldi hududlarda turli o‘tsimon o‘simliklar, tog‘larda daraxt-butalar ayniqsa, archazorlar bilan o‘ziga xos tabiiy landshaftlarni yuzaga keltirgan. Tog‘ o‘rmonlarida asosiy o‘rmon hosil qiluvchi turlar – archa turlari zarafshon, yarimsharsimon va turkiston archalari tarqalgan (Qurama, Boysun, Turkiston tog‘ tizmalarida qalin archa o‘rmonlari mavjud). (3-ilova).

## 1.4. Bog‘larning me’moriy–rejaviy va landshaft semantikasi (badiiy-estetik obrazi)

Kichik bog‘lar rejaviy tuzilishining shakllanishi asosan ulardan funksional foydalanishning o‘ziga xosligi, hududining o‘lchamlari va shakliy tuzilishiga bog‘liq. Kichik bog‘ maydonining cheklanganligi uning fazoviy muhitini vizual kengaytiruvchi rejaviy yechimni qabul qilishni talab qiladi. Kichik bog‘ni loyihalash uchun joy maydonining eng ma’qul shakli – bu kvadrat yoki tomonlari nisbati 1:2 bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchakdir. Rejaviy yechimi bo‘yicha kichik bog‘lar muntazam, peyzajli yoki aralash bo‘lishi mumkin [53 ;22. b].

**Muntazam rejaviy uslub**dagi kichik bog‘lar to‘g‘ri chiziqli xiyobonlarning yetakchiligi, suv havzalari, maydonlari, gulzorlarining geometrik shakldaligi, o‘simliklarning simmetrik ekilganligi, ko‘p hol larda kuzalib sun’iy shakllar berilgan yashil to‘siqlarning, daraxt va butalarning alohida turlari qo‘llanilganligi bilan ajralib turadi. Bunday kichik bog‘lar rejasi simmetrik va assimetrik yechimlarda ishlanishi mumkin [53; 22. b].

**Peyzajli (erkin) rejaviy uslub**dagi kichik bog‘lar daraxtlar va butalarning erkin guruhlari, ilon izi yo‘laklar, gulzorlar guruhining silliq shaklli suv havzalari va maydonlari, gulzorlar guruhining peyzajli joylashganligi bilan xususiyatlidir [53; 22. b].

**Aralash rejaviy uslub**dagi kichik bog‘ oldingi ikki uslubning aralashmasidan iboratdir. Kichik bog‘ning rejaviy uslubini tanlash hududining landshaft holatiga va undan foydalanishning funksional o‘ziga xosligiga, ya’ni vazifaviy imkoniyatlarning cheklanganligiga bog‘liq. Bog‘ning rejaviy uslubini tanlashga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy shartlarga joyning tabiiy xususiyatlari va hududning funksional vazifalari kiradi. Bog‘

rejasini aniqlovchi asosiy tabiiy omil–bu hudud relyefidir. Aynan u, bir tomondan, joyning mikroiqlimiy sharoitini, suvning tarqalishini, demakki, o‘simliklar holatini ham aniqlasa, ikkinchi tomondan, u yangi yaratilayotgan landshaftning badiiy xususiyatini shakllantirishga uning hajmiy–fazoviy tuzilishiga ham ta’sir qiladi. Demak, relyefni istalgan kichik bog‘ning me’moriy asosidir desak to‘g‘ri bo‘ladi. Joyning relyefiga ko‘ra kichik bog‘ tekis hududda, qirliq hududda yoki terrasasimon, ya’ni pog‘onasimon hududda joylashish mumkin [33; 23. b].

Tekis relyefda bog‘ rejaviy yechimini muntazam usulda shakllantirish maqsadga muvofiqdir, chunki unda to‘g‘ri yo‘lak va xiyobonlar, simmetrik teng qismlarga bo‘lingan parterlar, gulzorlar yaratish osondir. Qirlik relyef bog‘ rejaviy yechimini peyzaj, ya’ni erkin tabiat ko‘rinishida shakllantirishga ma’quldir, pog‘onasimon relyef esa ham muntazam, ham peyzaj uslubidagi yechimlarga mos keladi [33; 23-24. b].

Kichik bog‘lar landshaft dizaynining asosiy obyekti hisoblanadi.

**Kichik bog‘** deganda landshaft dizayni vositalaridan foydalanib shakllantirilgan, jamoat, turar joy yoki sanoat binolari oldida joylashib hududi jihatdan cheklangan bog‘lar tushuniladi. Kichik bog‘lar hududi 0,2 dan to 2-3 ga, ayrim hollarda esa 5 gektargacha bo‘lishi mumkin.

Ularning hududi 0,2 dan 20 sotokgacha bo‘lsa ular mo‘jaz bog‘lar deb ataladi. Kichik bog‘larga qishgi bog‘lar va tom usti bog‘lari ham kiradi.

Kichik bog‘larga odatda ofislar, mehmonxona komplekslari, supermar ketlar, sanatoriyalar, bolalar bog‘chalari, maktablar, lisey va kollejlar va boshqa muassasalarning me’moriy landshaft tashkillashtirilgan dam olish ga muljallangan hududlarini kiritishadi [33; 23-24. b].

Kichik bog‘lar, shuningdek turar joylar hududlarida ham joylashishi mumkin. Bunday bog‘, odatda, turar joy uylari guruhining bog‘i, mikrorayon bog‘i, kvartallar ichidagi hovli bog‘i, kottejlarning hovli bog‘i va boshqalardir. Kichik bog‘lar egallagan hududi bo‘yicha ixcham joylashgan muayyan landshaft mazmuniga ega bo‘lgan va turli funksional maqsadlarga mo‘ljallangan parklar tarkibiga ham kirishi mumkin. Ular, shuningdek, turli sanoat imoratlariga tegishli hududlarda ham joylashishi mumkin. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, qishgi bog‘lar, tom usti bog‘lari va hovli bog‘lari ham kichik bog‘larning kichik ko‘rinishlaridir [33; 23-24. b].

Kichik bog‘ning rejaviy tuzilishini shakllantirish uning hududini fuksional zonalarga bo‘lish va bu zonalarga mos tarzda hududning rejaviy elementlarini aniqlash orqali amalga oshiriladi. Kichik bog‘ni shakllantirishning asosiy vazifalariga bog‘ hududini atrofdagi qurilmalardan holilashtirish, bog‘ning asosiy imoratiga kelish va ketish yo‘llarini tashkillashtirish, dam olish maydonlarini joylashtirish, piyodalar yulak larini yaratish, bosh va yonbosh xiyobonlarni o‘tkazish va boshqalar kiradi. Kichik

bog‘ rejaviy yechimini ishlab chiqishda ushbu asosiy vazifalar puxta o‘ylanib yechilishi shart. Eng murakkab masala esa kichik bog‘ning badiiy me’moriy–landshaft obrazini yaratish va shakllantirishdir [33; 23-24. b].

Hozirgi vaqtda kichik bog‘larni loyihalashga katta e’tibor berilmoqda, shu sababdan ham ularning vazifasi va me’moriy–landshaft tashkillash tirilishi turlicha bo‘lishi mumkin [33; 23-24. b]. (4-ilovalar).

## I–bob xulosasi

1. Kichik bog‘larning tarixiy shakllanish ildizlari uzoq o‘tmishdan boshlanib, insoniyatning boy va hukmdorlar sinfiga tegishli zodagonlari dastlab o‘zlarining doimiy yashaydigan saroy va ark – qo‘rg‘onlari tarkibidagi kichik bog‘lardan tashqari, mavsumiy, ya’ni yoz paytlarida dam olishga mo‘ljallangan bog‘larni ham kichik bog‘lar tarzida bunyod etganlar. Saroy va ibodatxonalarning hovli bog‘lari ham dastavval kichik bog‘lar tarzida barpo etilgan.
2. Kichik bog‘larning tarixiy turlariga quyidagilar kiradi:
- hukmdorlarning saroylari qoshidagi yoki hovlsidagi bog‘lar;
- ibodatxonalarning hovli bog‘lari;
- maqbaralar qoshidagi bog‘lar;
- o‘quv muassasalari, akademiyalar qoshidagi bog‘lar;
- amaldorlarning qo‘rg‘onlar (dala hovlilari) bog‘lari;
- Ispaniyaning “patio” bog‘lari;
- Eronning “mushrabiya” bog‘lari;
- Italyancha bog‘lar;
- Fransuzcha bog‘lar;
- Xitoy xovli bog‘lari;
- Yaponiyaning choy bog‘lari;
- Yevropaning qishgi va oranjereya bog‘lari.

3. Kichik bog‘lar o‘zlarining hududiy cheklanganligi, foydalanishdagi mutlaqo xususiyligi va maxsus maqsadlarga mo‘ljallanganligi bilan ajralib turgan. O‘rta Osiyoda xonliklar davrida bunyod etilgan shahar cheti qo‘rg‘oncha-chorbog‘lari ham aslida kichik bog‘lar bo‘lgan. Ov maqsadlari uchun mo‘ljal-langan “qo‘riqxonalar” esa katta hududlarni talab qilgan. Shuning dek, Amir Temur va temuriylar davrida shaharlardan tashqarida, tog‘ etaklari va tog‘li hududlarda tashkil etilgan bog‘lar ham kichik bog‘lar turkumiga kirmagan.
4. Kichik bog‘larda o‘sadigan o‘simliklar turlari ham o‘ziga xos bo‘lib, bu masala eng avvalo bog‘ning qanday funksiya va maqsadlar uchun yaratilgan ligiga, mahalliy tabiiy iqlim va tuproq sharoitlariga bog‘liqdir.

Umuman olganda kichik bog‘larda ekiladigan o‘simliklar assortimenti nisbatan cheklangan bo‘ladi. Daraxtsimon o‘simliklardan tashqari manzarali gullovchi va manzarali bir yillik va ko‘p yillik gullar, maysa o‘simliklari va yeryopar o‘simliklardan foydalaniladi.

5. Kichik bog‘larning me’moriy-rejaviy yechimlari uch xil uslubda:

A) Muntazam usul, ya’ni sof geometrik, to‘g‘ri chiziqlar bilan chegara- langan va shakllantirilgan ko‘rinisharda: kvadrat yoki to‘g‘ri burchakli to‘rtburchak shaklida;

B) Erkin rejali peyzaj uslubida: silliq va egri chiziqlar bilan shakllantirilgan ko‘rinishlarda;

V) Aralash usulda, ya’ni bog‘ning bir qismi muntazam qolgan qismi esa peyzaj usulida bo‘lishi mumkin


1.1. KICHIK BOG‘LARNING TARIXIY
SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI
1
KICHIK BOG‘LARNING ILK SHAKLLANISH DAVRI
(ERAMIZGACHA 2000 YILLARDAN TO ERAMIZ
BOSHLARIGACHA)
BU DAVR BOG'LARI HAQIDA TURLI XIL YoZMA MANBALAR, VA ADABIYoTLAR VA XALQ OG'ZAKI IJODIDAGI AYRIM MA'LUMOTLAR SAQLANIB BIZGACHA YETIB KELGAN. BOG'ChILIK SAN'ATINING ILK ShAKLLANISh DAVRI, ASOSAN, OSIYo HUDUDIDAGI ISSIQ IQLIMLI MAMLAKATLAR (MISR, BOBIL, ERON, HINDISTONLAR)GA TO'G'RI KELIB, BU DAVR BOG'CHILIK SAN'ATI INSONIYaT SIVILIZATsIYaSINING VUJUDGA KELIShI VA SUG'ORISH INSHOOTLARINING YARATILISHI BILAN BOG'LIQ. BU DAVR BOG'LARI ZODAGONLAR VA HUKUMDORLARGA TEGIShLI BO'LIB, ULAR ASOSAN UYLAR VA SAROYLAR, IBODATXONALAR QOShIDAGI MANFAATLI BOG'LARNI TAShKIL QILGAN.
Misr saroylarining ichki hovlilaridagi to'g'ri burchakli muntazam rejali bog'lar
Qadimgi Bobildagi "Semiramida" osma bog'larining rekonstruktsiyalari
Agradagi Toj Mahal maqbara bog'-saroyi.
Muntazam, simmetrik rejada qurilgan "Chorbog'".Toj Mahal maqbara bog'-saroyining rejasi
Eronda "chorbog'" uslubida ishlangan bog'lar.
XIV-XV-asrlarda "Chorbog'" nomli muntazam rejali bog' yaratishga alohida e'tibor berilgan
BUNGA TARIXIY MANBALAR HAM GUVOHLIK BERADI. JUMLADAN, ZARAFSHON VODIYSINING YUQORI QISMIDA MUG' SHAHARCHASIDAN TOPILGAN HUJJATLARDAN SUG'D YERLARIDA VII-VIII ASRLARDA HAM DAM OLIShGA MO'LJALLANGAN BOG'LAR BO'LGANLIGI TA'KIDLANADI
XIV-ASRDA SAMARQANDDA CHORBOG' USLUBIDA BUNYOD ETILGAN BOG'LAR BO'LGAN. BUNDAY CHORBOG'LAR TO'G'RI- TO'RTBURCHAK YOKI TOMONLARI TENG TO'RTBURCHAK MAYDONGA EGA BO'LIB, UNING MARKAZIDAN BOG' IMORATI (KO'SHK/SAROY) O'RIN OLGAN

# 1.2.KICHIK BOG‘LARNING TARIXIY TURLARI

2

## KICHIK BOG‘LARNING TARIXIY TURLARI

1. HUKMDORLARNING SAROYLARI QOSHIDAGI YOKI HOVLISIDAGI BOG‘LAR, IBODATXONALARNING HOVLI BOG‘LARI, MAQBARALAR QOSHIDAGI BOG‘LAR, MAQBARALAR QOSHIDAGI BOG‘LAR,TARIXIY O‘QUV MUASSASALARI, AKADEMIYALAR QOSHIDAGI BOG‘LAR

2. AMALDORLARNING QO‘RG‘ONLARI (DALA HOVLILARI) BOG‘LARI, ISPANIYANING “PATIO” BOG‘LARI ERONNING “MUSHRABIYA” BOG‘LARI

3. ITALYANCHA BOG‘LAR, FRANSUZCHA BOG‘LAR, INGLIZCHA BOG‘LAR, XITOY HOVLI BOG‘LARI, YAPONIYANING CHOY BOG‘LARI MA’LUMKI QADIMIY SHAHARLAR ATROFI KICHIK BOG‘ZORLARGA BURKANGAN.ULARNING AKSARIYATI XO‘JALIKLARGA TEGISHLI BO‘LGAN.

4. XVII-XIX ASRLARGA OID KICHIK BOG‘ IMORATLARINI SAMARQANDDA QO‘RG‘ON, BUXORODA QO‘RG‘ONCHA,XIVADA HOVLI DEB YURITILGAN.

5. RESPUBLIKAMIZDA TARIXIY SHAKLLANGAN KICHIK BOG‘LARNI TOG‘NING TEKIS NOTEKIS YONBAG‘RLARIDA JOYLASHISHI JIHATIDAN QUYIDAGI TURLARGA BO‘LISH MUMKIN TOG‘ YONBAG‘RIDA ZINA SHAKLIGA KELTIRILGAN POG‘ONASIMON KICHIK BOG‘LAR

6. TARIXIY HOVLI BOG‘LARI, JAMOAT BINOLARI QOSHIDAGI KICHIK BOG‘LAR, SOYLAR BO‘YIDA BUNYOD QILINGAN TEKIS YUZALI KICHIK BOG‘LAR




*Tarixiy kichik bog‘larning asosiy turlari:*
*Rasmda “italyancha” (relefda muntazam), fransuzcha (muntazam tekis) va inglizcha (tabiiy peyzajli) bog‘larning bir-biridan farq qiluvchi yechimlari ko‘rsatilgan a–italyancha; b)–fransuzcha; v)–inglizcha kichik bog‘.*

Charbog‘ uslubidagi bog‘ rekonstruksiyasi. To‘g‘ri chiziqli, muntazam rejaviy yechimga ega bo‘lgan charbog‘ning umumiy ko‘rinishi. Shoxlarning oila a’zolari va yaqin do‘stlari bilan dam olishiga mo‘ljallangan (D.Nazilov bo‘yicha).





Qadimgi Xorazm. Qadimgi shaxriston atrofi va ichida barpo etilgan muntazam rejali bog‘larning tarhi

XVII-XIX ASRLARGA OID KICHIK BOG‘ IMORATLARINI SAMARQANDDA QO‘RG‘ON, BUXORODA QO‘RG‘ONCHA, XIVADA HOVLI DEB YURITILGAN.



Yozgi bog‘-qo‘rg‘on(kichik bog‘)ning umumiy ko‘rinishi (D. Nozilov bo‘yicha)





# 1.3.KICHIK BOG‘LARNING O‘SIMLIKLAR DUNYOSI

3

## KICHIK BOG‘LARDA QO‘LLANILADIGAN O‘SIMLIKLAR DUNYOSI
(Muallif ishlanmasi)

**KICHIK BOG‘LARDAGI DARAXTSIMON VA O‘TSIMON O‘SIMLIKLAR**

Daraxtsimon o‘simliklar o‘sishiga qarab
- Daraxtlar
- Butalar
-Yarim butalar
- Lianlarga bo`linadi

O‘tsimon o‘simliklar:
-o‘tlar
-Bir yillik
-Ikki yillik
-Ko‘p yillik gullovchi o‘simliklar

**KICHIK BOG‘LARDAGI DARAXTSIMON O‘SIMLIKLARNI GURUHLARGA BO‘LINISHI**

Daraxtsimon o‘simliklar doim yashil va bargi tushuvchilarga bo‘linadi

Daraxtsimon o‘simliklarni 4 guruhga bo‘lish mumkin:
-Igna bargli doim yashil xvoy tipidagi o‘simliklar
-Igna barglidoim yashil xvoy tipidagi o‘simliklar

**KICHIK BOG‘LARDAGI GULZORLAR, ULARNING TARKIBI VA SHAKLLARI**

Gulzorlar tarkibiga
-Gullar
-Maysalar
-Yo‘laklar
-Mo‘jaz me’moriy shakllar kiradi

-Hovlilarni manzaraviy bezashda qo‘llaniladigan gulzorlar shakli kvadrat, to‘g‘ri to‘rtburchak, ko‘p burchak, oval, aylana, segment, tasmalar

**KICHIK BOG‘LARDAGI GULZORLARNING TURLARI VA ULARNI YARATISH QOIDALARI**

-Gulzorlarning eng yorqin, diqqatni o‘ziga tortuvchi qismi bu markaziy klumba hisoblanib, u gulzorning o‘rtasida joylashishi shart
-Gulzorlarda qo‘llanilgan gul shakllari maydalashib, bir-biriga aralashib ketmasligi kerak, zero ular yaxlit likni buzishga sabab bo‘ladi.

## KICHIK BOG‘LARDA QO‘LLANILADIGAN MANZARALI BUTALAR



**Tobulg‘i (spireya) (Spirayea hypericifolia).**
Aholi yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirishda keng qo‘llanilmoqda. Landshaft qurilishda kompozitsiyalar yaratishda foydalaniladi. Parklarda, dam olish oromgohlarida ko‘kalamzorlashtirish uchun ekiladi.



**Padubbargli magoniya (Mahonia aguifoliu)**
O‘zbekistonda asosan, manzarali buta sifatida ekiladi, chunki uning guli va barglari juda go‘zal. Sovuqqa, qurg‘oqchilikka chidamli.



**Oddiy zirkning (Berberis vulgaris) qizil bargli shakli**



**Forzitsiya (Forsythia suspense).**



**Doim yashil shamshod (Buxus sempervirens)**
Ko‘kalamzorlashtirish sohasida asosan doim yashil shamshod o‘stiriladi.U O‘rta yer dengizi atrofidagi hududlarda tarqalgan, O‘zbekistonda aholi yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirish maqsadida ko‘plab ekiladi. Shamshodning hamma turlari deyarli soyasevar o‘simlik hisoblanadi.



**Xenomeles yoki yapon behisi (Chaenomeles japonica).**
Respublikaning barcha viloyatlarida manzarali o‘simlik sifatida ishlatilishi mumkin.
Landshaft qurilishida istiqbolli o‘simlik hisoblanadi.



**Suriya gibiskusi (Hibiscus syriacus)**



**Dorivor rozmarin (Rosmarinus officinalis L)**



**Buddleya (Buddleja)**
Buddleya (Buddleja) o‘simligi Norichnikdoshlar (Scrophulariaceae) oilasiga mansub ko‘p yillik manzarali buta o‘simlik hisoblanadi.



**Glitsiniya (Visteriya-Wisteria) gullovchi daraxtsimon liana**
Yapon glitsiniyasi – Wisteria floribunda. Yapon glitsiniyasi yoki ko‘pgulli glitsiniya – Wisteria floribunda.
Bo‘yi 8-10 metrgacha boradi. Kengligi 6 metrgacha.
To‘pguli 45-50 sm.



**Yorqin qizil pirakanta ( Pyracantha coccinea)**
Yorqin qizil pirakanta – (Pyracantha coccinea Roem.) Vatani Sharqiy Yevropa hisoblanadi, sovuqqa chidamli tur, manzarali o‘simlik sifatida Rossiya Federatsiyasi shaharlarida keng foydalaniladi.




**Manzarali o‘simliklarni kesish: a) tabiiy shox-shabbani shakllantirish; b) to‘g‘ri geometrik shakldagi shox-shabbani shakllantirish.**



**Kolonnasimon shakl berilgan virgin archasi**


1.4.KICHIK BOG‘LARNING ME’MORIY–REJAVIY VA LANDSHAFT SEMANTIKASI (BADIIY-ESTETIK OBRAZI)
4
KICHIK BOG‘LARNING ME’MORIY–REJAVIY YECHIMLARI VA SEMANTIKASI
MUNTAZAM REJAVIY USLUBDAGI KICHIK BOG‘ VA UNING SEMANTIKASI
PEYZAJLI (ERKIN) REJAVIY USLUBDAGI KICHIK BOG‘ VA UNING SEMANTIKASI
ARALASH REJAVIY USLUBDAGI KICHIK BOG‘ VA UNING SEMANTIKASI
TO‘G‘RI CHIZIQLI XIYOBONLARNING YETAKCHILIGI
SUV HAVZALARI
MAYDONLARI
GULZORLARNING GEOMETRIK SHAKLDALIGI
DARAXTLARNING ERKIN GURUHLARI
BUTALARNING ERKIN GURUHLARI
ILON IZI YO‘LAKLAR
BOG‘NING REJAVIY USLUBINI TANLASH HUDUDNING REL’EFI VA UNDAN FOYDALANISHNING FUNKSIONAL JIXATLARIGA BOG‘LIQLIGI
JOYNING TABIIY XUSUSIYATLARI VA HUDUDNING FUNKSIONAL VAZIFALARI
JOYNING MIKROIQLIMIY SHAROITLARI
SUVNING TARQALISHI
KICHIK BOG‘LARNING ME’MORIY–REJAVIY YECHILISH USLUBLARI
XUSUSIY UY QOSHIDAGI «MUNTAZAM» REJALI ZAMONAVIY KICHIK BOG‘
ERKIN REJALI ZAMONAVIY TABIIY PEYZAJLI KICHIK BOG‘
Kichik bog‘lar uchun kuzalib sun’iy shakllar berilgan yashil to‘siqlar tajribasini o‘rganish

# II–BOB.
# KICHIK BOG‘LARNI YARATISHNING XORIJIY VA VATANIMIZ TAJRIBALARI. KICHIK BOG‘LARNING TIPOLOGIYASI

## 2.1. Kichik bog‘larni shakllantirishning Vatanimiz tajribalari

Kichik bog‘larni kayta qurish ta’mirlash va loyihalashning vatanimiz tajribalari A.S. Uralov, K.J. Raximov, M.Q. Axmedovlar tomonidan ko’rib chiqilgan. Keyingi yillarda O‘zbekistonda o‘zbek xalqining buyuk allomalaridan Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Bobir Mirzo, Ahmad al-Farg‘oniy, at-Termiziy, Jaloliddin Manguberdining yubileylari, Buxoro va Xiva shaharlarining 2500, Samarqandning 2750 yillik yubileylarini xalqaro ko‘lamda, tantanavor o‘tkazish hamda Toshkent va respublikamizning barcha viloyatlarida “Xotira va qadriyat” xiyobonlarini tashkil qilish munosabati bilan qator me’moriy va me’morial majmualar, bog‘-hiyobonlarning loyihalari ishlab chiqilib, amalga oshirildi. Ta’kidlash joizki, bu ishlarning barchasi hukumatimizning e’tiborida bo‘ldi. Ana shu bunyodkorlik ishlarida jahon landshaft arxitekturasi va bog‘-park san’atining badiiy estetik vositalariga amal qilish va O‘rta Osiyoga xos milliy bog‘-istirohatchilik san’atining merosiy uslublarini qayta tiklash masalalariga keng e’tibor berilgan. Bunyod tashkil etilgan memoriy inshootlar, me’moriallar va muzeylar, bog‘-xiyobonlarning aksariyati muntazam simmetrik rejada ishlanib, ularning hududi ochiq va yopiq yashil maydonlar, ulardagi favvoralar, sharsharalar, gulzorlar, xiyobonlar va yo‘laklar hamda kichik me’moriy shakllar buyuk allomalarning timsolini ifoda etilgan ramziy majmualardan iborat bo‘ldi. Bu me’morial bog‘-hiyobonlarning har biri o‘zlarining rejaviy markazi va hajm-fazoviy yechimidagi kulminasiyaviy kompozisiyalariga ega bo‘lganlari holda, ularda qo‘llanilgan me’moriy yechim, yashil dunyo va arxitekturaviy qurilish materiallari orasidagi o‘zaro uyg‘unlik samarasi ushbu majmualarga tarovat bag‘ishladilar. Bu memorial majmualarning hududi nisbatan katta bo‘lmay 2 gektardan to 10 gektargacha maydonni tashkil etdi [33; 26. b].

Ayniqsa, keyingi mustaqillik yillarida O‘zbekiston landshaft arxitekturasi va bog‘-park san’atining rivoji uchun yaxshi imkoniyatlar yaratib berildi. Yangidan qurilgan va qayta tiklangan ko‘rkam jamoat binolari va ansambllari egallagan hududlar, ularning bosh tarzlari qoshidagi me’moriy muhit ushbu binolar vazifalariga moslashtirilgan holda kichik bog‘larga aylantirilgan. Quyosh nurida yarqiragan suv yuzalarini yaratuvchi favvoralar, pog‘onali bir-biridan go‘zal shalolalar, yam-yashil gilam maysa

zorlar, ular uzra yastangan gilam nusxa gulzorlar, manzarali butalar, kichik me’moriy shakllar, did bilan ishlangan o‘rindiqlar, tekis va jozibador, nafis to‘shamalar shular jumlasidandir [33; 26-27. b].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni va hukumat qarorlarida aholi yashash hududlarini ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirishga alohida e’tibor qaratilgan. Ko‘kalamzorlashtirishning eng muhim vazifalaridan biri inson hayoti uchun sog‘lom va to‘laqonli estetik tabiiy muhitini yaratishdir. Bu ma’noda ko‘kalamzorlashtirish sohasi landshaft qurilishi va landshaft arxitekturasi bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi. O‘zbekistonda manzarali bog‘dorchilikni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri – ko‘kalamzorlashtirish uchun shahar sharoitida yashil daraxtzorlarni barpo etish uchun biologik chidamli daraxt buta turlari assortimentini ko‘paytirish hisoblanadi. O‘zbekistonda mavjud ko‘kalamzorlashtirish sohasi uchun o‘simliklar turlari assortimenti cheklangan bo‘lib, uni ko‘paytirish va yaxshilash muhimdir [33; 26-27. b].

Toshkent G‘alaba istirohat bog’i chegaralariga tutashgan va ko‘pdan beri qarovsiz yotgan Anhor kanalining sohillari obod etilib, bu joyga Toshkent Disney parki loyihasi ishlandi va amalga oshirildi. Park Anhor kanalining tabiiy sohillari va ulardan hosil bo‘lgan tabiiy jilg‘alar va ko‘llar hududida joylashtirilgan va o‘nlab gektar joyni egallagan bo‘lib, unda bolalar va kattalar uchun ulkan tabiiy tomoshagohlarda sun’iy yaratilgan turli g‘aroyib yovvoyi hayvonlar dunyosini ham tashkil qilgan. Barcha hayvonlar sun’iy harakatlantiriladi va tabiiy ovozlariga egadir. Har bir hayvon uchun yaratilgan landshaftlar u yashaydigan tabiiy muhitni eslatib turadi. Did bilan oroyish berilgan park landshaftlari tabiiyligicha qoldirilgan. Bog’da g‘orlar va suv osti dunyosi hayvonlari ham mavjud. Xizmat ko‘rsatish madaniyati o‘ta yuqori darajada tashkil qilingan [33; 26-27. b].

“Bog‘ishamol bog‘i “milliy bog‘ Samarqand viloyatida Samarqand markazi-dan 10 kilometr uzoqlikda, Qaynama qishlog‘ida joylashgan. Bog‘ bir vaqtning o‘zida 700 kishi dam olishi uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda ajoyib oilaviy dam olish uchun barcha sharoitlar mavjud.

Hududda uchta sun’iy va bitta tabiiy ko‘l mavjud. Bundan tashqari, toshlar bilan ishlangan ikkita palapartishlik mavjud. Ochiq va yopiq qurilgan go‘zal uslubda restoran bir vaqtning o‘zida qulay dam olishi va bir vaqtning o‘zida 500 milliy va Yevropa taomlarini tatib ko‘rishi mumkin. Restoranda konsert dasturlari mavjud. Qal’a shaklidagi restoran devorlarida Amir Temur hukmronligi davri va Amir Temur davri jangchilari va bog‘lari aks ettirilgan. Kichik bog‘da ajoyib go‘zallikda bir nechta qush turlari o‘stiriladi: bulbul, bedana va boshqa qo‘shiq kuylaydigan qushlar. Tovuq, xo‘rozlar, qo‘ylar, echkilarning uy hayvonlari ham mavjud.

Kichik bog‘ning katta maydonini 20 ta chiroyli favvoralar, katta raqs maydonchasi egallaydi. Bu yerda har doim juda chiroyli atmosfera, toza havo, bir so‘z bilan aytganda, bu yerga tashrif buyurgan kishi ertak kabi his qiladi. Ushbu ekzotik joy o‘zining ajoyib go‘zalligi bilan sayyohlarni o‘ziga jalb qiladi [33; 26-27. b].

Xullas, O‘zbekiston Respublikasi landshaft arxitekturasi va bog‘-park san’atining zamonaviy qadamlari bugungi kunda g‘ayri-tabiiy va shoshilinch uslublar bilan emas, balki, bosqichma-bosqich tashlanayotgan bo‘lsada, uning istiqboldagi tarraqiyoti porloq bo‘lishligi uchun to‘liq imkoniyatlar yarati lgan [33; 26-27. b].

Shunday qilib, biz yuqorida amaliyotda keng tarqalgan kichik bog‘lar obrazini shakllantirish va yaratishning me’moriy–g‘oyaviy va badiiy land shaft qoidalari va nazariy asoslariga to‘xtab o‘tdikki, ulardan zamonaviy landshaft amaliyotida foydalanish respubikamizning Mustaqillik davri arxitekturasini yangi pog‘onalarga ko‘tarish va sifat samaradorligini oshi rishga yaqindan yordam beradi degan umiddamiz [33; 26-27. b]. (5-6-ilovalar).

## 2.2. Bog‘larni shakllantirishning xorijiy tajribalari

Xorijiy davlatlarda kichik bog‘larni yaratishdagi eng asosiy masala – bu bog‘ning badiiy-me’moriy va landshaft obrazini yaratishdir. Landshaft arxitekturasi amaliyoti kichik bog‘larning turli xil rejaviy stillarini: misr, antik, islom, o‘rta asrlar, uyg‘onish, italyancha, fransuzcha, barokko, klassizisizm, peyzajli, inglizcha, eklektika, xitocha, yaponcha va boshqa min taqaviy va milliy obrazlarni yaratgan [33; 29. b].

Kichik bog‘ hududini funksional jihatdan ta’minlash uning shahar muhitidagi joylashuviga bog‘liqdir. Jamoat binolari qoshidagi kichik bog‘lar hududi funksional foydalanish xususiyatlari talablariga bo‘ysun ishi kerak. Hududning rejaviy kompozisiyasi u joylashgan me’moriy binolarga uyg‘unlashgan bo‘lishi zarur. Imoratlarga kirish, tranzit harakatlarni ta’minlash zarur. Kichik bog‘ga asosiy kirish joylarining tashkil qilinishi atrof muhit va holat orqali aniqlanish kerak. Kichik bog‘ning asosiy inshootlari tarkibiga turli xil kichik me’moriy shakllar–pavilyonlar, soyabon tomlar, pergolalar, trelyajlar, o‘rindiqlar va bosh qalar; suv qurilmalari–buloqlar, jilg‘alar, sharshara, shalolalar, deko rativ va suzish basseynlari va boshqalar; dekorativ haykallar va boshqalar kirishi mumkin [33; 29. b].

Kichik bog‘ning rejaviy tuzilishini shakllantirish uning hududini fuksional zonalarga bo‘lish va bu zonalarga mos tarzda hududning rejaviy elementlarini aniqlash orqali amalga oshiriladi. Kichik bog‘ni shakllan

tirishning asosiy vazifalariga bog‘ hududini atrofdagi qurilmalardan holilashtirish, bog‘ning asosiy imoratiga kelish va ketish yo‘llarini tash killashtirish, dam olish maydonlarini joylashtirish, piyodalar marshrut larini yaratish, bosh va yonbosh xiyobonlarni o‘tkazish va boshqalar kiradi. Kichik bog‘ rejaviy yechimini ishlab chiqishda ushbu asosiy vazifalar puxta o‘ylanib yechilishi shart. Eng murakkab masala–bu kichik bog‘ning badiiy me’moriy–landshaft obrazini yaratish va shakllantirishdir [33; 30. b].

Kichik bog‘ badiiy obrazini yaratishga ta’sir ko‘rsatuvchi obyektiv asosiy omillar tabiiy landshaft komponentlari: relyef, suv va o‘simliklar hisoblanadi. Relyef, suv va o‘simliklarning turli xil me’moriy–landshaft yechimlari yuqori emosional ta’sirga ega bo‘lgan ko‘p sonli landshaft kompozitsiyalarini shakllantirishga asosiy baza yaratadi. Har bir alohida holatlarda landshaft elementlaridan birortasi yetakchi rolni o‘ynaydi [33; 30. b].

Bog‘–park san’atining bizgacha saqlangan yodgorliklari bizga kichik bog‘larning ajoyib rejaviy usullarini yorqin tarixiy misollarda ko‘rish va tanishish imkonini beradi, ularni ko‘rganlar, odatda, yuksak badiiy taassur otlar oladi. Azal–azaldan islom yoki boshqa dinlar dunyosining bog‘larni yaratishda insonning “jannat”ga tushish, bog‘ni jannat misol tarzda ko‘rish orzulari aks ettirilgan. Bunday bog‘larning qurilishi o‘z davrining tinch va osoyishta yashash madaniyatida, insonlarning jonli tabiat bilan oshno bo‘lish ruhida yaratilgan. Madaniy an’analar, tabiiy–iqlim sharoitlari, iqtisodiy rivojlanish, siyosiy jonlanishlar, rangtasvir, haykaltaroshlik va jamiyat landshaft madaniyatining alohida ijodiy faoliyat sifatida rivojlanishi, bog‘–park san’atining turlicha namunalarini yaratishga asos bo‘lib xizmat qilgan. Landshaft arxitekturasi tarixi bog‘–parklar va kichik bog‘larning turli xil rejaviy stillarini: misr, antik, islom, o‘rta asrlar, uyg‘onish, italyancha, fransuzcha, barokko, klassisizm, peyzajli, ingliz, eklektika, xitoycha, yaponcha va boshqa mintaqaviy va milliy stillarini yaratgan [33; 30. b].

Kichik bog‘ning badiiy obrazi me’moriy va landshaft kompozitsiyasi qonuniyatlari va badiiy vositalaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Hajmiy muhit masshtabi, hudud va uning elementlarining proporsional bo‘laklanishi, metr va ritm, kontrast va nyuans, hamda rejaviy yechimning (muntazam yoki peyzajli erkin) usullaridan foydalanib landshaft muhiti obrazining muayyan tipini yaratish mumkin. Masalan, zamonaviy kichik bog‘ni yaratish g‘oyasi (ayniqsa kottej tipidagi qurilishlarda) “yaponcha”, “ispan–mavritancha”, “italyancha”, “fransuzcha”, “inglizcha” yoki “Chorbog‘” stilida yechilishi mumkin. Hozirgi vaqtda kichik bog‘larning eng ommaviylashgan stili–bu yaponcha uslubdir. “Yaponcha kichik bog‘”–bu atrof chetdan holi bo‘lish, har bir bog‘ predmeti va ularning joylashishini tomosha qilish uchun yaratilgan va chuqur simvolik mazmunga ega bo‘lgan

holis muhitdir. Bu, eng avvalo, tarkibiga shag‘al yoki qum ustiga turlicha o‘rnatilgan tosh kompozisiyalarini o‘simliklar (butalar, to‘q yashil moxlar) bilan birgalikda kiritgan, peyzaj yechimidan foydalanib ishlangan landshaft muhitidir [8; 78-80. b].

“Yapon kichik bog‘i”ning ajralmas elementi tosh chiroqlar hisoblanadi. Tosh chiroqlar yo‘lakning burilgan joyida, suv havzasi yoki irmoq chekkasida, ko‘prik yonida va shunga o‘xshash joylarga o‘rnatiladi.

Chiroq, odatda, kichikroq toshlar guruhining asosiy elementi hisoblanadi, ba’zida chiroq orqasida daraxt joylashtiriladi. Chiroqlarni tayyorlash uchun turli tabiiy toshlar, yog‘och yoki peyzajdan foydalaniladi. Tosh yo‘lakchalar va xiyobonchalar ham yapon stilidagi bog‘ning muhim eleme nti hisoblanadi. Bog‘da yo‘lakchalar qurish uchun yuzining bir tomoni tekis bo‘lgan toshlar qo‘llaniladi (toshlarning tekis bo‘lmagan yuzalari yer bilan yopiladi).

Tosh yo‘laklar suv havzalari–prudlar, dekorativ basseynlar, irmoq va jilg‘alar tizimiga uzviy bog‘lanib ketadi. Ba’zi bog‘larda “quruq jilg‘alar” yaratiladiki, ularda suvning oqishi mayda shag‘al yoki kichik toshchalar orqali imitasiya qilinadi. Suvli yoki quruq jilg‘alar ustiga o‘rnatilgan ko‘priklar hamda bambukdan ishlangan yashil to‘siqlar ham “Yapon bog‘i”ning bezagi hisoblanadi. Kichikroq yaratilgan qir va do‘ngliklar past o‘simliklar bilan landshaft muhitiga alohida jozibadorlik baxshida etadi [33; 31-39. b].

“Yapon kichik bog‘i”ga barcha bog‘ qurilmalari va detallarining ideal ishlanmasi, qismlar va shakllarning butunga, butunning esa shakllarga nafis uyg‘unligi, me’moriy ifodaliligi xarakterlidir. Bularning barchasi o‘z jozibadorligi, oddiyligi, bog‘dagi barcha elementlar va shakllarning puxta o‘ylab joylashtiril-ganligi, badiiy obrazining yuksakligi bilan inson ongini shoshiradi [33; 31-39. b].

Erondagi zamonaviy kichik bog‘lari bu o‘lkada tarixiy shakllangan bog‘lardan farq qilib, o‘zining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Xushmanzara voha, daryolar va qirliklar, tog‘larda yaratilgan tabiiy bog‘lar, qo‘riqxonalar, milliy parklar, bolalar bog‘lari, suv bo‘ylaridagi kichik bog‘lar, gul bog‘lari va, nihoyat, shaharlarda zamonaviy turarjoylar tarkibidagi hovli kichik bog‘lari (chorbog‘lar) ana shunday xilma-xillikni tashkil qiladi. Shular orasidan “chorbog‘” va “chahorbog‘”lar, milliy parklar va gullar bog‘i Eronda keng tarqalgan [33; 31-39. b].

Hozirgi qurilayotgan hovlili zamonaviy turarjoylar tarkibidagi kichik bog‘lar Eronning an’anaviy hovli chorbog‘lariga ko‘p jihatdan o‘xshaydi, ya’ni ular muntazam rejali, to‘rt qismli kichik hovli bog‘lari bo‘lib, atrofi ichki yo‘lak va devorlar bilan aylantirilgan, bog‘da o‘ziga xos manzaraviy

yashil muhit hosil qiladi. Aksariyat hovli chorbog‘lar xususiy qurilgan muntazam rejali sug‘orish tizimi bilan ta’minlanganki, ulardagi ariq va kannallardan oqqan suv tovushi dilni yayratadi. Yoz paytlari kichik bog‘larda o‘tirib mehmon qabul qilinadi. Atroflari gulzor, tuvaklarda xushbo‘y va yorqin gullar o‘stiriladi. Daraxt va butalardan, devorlar va uydan tushgan soyalar, favvora va ariqlardagi suvlar hovli iqlimini salqin qiladi, go‘yoki unga “bihisht” ya’ni jannat bog‘i ramzini beradi. Ayrim zamonaviy hovli bog‘lari sathiga tekis maysa ekilib, o‘rtadagi favvora va to‘rdagi ko‘shkdan tashqari kechqurun yoritadigan tosh chiroqlar haykallar va o‘rindiqlar kiritilgan [33; 31-39. b].

Yuqorida eslatganimizdek, Eronda erkin tabiat bag‘rida, xushmanzaralarga boy daryo va ko‘llar, baland tog‘ va qoyalar qo‘ynida, Eronga xos milliy flora va fauna genafondini tashkil qiluvchi go‘zal tabiatli yashil voha va vodiylarda qator qo‘riqxonalar va ular asosida milliy parklar yaratishning boy tajribalari orttirilgan [53; 28-30. b].

Kirmon viloyatida joylashgan va rezervasiyalangan uchun yovvoyi tabiatlarini o‘z tarkibiga olgan Xabr milliy parki va tabiat qo‘riqxonasi, Dergez okrugi (Shimoliy Xuroson) dagi Tandura tabiat kompleksi: milliy park va qo‘riqxona, Shimoliy Tehronga yaqin joylashgan Tochal tog‘ cho‘qqisi va Jamshidiya tabiat parki, Isfaxon viloyatidagi Najvon milliy parki va undagi “Qushlar oroli bog‘i”, Fars viloyatidagi Baxtegan ko‘li qo‘riqxonasi va parki, Bamu milliy bog‘i, Urmiya ko‘lida tashkil qilingan milliy parklar, Koshon shahri atrofidagi atirgullar bog‘i va boshqalar Eronning ochiq muhitda yovvoyi tabiat qo‘ynida yaratilgan zamonaviy milliy bog‘-parklari tizimini tashkil qilgan [33; 31-39. b].

Tabiiyki, bu bog‘-parklar tabiiy landshaftli katta hududlarni o‘z ichiga olgan va shu boisdan ham shahar tashqarisida joylashgan. Shahar bilan qulay bog‘langan bu parklar shaharliklar va xorijiy sayyohlar uchun doim ochiq, go‘zal tabiat qo‘ynidagi dam olish va istirohat bog‘lariga aylantirilgan. Ularda dam olish uylari, kurortlar, sanatoriyalar, sport bog‘lari, hayvonot bog‘lari, gidro parklar, bolalar lagerlari, ilmiy tadqiqot maskanlari tashkil qilingan.

Eron shaharlarida Sobiq Sovet Ittifoqiga xos keng xalq ommasiga mo‘ljallangan ko‘p funksiyali madaniyat va istirohat bog‘lari qurilmagan. Biroq, ularning o‘rnini erkin tabiat quchog‘ida katta hududa joylashgan o‘sha milliy parklar bajaradi. Masalan, Isfaxon shahridan oqib o‘tadigan Zayanderud daryosi sohillari bo‘yida joylashgan. Najvan tabiat bog’ini olib ko‘raylik. Bu park Isfaxon shahri havosini sog‘lomlashtirishga xizmat qilishdan tashqari shahar xalqiing erkin tabiatda dam oladigan istirohat bog‘i hisoblanadi. Bog‘da ko‘plab sport va bolalar o‘yin maydonlari, cho‘milish va

suzish suv havzalari, qushlar bog‘i mavjud, kabrioletlar va otlarda sayr qilish, qayiqlar va velosipedlarda hordiq chiqarish mumkin [33; 31-39. b].

Bir so‘z bilan aytganda bog’da sog‘lom va faol dam olish, sport turlari bilan shug‘ullanish, erkin tomoshalar qilish imkoniyatlari mavjud.

Faqat qushlar bog‘ining o‘zi 55 ming kv.M.ni tashkil qilib, unda 5 mingdan ziyod turli qushlar mavjud. Bog‘dagi to‘rtta katta va kichik suv havzalarida o‘rdak, g‘oz, flamingo va boshqa ko‘plab suvda suzuvchi qushlar yashaydi. Bog‘ning sharqiy qismida joylashgan “Saxre bog‘”da esa tog‘ va sahro qushlari joylashgan. Zayanderud daryosidagi ulkan orol ham “Qushlar bog‘i” ga aylantirilib, park bilan yog‘och ko‘prik bilan bog‘langan [53; 31-32. b].

Yaponiya bog‘-park san’atining g‘oyaviy falsafiy asoslarini chuqurroq tushunmoq uchun bu mamlakatning o‘ziga xos geografiyasi va tabiiy – iqlim sharoitlariga hamda yapon xalqining diniy va dunyoviy tafakkuriga nazar solish kerak. Tog‘u-toshlar, qoyalar, sharsharalar, dengizlar tabiiy irmoqlar, Yaponiyaga xos o‘simlik va suv dunyosi, ya’ni ona tabiat qanday yaratilgan bo‘lsa yaponlar ularni o‘z bog‘larida shunday mazmunda, faqat kichiklashtirilgan va ramziylash-tirilgan shakllarda ko‘rishga odatlangan. Yaponiya dini – dzen – buddizm va sintoizm ham yapon xalqini aynan ana shunga, ya’ni ona tabiat go‘zalligini yaxlit holda ko‘rishga, uni sevishga, uning elementlari orasidagi mutanosiblikni sezish, uni tushunish va to‘liq xis qilishga undaydi. Bu ularning turmushini go‘zal, hayotga ishtiyoqini mustahkam, dilini baxtiyor qiladi, deb tushuntiradi. Bu esa yapon bog‘lariga xos ramziylikni, mazmunlilikni, an’anaviylikni tushunishga yordam beradi. Demak, Yaponiya milliy bog‘larining uslubiyati yaponlarning ona tabiati, milliy mafkurasi va diniy dunyoqarashlaridan kelib chiqqan [33; 31-39. b].

Dzen-buddizm ona tabiatni inson o‘zining barcha sezish organlari bilan, nafaqat ko‘rib va ushlab, balki hidlab, eshitib va ta’mini totib ham o‘rganishga undaydi. Faqat shundagina inson ona tabiatni yaxshi tushunadi va sevadi. Ona tabiatdagi Tog‘u-toshlar, qoyalar, sharshara, irmoqlarning, daraxt va o‘simlik-larning, havzalarning modellashtirilgan ko‘rinishlari yaponlarning jonudili hisoblanadi. Ular o‘z kichik bog‘larini ana shularsiz, o‘zlarini esa bog‘larsiz tasavvur etolmaydi. Bu yapon kichik bog‘lariga xos eng birinchi va asosiy omilidir. Ikkinchisi bu jonli tabiatning ushbu tarkibiy elementlari tabiatda qanday mutanosiblikda bo‘lsa, kichik bog‘larda ham shunday holatlarda timsollashtirilishi shart. Yaponiyada inson jonli tabiatning bir qismi, uning tashqarisidan emas, ichidan joy olgan uyg‘un organizmi hisoblanadi. Shu boisdan ham yaponlar tabiatni egallashga emas, balki har doim u bilan uyg‘unlashishga harakat qiladilar.

Tabiatga mavsumiylik, vaqtga ko‘ra doimiy harakatchanlik tushunchalari xosdir. Bu tushunchalar yapon kichik bog‘larida o‘z aksini topgan. Daraxt va butalar, ularning gullari va mevalari mavsumiylikni bildirsa, tosh va qirlar doimiylikning, yapon tog‘larining ramzi hisoblanadi. O‘simliklar hayoti va suv oqimi esa vaqt va harakatlar ramzidir. An’anaviy yapon kichik bog‘lariga xos yana bir narsa bu ochiq va yopiq yashil muhitlar kontrastidir [33; 31-39. b].

Buning ma’nosi shulki, yaponlar bog‘larini tabiat elementlari (toshlar, o‘simliklar, suvlar) bilan to‘ldirilib tashlash emas, balki ochiq muhitlar va ularda turgan tabiiy urg‘ular orqali ham tasvirlashni yoqtirishadi. Bog‘larning oldingi, o‘rtalik va orqa manzaralari bo‘lishligi va ularni sayr yo‘laklaridan ko‘rish imkoniyatining yaratilishi ham muhimdir.

Yapon kichik bog‘i monoxromli yoki polixromli ranglarda bo‘ladi. Toshloq bog‘lar yoki quruq peyzajli bog‘lar monoxromli bog‘larga kirsa, peyzajli yoki manzarali bog‘lar polixromli bog‘larga kiradi.

Relefinining holatiga ko‘ra zamonaviy yapon bog‘lari uch xil: qirlik, yassi va past-baland bog‘larga bo‘linadi [30; 100-110. b].

**Yassi bog‘lar** sahni tekis bo‘lib, ularning yuzi mayda shag‘al yoki qumdan, bir nechta toshdan va moxdan, ayrim hollarda manzarali daraxtlardan iborat bo‘ladi. Bunday bog‘larga, birinchi navbatda quruq peyzajli bog‘lar kiradi. Bunday bog‘larning tarixiy prototipi Kioto shahridagi Rean dzi bog‘I hisoblanadi [55; 68. b].

**Qirlik bog‘larga** qirning mavjudligi xosdir. U odatda suv havzasi sharshara va suv oqimi, irmoqlar bilan to‘ldiriladi. Bunday bog‘lar ham tosh va daraxtlardan holi emas.

**Past-baland bog‘lar** sahni, odatda, o‘nqir-cho‘nqir bo‘lib, ular Yaponiya tog‘lik mintaqalarining kichik modellarini o‘zida ramziy ma’noda aks ettiradi. Kichikroq ko‘l, orolcha, toshloq qirg‘oq, tosh chiroqlar, tosh ko‘prik va suv ustidagi tosh yo‘laklar bunday bog‘larga xosdir. Bu bog‘lar ham daraxtlardan holi emas.

Kompozision tuzilishining holati va tarkibiy elementlariga ko‘ra yuqoridagi har uchchala bog‘ ham to‘liq shaklda-“sin”, yarim qisqargan-“so” va qisqargan-“ge” shakllarida yaratiladi. Sayr yo‘laklari bo‘ylab bog‘ ssenariyalari, ya’ni manzaralarining doimiy o‘zgarib turishi murakkab kompozision tuzilishli katta bog‘larga xos asosiy alomatdir. Keng bog‘ maskanlari uzra sayr qilish, unda ona tabiatning jonli ramzlari-qirlar, ko‘llar, shalolalar, qirg‘oq, irmoq va yashil dunyoni tomosha qilish, yaqin va uzoq manzaralardagi tabiat urg‘ulariga razm salmoq va umuman, inson va tabiat uyg‘unligi, hamohangligiga erishmoq bunday bog‘larning asosiy funksiyasi va g‘oyaviy mazmunidir.

Butun dunyo bog‘-park tajribalaridan kelib chiqib, bugungi kunda Yaponiya shaharlarida ham ommaviy foydalanishga mo‘ljallangan parklar va bog‘lar yaratila boshlangan. Biroq, bu bog‘lar biz Yevropa va Rossiya shaharlarida ko‘rishga odatlangan madaniyat va istirohat bog‘laridek katta bog‘lar mavjud emas. Yaponiyaning Tokio, Kioto va boshqa shaharlarida piyodalar ko‘chalari muhitini, binolarning tashqi devorlariga tutashgan trotuarlarni, binolarga kirish joylarini konteyner qutilarga ekilgan tuvak gullar va boshqa manzarali o‘simliklar bilan faol tarzda ko‘kalamzorlashtirish tajribalari to‘plangan [33; 31-39. b].

Hajmi unchalik katta bo‘lmagan bunday nufuzli maskanlar mikro iqlimiga konteyner o‘simliklarining ta’siri ancha katta hisoblanadi. Bu o‘simliklarni nafaqat atrof muhit havosini tozalashi va uni kislorod bilan boyitishi, balki unga tabiiy go‘zallik baxshida etishi bilan ham muhimdir.

Yaponiyada 1966 yildan boshlab kichik bog‘lar yaratishning yangi turi, ya’ni bino tomlari ustiga kichik bog‘lar qurish madaniyati ham ommaviy tusga kirgan. Bu yo‘nalish shakllanishini shaharlarda yangi bog‘lar va parklar yaratishga yetarli hududlarning tanqisligi tufayligina emas, balki Yapon xalqining jonli tabiatiga bo‘lgan o‘ta yuksak ishtiyoqidan deb tushunmoq kerak. Bino tomiga ishlangan eng yirik bog‘lardan biri – bu Sapporo, Xokaydodagi Grand-Otel mehmonxonasi tomida yaratilgan kichik bog‘dir. Bog‘ning umumiy maydoni 660 kv.M tashkil qilib, ko‘p qavatli bu bino tomida go‘zal va maftunkor oazis bunyod etilganki, buning otel poyida, ya’ni ko‘chada yurgan oddiy kishilarning xayoliga ham kelishi qiyindir [33; 31-39. b].

Yaponiya zamonaviy landshaft arxitekturasiga xos navbatdagi manzara viy yo‘nalishi-bu turarjoy balkonlari va erkerlariga ishlangan bog‘lardir. Bu yo‘nalish Yaponiyada 1990 yillarning boshida shakllangan bo‘lib, hozirda u bilan aksari shaharlarda shug‘ullanadi [35; 89-90. b].

Yaponiyada zamonaviy turarjoy maskanlarini ko‘kalamzorlashtirishning o‘ziga xos shakli sifatida yana xususiy uylar tarkibida yaratilayotgan kichik bog‘larini ko‘rsatish mumkin. Yashash muhiti bilan uyg‘unlashib ketgan bu kichik bog‘larda kishi o‘zini go‘yoki uyda emas, ochiq muhitda yurgandek his qiladi. Tabiiyki, bunday kichik bog‘larni maxsus loyihalangan xususiy turarjoylar tarkibida yaratilgandir. Bunday kichik bog‘larda yaponlar milliy choy ichish marosimini o‘tkazishni yoqtirishadi va shu boisdan ular ayrim hollarda “Choy bog‘lari” deb atashadi [53; 110-115. b].

Yaponiya bog‘larida o‘sadigan o‘simliklar ichida doim yashil manzarali o‘simliklar yetakchi o‘rinni egallaydi. Ular safida eng an’anaviy daraxtlar va butalardan yapon qarag‘ayi, yapon kleni, kameliya, azaliya,

magnoliya, yapon olchasi, bambuk, safora va bereskletlarni ko‘rsatish mumkin [8; 120-123. b].

Yaponlarning tushunishicha, o‘simlik dunyosining “to‘rt ziynati” ni xrizantema, olxo‘ri, orxideya va bambuklar tashkil qiladi. Suv havzalari lotos gullari, ularning qirg‘oqlari esa irislar bilan bezatilgan. Gul o‘simlilari juda kam qo‘llaniladi. Yaponiya hovli bog‘larida banan daraxtini ekish odat tusiga kirgan. Maysa o‘rniga yer yopar o‘simliklar ekiladi. Uncha katta bo‘lmagan zamonaviy shahar bog‘larida daraxtlarga bondaj yordamida turli xil g‘aroyib sun’ iy shakllar berish an’anaviy tusga kirgan. Yaponiya bog‘larida, yuqorida ta’kidlaganimizdek, suv turli shakllarda: ko‘l, havza, sharsharalar ko‘rinishida uchraydi. Biroq, Yaponiyada suvsiz kichik bog‘lar ham mavjud. Yaponiya zamonaviy bog‘-park san’atining shunday muhim an’anaviy milliy ko‘rinishlaridan biri - bu “toshloq bog‘lar” yoki “quruq peyzajli bog‘lar” deb ataladi. Bu yo‘nalish Yaponiyada qadimdan an’ana hisoblanib, hozirga qadar ham davom ettirib kelmoqda [55; 120-123. b].

Bunday bog‘larda toshlar, mayda shag‘al, qum, tosh chiroqlar alomatli elementlardir. “Quruq” bog‘larda shag‘al yoki qum yordamida tabiiy irmoq sun’iy ko‘rinishga keltirilib, u “oqar” suvga taqlid qilinadi, ya’ni aynan o‘xshatiladi.

Toshloq bog‘larning kelib chiqishi yapon dini dzenbuddizmning dunyoviy g‘oyalariga asoslanib, bu bog‘larda toshlar, odatda, buddizm uchligiga taqlid qilinib alohida guruhlarda uchtadan joylashtiriladi. Toshloq bog‘lar kishini dunyoviy tashvishlari va turmush taraddudlaridan holi qilmoq, milliy meditasiyalar uchun mo‘ljallangan. Bunday bog‘lar g‘oyasi oddiy tabiat go‘zalligini his qilish va u bilan uyg‘unlashishdan iboratdir [33; 31-39. b].

Toshlar Yaponiyada nafaqat “toshloq bog‘lar”ning, balki umuman yapon bog‘lari, ibodatxonalar qoshidagi va jamoat bog‘lari, xususiy turarjoy va jamoat binolari tarkibidagi kichik bog‘larning ham eng muhim tarkibiy alomatlaridir. Boshqacha aytadigan bo‘lsak, yapon bog‘larini toshlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Toshloq bog‘lardagi tabiiy toshlar kompozisiyasi bir necha tamoyillarga bo‘ysunadi, ularga ko‘ra ikkita o‘zaro bog‘lanuvchi toshlar sirti chizig‘ining uzunligi bir-biriga teng bo‘lmasligi shart; kompozisiyadagi toshlar sirti chizig‘ining birortasi boshqasiga parallel bo‘lmasligi va ikkita toshning o‘lchami bir-biriga teng bo‘lmasligi kerak [33; 31-39. b]. Yapon bog‘lariga xos elementlarning yana biri kichik daraxtchalardir. To‘shamalar va yo‘laklarning shakllari, materiali va ranglari ham xilma-xil: kvadrat, to‘g‘ri to‘rtburchakli aylana va boshqa shakllarda bo’ladi. Yapon bog‘lari va parklariga mahalliy shart-sharoitlar va udumlarning ta’siri katta. Shuning uchun ham ularning o‘lchamlari, me’moriy-rejaviy yechimlari va funksiyalarida turlicha bo’ladi. Hozirgi

kunda Yaponiyada milliy landshaft parklarini tashkil qilishning tamoyillari ishlab chiqilgan. Ularga ko‘ra ranglar, shakllar, materiallar fakutarasi, masshtabi va hajmiy kompozisiyalar kontrastidan foydalanish bog‘-park san’atida eng samarali yo‘nalish hsoblanadi [33; 31-39. b].

Sharq mamlakatlari bog‘-park san’atiga bugungi kunda ham qiziqish susaygan emas, zero ularda yashiringan sirli falsafiy mushohadalar va tabiatga bo‘lgan munosabatlar kishini e’tiborini o‘ziga jalb qilmasdan qolmaydi [55; 126-127. b].

Ilmiy ishda tarixiy tajribalar sinovdan o‘tgan va zamonaviy landshaft arxitekturasi misollarida e’tirof etilgan beshta asosiy majoziy belgilar asosida qurilgan kichik bog‘larning tipologiyasi taklif etilgan:

"Bog‘-guldasta "(jonli tabiatni taqlid qiluvchi dekorativ kompozision);

"Osilgan bog‘" (sun’iy yengillik, strukturaning fazoviy tuzilishiga qo‘shilishi);

"Uchrashuv joyi" (ijtimoiy muloqotning qulay muhiti),

"Bog‘ - ramz "(mo‘ljal, diqqatga sazovor joy, shahar atrofidagi ramz);

"Shaxsiy bog‘" (muallifning ijodiy tabiatini aks ettiruvchi noyob mualliflik qarori) [45; 50-52. b]. (7-8- ilovalar).

### 2.3. Bog‘larni me’moriy - landshaft loyihalashda qo‘llaniladigan tabiiy va sun’iy vositalar

Dunyoda toshlar va gullardan tuzilgan ilk landshaft kompozisiyalari bundan ko‘p ming yillar oldin paydo bo‘lgan. Qadimgi sivilizasiyalarda bog‘dorchilik va bog‘–park san’atining rivojlanishi bilan bog‘larning tarkibiy elementi sifatida toshloq kompozisiyalar ham rivojlanib borgan.

Tarixda tabiiy toshlardan foydalanilgan birinchi bog‘lar janubiy–sharqiy Osiyoda paydo bo‘ladi. Ushbu mintaqa mamlakatlari xalqlarining falsafiy va diniy tushunchalari insonni hech vaqt tabiatga qarshi qo‘ymagan, aksincha uni e’zozlashga, unga uyg‘unlashishga undagan. Buning ustiga, qoyalar, suv, o‘simliklar, agar ilohiylashtirilmagan bo‘lsa ham, hamisha sig‘inish obyekti bo‘lib kelgan. Xitoy Yaponiya va Koreyaning nafis madaniyati go‘zal ligi jihatidan takrorlanmas bog‘larni yaratganki, ularda tabiiy toshlardan tuzilgan kompozis-iyalarni qo‘llash muhim rol o‘ynaydi. Bu bog‘larning estetikasi landshaftdagi sun’iylik va simmetriyaga qarshidir. Hatto bog‘-lar tabiiy landshaft asosida yaratilmagan hollarda ham ularga jonli tabiat ko‘rinishi va kompozisiyalarni berishga erishilgan [33; 39. b].

Ayniqsa, Uzoq Sharqning rivojlangan mamlakatlari (Xitoy va Yaponiya) bog‘lari bu jihatdan alohida ajralib turadi. Bu mamlakatlardagi

mavjud murakkab va ko‘p qirrali diniy dunyoqarashlar bog‘lar rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan. Yaponiya toshlar va gullardan tuzilgan jonli tabiat kompozisiya larini yaratishning favqulodda yuksak madaniyatiga erishgan. Bu yerda “eski” toshlar va undan ishlanadigan chiroqlar, o‘rindiqlar va shunga o‘xshash bog‘ elementlarini tayyorlash san’atining yuksak san’ati mavjud. Ayniqsa, Rean–dzi monastri parkidagi kichik “Toshlar bog‘i”ning dunyoga dong‘i ketgan. Bu bog‘ning yaratilishi asosida sof yapon kompozisiyasi yotadi. Peyzajli bog‘da joylashgan monastir hujralari oldida o‘lchamlari 12x25 M bo‘lgan maydon mavjud bo‘lib, uning sathi mayda, tekis to‘kilgan shag‘al toshlar bilan yopilgan. Unda bir qancha yirik jozibador yaxlit kompozisiyani tashkil qilgan tabiiy toshlar guruhi joylashtirilgan [33; 39. b].

Yaponiyaning toshloq bog‘larida ramziylik (simvoliga) katta rol o‘ynaydi. Toshlar va gullardan tuzilgan kompozisiyalar hamma vaqt qanday dir teran mazmunga ega bo‘lib, ularning yaratilishi o‘rnatilgan umumiy qoidalarga bo‘ysungan. O‘n besh xil toshdan iborat bog‘ dunyo yaratilishining universal modeli bo‘lib, unda doimiy qarama–qarshilik va yaxlitlik ramzi ayol–in (suv) va erkak–yan (tosh) hisoblanadi. Biroq, bu quruq bog‘: unda suv hayot ramzi bo‘lib, salbiy kuchlar qum va shag‘allar orqali ifodalangan [33; 39. b].

Istisno–bu sukubay, ya’ni yaxlit toshdan qo‘l yuvish uchun suv to‘ldirilgan kosa. Toshloq bog‘ning mumtoz ko‘rinishi–bu yuziga shag‘al to‘kil gan, turli shakldagi ikki–uchta toshlar guruhi joylashgan to‘g‘ri bur chakli kichik maydon-chadir. Bu bog‘ bir kishiga mo‘ljallanib, unda meditasiya uchun hech narsa xalaqit bermasligi kerak. Shu bois bog‘ni tashqi dunyodan ajratib turuvchi baland devorlarning bo‘lishi shartdir. 1772 yilda Chelsi (Angliya)dagi “Fizik Garden” oranjereyasida Shveysariya ning alp tog‘laridan keltirilgan o‘simliklar kolleksiyasi uchun islandiya shag‘allari va Lava bazalt toshlaridan foydalaniladi [33; 39. b].

Toshlar bu bog‘da bezak uchun emas, balki alp o‘simliklari uchun yashash joyi bo‘lib xizmat qilgan. Toshlar ichiga o‘simliklarni joylashtirish va o‘stirish g‘oyasi juda sekin tarqaladi, biroq alpinariyalar ko‘pgina Yevropa mamlakatlarida yaratila boshlandi va toshlarni tabiiy qotgan uyumlarga o‘xshatib joylashtirish usuli yevropaliklarga begona odat bo‘lmay qoladi. (ilova )1860 yillarga kelib bu holat yanada o‘zgaradi va alpinariyalar endi bog‘ va parklardan mustahkam joy ola boshlaydi. 1867 yilda London shahri yonidagi Kyu bog‘larida alpinariy quriladi, 1971 yilda Edinburgda, 1870 yilda esa U. Robinsonning “Angliya bog‘lari uchun alp o‘simliklari” nomli kitobi chop etiladi [33; 39. b].

Alpinariyalarga bo‘lgan qiziqishning o‘sishi XX asrning birinchi uch o‘n yilliklariga to‘g‘ri keladi. O‘sha davrda bu sohadagi yetakchi inson

Rejinald Farred edi. Uning “Mening toshloq bog‘im” nomli kitobi bu sohaning o‘ziga xos “biblisi”ga aylanadi. 1911 yilda U izli shahrida ham alpinariya yarat iladi. Biroq, ikkinchi jahon urushining boshlanishi oldidan alpinar iyalarga bo‘lgan qiziqish o‘chdi va bu hozirgi davrda yana rivojlana boshladi.

1920–1930 yillarda alp o‘simliklarini o‘stirish g‘oyasi xuddi odatiy bog‘larni yaratishdek rivoj topadi. Uning Yevropada tarqalishi va XX asrning ikkinchi yarimida bog‘dorchilik markazlarining paydo bo‘lishi tosh va gullardan tuzilgan landshaft kompozisiyalari rivojlanishining yangi bosqichi sifati tan olindi. O‘simliklar assortimenti ancha kengaydi va bundan tashqari, alohida maxsus kuch va mablag‘ sarflamasdan va alpinariya qurmasdan ham alp o‘simliklarini o‘stirish imkoniyati yaratildi. Bu bosqichdagi qiziqishlarda alpinariyaga toshlardan ishlangan tog‘larda an’anaviy o‘stiriladigan o‘simliklar uchun mo‘ljallangan qurilma tarzida qaralgan [33; 39-49. b].

Landshft arxitekturasining zamonaviy obyektlarida tosh va gullardan shakllangan barcha kompozisiyalar spektri foydalanilmoqda. Landshaft arxitek-turasining keyingi barcha rivojlanish davomida toshloq bog‘lar bog‘–park kompozisiyalarining muhim elementi tarzida qo‘llanilmoqda.

Tarix bizning davrimizgacha dunyoga tanilgan bog‘lar: Павловск, Ломоносов, Алупкинский, Воронсовский parklari, Nikitskiy botanika bog‘idagi tosh va gullar kompozisiyalari tasvirlangan o‘yma naqshlar yasagan.

Toshloq kompozisiyalarni turli xil tarzda qo‘llashning eng taniqli namunasi Umandagi Sofiyevka parki–Ukrainaning milliy boyligi hisoblanadi. Zamonaviy tarixda toshlar va gullardan tuzilgan kompozisiyalarga bo‘lgan qiziqishning yangi to‘lqini XX asr oxirida paydo bo‘ldi va u toshloq bog‘lar va alpinariyalarning yaratilishi va tarqalishi bilan bog‘liqdir [33; 39-49. b].

Natural tabiiy tosh va gullardan tuzilgan landshaft kompozisiyalarini yaratish uchun qurilish materiali, balki manzaraviy materiallar ham hisob lanadi. Undan foydalanishdagi asosiy talab–toshning bir turliligi, mustahkamlik, kimyoviy agressiyalarga chidamliligi yuqori darajada estetik manzaraviy xususiyatliligidir [71; 117-120. b].

Landshaft kompozisiyalarini yaratishda turli–tuman toshlardan foydalaniladi. Ammo amaliy tajribalarning ko‘rsatishicha, bunday vaziyat larda ohaktoshdan, qumtosh, granit, gneyslar, tuf, rakusheniklardan foydalanish eng samarali yo‘ldir. Quyida ana shunday toshlarning har biriga alohida to‘xtab o‘tamiz. Ohaktoshlar navlari (dolomit, travertin, qatlamli ohaktosh, ohaktoshli tuf va shu kabilar). Ohaktoshlarning barcha turlari–rokariylar uchun eng qimmatli qurilish materiali hisoblanadi. Buning sababi

aynan ohaktoshlar yonida tog‘ o‘simliklarining eng go‘zal turlari ko‘proq o‘sadi. Titiluvchan va “yovvoyi” qatlamli ohaktoshlar–universal qurilish materiali hisoblana di. Bo‘lak ko‘rinishidagi bunday toshlar yirik terrasalarni shakllantirish va tabiat qoyalarini imitasiya qilishda foydalaniladi. Tosh taxta (plita) larga bo‘linganlari esa tosh to‘shamalar, devorlarni quruq terish usulida qurish va zinapoyalar uchun beqiyos material bo‘lib xizmat qiladi. Ohaktoshning barcha navlari–iliq suv va havoni o‘tkazuvchan toshlardir. Ularning yonidagi joylarda yoki to‘g‘ridan–to‘g‘ri ularning ustida ham o‘simliklar o‘sa oladi. Tosh ustiga ekiladigan o‘simliklar uchun tuzilishi zich bo‘lmagan ohaktoshli tuflar eng yaxshi materialdir. Ularda hatto ohakni yoqtirmaydigan o‘simliklarni ham ekish mumkin [33; 39-49. b].

**Ohaktoshlar.** oq, tillasimon va kremoviy tuslarda bo‘lishi mumkin. Eng keng ommalashganlari oq va tillasimon tusli ohaktoshlardir. Oq ohaktosh ham havo rangiga kirishi mumkin. kremoviy ohaktoshning kamchiligi uning tezda qatlamlarga bo‘linib ketishi shundaki, u shamol ta’sirida tezda o‘zgara boradi, ya’ni uning o‘tkir uchlari vaqt o‘tishi bilan o‘tmaslanadi. Oq yoki oqchil tusdagi ohaktosh yuzasi shamol ta’sirida eng tez fakturalashadi. Bu esa uning yuzasida mox va boshqa mitti yashil o‘simlik larning o‘sishiga imkon yaratadiki, bu bog‘larning jonli tabiat tusiga kirishiga yordam beradi. Shu boisdan bunday toshlar bog‘larning holilashgan soyali burchaklari yoki alpinariyalarni bezashda keng qo‘llaniladi. Biroq bunday toshlar ustida ohakli tuproqlarni yoqtirmaydigan o‘simliklar yaxshi o‘smaydi [33; 39-49. b].

**Peschanik.** Peschaniklar tarkibida kvari moddasi yetakchilik qiladi. Bu mayda teshikli, tanasidan havo o‘tkazuvchi go‘zal tosh turi bo‘lib, toshloq bog‘ larni yaratishda juda qulay material hisoblanadi. Uning yagona, biroq muhim kamchiligi, ayniqsa, tuproqli peschaniklarning uzoq muddatga chidam sizligidir. Eng yaroqlisi yuqori baholanuvchisi tarkibida ohaktosh bo‘lgan peschanikadir, ular nafaqat mustahkam, balki o‘simliklarning o‘sishi uchun ham qulaydir.

Peschanik turli–tuman tuslarga ega va ko‘proq qoramtir, qizil, kremova kul rang, qum ranglarida bo‘lishi mumkin. Peschanik o‘zining tuzilishiga ko‘ra, yirik g‘ovakchalariga ega bo‘lib, ular bo‘sh aylana shakllarida bo‘ladi. Uning o‘tkir uchlari shamol ta’sirida uzoq vaqt davomida ham sekin silliqlanadi.

Peschanik tuslaridan amaliyotda keng ko‘p tarqalgani–bu qum yoki qizg‘ich tuslardagilardir. Bular nisbatan silliq tosh bo‘lib, odatda yirik tuzilishga ega. Bunday peschaniklardan “quruq” devorlarni yaratishda eng yaxshi foydalaniladi. Peschanik bo‘sh va g‘ovakli bo‘lgani uchun uni alp toshloqlarini yaratishda ham keng foydalaniladi. Chunki o‘simliklar bo‘sh tosh g‘ovaklarida ildizlanib o‘sish imkoniga egadir. Peschanik toshlar yuzi

bir necha yil o‘tib fakturalanadi va yanada chiroyli ko‘rinish beradi. Peschanik yengil kesiladi, qirqiladi va shu boisdan ularni yo‘lakchalar, maydonchalarga oson yotqizish mumkin. Ular bilan imoratlarning poydevorini pardozlash ham mumkinki, bunda ular yo‘lak va maydonchalar bilan qo‘shilib yaxshi stildagi kompozsiya hosil qilishi mumkin. Yengil tarashlanadigan peschanikdan foydalanib yillik o‘simliklar uchun maysa va xvoylar fonida chiroyli ko‘rinadigan alohida “vazon”lar yoki bog‘ning boshqa kichik shakllarini yaratish mumkin [33; 39-49. b].

**Granitlar va gneyslar–**juda chiroyli ko‘rinishli, ammo og‘ir va sovuq tusdagi toshlardir. Ular yonidagi tuproq ushbu toshlar tufayli tezda sho‘rlanishi mumkin. Bunday tosh navlarining to‘qmoqlangan bo‘laklari qurilish uchun qo‘llansada, juda sekin “qariydi”.

**Slanes (gneys)** – chiroyli qoramtir–yashil yoki qizg‘ich binafsha tusdagi tosh. Uni satellit sifatida xvoy o‘simliklari bog‘i yoki yapon bog‘ida qo‘llash juda yaxshi samara beradi. Slanesning turli–tuman tus (rang)lari mavjud: yashil, qoramtir, qizg‘ich–binafsha va ularning qo‘shilmasidan hosil bo‘lgan ranglar. Slanesning o‘tkir uchlari vaqt o‘tishi bilan silliqlanib ketadi.

Landshaft kompozisiyasining shakllanishida ko‘proq hollarda granitdan foydalanishadiku, u juda qattiq toshdir. Ancha mustahkamlikka va yetarlicha mayda g‘ovaklarga ega. Shu sababdan granit sekin “qariydi” va o‘zining tashqi jozibador ko‘rinishini uzoq vaqt saqlaydi. U tekis barxat maysazorlarining go‘zalligini bo‘rttirib ko‘rsatishda ham foydalanilishi

mumkin. Mayda tashlandiq granit siniqlari esa tirgak devorlarni yaratishda juda qo‘l keladi. Bog‘ yo‘laklari va parter o‘simliklarining ajratilgan fragmentlarini bezatishda turlicha fraksiya va rangdagi granit “kroshka”lari (donachalari va qumlari)ni qo‘llash samara beradi. Ular turlicha ranglar va tuslarga bo‘ladi. Agar sizning hovlingizda parter yaratishning imkoni bo‘lsa, granit kroshkalarisiz ish qila olmaysiz. Versal va petergof granit kroshkalari to‘kilgan parklarining guldor parterlari va istalgan yaxshiroq muntazam parklardagi parterlar bunga misoldir. Granit kroshkalari bir yilliklardan yaratilgan miksborderlar bilan ham, tirgak to‘siqlardan ishlangan yashil lentalar bilan ham, maysazorlarga ekilgan xvoy o‘simliklari bilan ham juda yaxshi va uyg‘un bog‘lanadi [33; 39-49. b].

Biroq, bunday ishlar natijasi oxir oqibatda landshaft dizaynerining fantaziyasi bilan belgilanadi. Agar joylarda parter yaratish iloji bo‘lmasa, granit kroshkasi bilan bog‘ yoki hovli yo‘lakchalarini yopish, tosh va lo‘nlarini kroshka yoki Peschanik bilan uyg‘unlashtirish orqali ham yaxshi natijalarga erishish mumkin.

**Granit.** Yirik graviyni mayda shebiga o‘xshatgan holda foydalanishadi, shuningdek “kichik rokariyalar”li vazonlarni drenirovka

qilishda ham qo‘llaniladi. Graviylar ichida eng yaxshisi granit graviysi hisoblanadi.

Dolomitli yoki boshqa ohak aralashgan yirik va o‘rta funksiyali graviy tuproqda o‘simliklar uchun chuqurchalar yaratishda eng ma’qul materialdir. Tuproq achishining oldini olish maqsadida ohaklangan graviyni qo‘llash mumkin [33; 39-49. b].

**Qum.** Landshaft kompozisiyalarini yaratishda qumning o‘rni kattadir. Yirik g‘ovakli qum tarkibida tuzning miqdori oz bo‘lgani sababli undan keng foyda-laniladi. Aynan shu boisdan ham ayrim tumanlarda tog‘ qumidan ko‘ra, daryo qumini ko‘p qo‘llashadi. Toza qum–universal inert substrakt bo‘lsada, undan asosan tuproqni yumshatish va drenajlash uchun foydalaniladi. Toza qum o‘simlik tuxumini o‘stirishning boshlang‘ich bosqichida tuxumlarni tuproqqa aralashtirish va ildiz orttirishda keng qo‘llaniladi [33; 39-49. b].

**Torf.** Verxovoy torf–achigan tuproqqa muhtoj bo‘lgan o‘simliklar uchun yer aralashmasiga qo‘shiladigan eng yaxshi to‘yimli moddadir.

Ushbu natural tosh materiallarining aksariyati turlicha holatlarda o‘ta qiziqarli va favqulodda original landshaft kompozisiyalarini yaratishni ta’minlaydi. Bunday kompozisiyalar poydevorlar yuzasida ham va hajmiy–fazoviy obyekt qurilishida ham birday qo‘llaniladi. Sharqona bog‘ning mumtoz atributi tarzida graviy, qum va shag‘aldan ishlangan tekis yuzali kompozisiyalar hisoblanadiki, ularning yuzasiga grabellar yordamida turlicha grafik naqshlar dengiz yoki daryo oqimining ramzini ifodalaydi. To‘lqinsimon chiziqlarga teskari tarzda graviyga chiziladigan konsentrik naqshlar, masalan, kichikroq tosh atrofidagi naqshlar insonning muhim o‘rni va hayotiy kuchining ramzi hisoblanadi [33; 39-49. b].

Bunday naqshlar va chiziqlar og‘irroq maxsus yog‘och grabel yordamida amalga oshiriladi. Graviy yuziga yangi chizilgan naqsh harakatsiz peyzajga jon kiritishga yordam beruvchi energiya–quvvatni tasvirlaydi. Faqat graviy ustiga ishlangan rasm intensivligi bilan unga yaqin turadigan toshlar kompozisiyasining dinamikligi orasidagi ideal balansni topish juda muhimdir. Ko‘p hollarda graviydagi naqsh tomoshabin nigohiga nisbatan gorizontal tarzda takrorlanuvchi bir–biriga yaqin joylashgan chiziqlar ko‘rinishida ishlanadi. Bu o‘z navbatida hovli bog‘lari uchun o‘ta muhim bo‘lgan muhit kengligini oshiradi. Graviyda joylashgan toshlar yoki boshqa elementlar atrofiga sof doira shaklidagi chiziq ishlanadi [33; 39-49. b].

Odatda bog‘lar egallagan muhitning kengligi uzunligidan katta bo‘ladi. Bunday bog‘larda o‘simliklar va toshlardan ishlangan kompozisiyalar guruhlar tarzda joylashtiriladi, graviy yuzasiga ishlangan naqshlar esa ularni yagona bir yaxlit kompozisiyaga birlashtirish uchun xizmat qiladi. Bunday shakldagi landshaft kompozisiyalari odatda chapdan

o‘nga qarab buralib boradigan jozibador polotno–peyzaj tarzida “o‘qiladi”. Landshaft dizayni obyektlarida hozirgi vaqtda yapon bog‘ining “toshbaqalar” va “turnalar” nomli burchaklar tashkillashtirilmoqda [33; 39-49. b].

Ichki hovliga qaragan oynali eshiklar yaratilishi bilan uy ichidan ko‘rinadigan landshaft peyzajlarini yaratish imkoniyati tug‘ilmoqda. Eshik lar ana shunday peyzaj kompozisiyalari uchun “ramka” vazifasini bajar moqda. Orolchalar uchun mos toshlarni tanlash–alohida muhim vazifadir, chunki har bir tosh muayyan bir shaklga ega bo‘lishi kerak. Asosiy toshlar–bu turna qanotlari va bo‘yni hamda toshbaqa tosh kosasidir. Bu masalada tog‘ jinslari muhim rol o‘ynamasada, mazkur orolchalarni yaratish uchun mos toshlarni izlab topishga bir muncha vaqt sarflasa bo‘ladi. Mahalliy shakllangan material ancha arzon turadi, bunda toshlarni yagona manbadan olish shart emas. Muhimi ana shu vazifaga mos shakllardagi toshlarni topishdir [33; 39-49. b].

Orolchalarni uchastkaga qanday joylashtirishni o‘ylab ko‘rish kerak. Uy ichidan eshik orqali tashqariga qarash va undan bog‘ning eshik ramkasi bilan chegaralangan ko‘rinish burchagini aniqlash zarur. Unutmaslik lozimki, har ikkala toshloq orolchalar ham bog‘ning tekis joyida joylashishi shart. Bundan tashqari kompozisiya barcha ko‘rinadigan uchastkani qamrab olol masada, u markazda joylashishi lozim. Yapon bog‘larida odat bo‘lganidek “Turnalar oroli” ni chapda, “Toshbaqalar oroli”ni esa o‘ng tomonda joylash tirish mumkin. Biroq, ularning joylarini almashtirish mumkin. “Turnalar oroli” “Toshbaqalar oroli”ga ko‘ra bir muncha uzunroqdir, ularni orasida bo‘sh maydon qoldirish orqali birlashtirish mumkin [33; 39-49. b].

Toshlardan ishlangan kompozisiyalar ayniqsa suv qurilmalari va geoplastik elementlar bilan aralashganda yanada samarali chiqadi. Turli xil suv qurilmalarini qo‘llash landshaft kompozisiyasining estetik ta’sirchan ligini oshiradi, mikroiqlimga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, uning ekologik parametrlarini yaxshilaydi. Suv qurilmalari kompozisiyalarini yaratishda suv ham statik (tinch) holatda, ham dinamik (harakatchan) holatda foyda laniladi [71; 110-115. b].

Suvning dinamik holatidan foydalanib turli xil landshaft kompozisiyalari yaratiladiki, ularga buloqlar, irmoqchalar, shalola va shar-sharalar, favvoralar bilan birgalikda yaratiladi. Suv statik holatidan foydalanib esa dekorativ basseynlar, hovuzlar, prudlar yaratiladi. Bunday kompozisiyalarning geoplastika elementlari (tirgak devorlar, zinapoyalar, do‘ngliklar va toshloq gorkalar) bilan birgalikda yaratilishi ularni yanada go‘zallashtiradi. Murakkab landshaft kompozisiyalari, qoidaga ko‘ra, o‘simliklar guruhlari, suv qurilmalari, geoplastika elementlari, kichik me’moriy shakllar va dekorativ haykallar bilan birga me’moriy muta-

nosiblikda yaratiladi. Kichikroq hovuz qoshidagi dekorativ haykal, o‘simliklar guruhi, toshlar bilan birgalikda yaratilgan landshaft kompo zisiyasi favqulodda samaralidir [33; 39-49. b].

Haykallarni o‘rnatishga eng qulay joy–bu daraxt va butalar guruhlari bilan chegaralangan ochiq maysazordir. ko‘kalamlar orasiga esa odatda dam olish, hayvonlar va qushlar mavzusiga bag‘ishlangan dekorativ haykallar o‘rnatiladi. Bu tomoshabin nigohini mazmunli fikrlashga undaydi va unda ijobiy hissiyot uyg‘otadi. Bunda daraxt va butalarning barcha me’moriy–badiiy va landshaft xususiyatlarini ham e’tiborga olish zarur. Bitta haykalning o‘zi majnuntol fonida yoki yosh archa daraxti fonida turlicha farqli qabul qilinadi. Haykallarning kechqurungi paytdagi boshqa landshaft dizayni vositalari bilan birgalikdagi ko‘rinishiga ham e’tibor berish zarur [33; 39-49. b].

Kichik me’moriy shakllarga suhbatgohlar, pergolalar, soyali yopmalar, trelyajlar, ishkom, kichik ko‘shklar va boshqalar kiradi. Ularni yaratishdagi asosiy talab–bu ularning loyihalanayotgan muhitning barcha elementlari bilan masshtabliligi, badiiy uyg‘unligi va stil yaxlitligiga erishish dir.

**Nurli–rangli landshaft kompozisiyalari.** Nurli–rangli landshaft kompo-zisiyalari landshaft dizayni vositalari–o‘simliklar, geoplastika, toshlar, suv qurilmalari, kichik me’moriy shakllarni kechqurungi (tungi) yorug‘lantirishning turli usullarini hisoblanadi. Kichik bog‘lar kompozisiyalarini tungi yoritish maqsadida nur–rang dizaynining texnik imkoniyatlari va yoritish usullaridan foydalaniladi, texnik, utilitar va me’moriy–badiiy vazifalar uyg‘unlikda yechiladi [33; 39-49. b].

Landshaft yorug‘lantirishni quyidagi maqsadlarda tashkillashtiriladi:

- muhitda nurli–rangli komfort–qulaylik yaratish;
- diqqat va e’tiborni kompozisiyaning muayyan elementlariga qaratish va ularning yorqin badiiy obrazini bo‘rttirib ko‘rsatish;
- insonga ijobiy hissiy ta’sir ko‘rsatish;
- landshaft obyektlarida o‘tkaziladigan bayramona tadbirlar va tantanalarni nur yordamida bezash.

Landshaft kompozisiyalarini yoritish vositalari sifatida asosan himoya ekraniga ega bo‘lmagan sferik yoki ellips simon plafonli torsher chiroqlardan foydalanilgan. Biroq, hozirda ulardan foydalanish tavsiya etilmaydi, chunki ular asosan daraxtlar shox–shabbalarini yoritib, yer yuzini yoritmaydi [33; 39-49. b].

O‘zidan asosan gorizontal yo‘nalishda nur tarqatuvchi chiroqlar nisbatan yaxshi va chiroyliroqdir. Ular yordamida soddaroq hamda murakkab landshaft kompozisiyalarini yoritish samara beradi. Daraxt va butalarning yetarlicha yaxshi yorug‘lantirilishi kech qolgan yo‘lovchilar va tunda sayr

qilganlarda xavfsizlik tuyg‘usini shakllantiradi va o‘simliklarning me’moriy–badiiy va landshaft sifatini to‘laroq ko‘rsatib berish imkonini yaratadi. Bunday holatda hatto “yorug‘lik nuri”ning ham o‘ta kam miqdorda bo‘lishi kuzatilgan [33; 39-49. b].

Manzaraviy yorug‘lantirishni tashkil qilish maqsadida o‘ta yorqin svetodiodlarga ega bo‘lgan chiroqlarni qo‘llash keng kuchga kirmoqda. Kichik landshaft kompozisiyalarini yortish maqsadida sveto diodli projektorlar, svetodiodli lineykalarni qo‘llash, hamda klumbalar, tekis parterlar, rabatkalar, yo‘laklar, suv havzalari va boshqa landshaft elementlarini nur oqimi bilan to‘la yopishga mo‘ljallangan korpusda joylashtirilgan turli sondagi svetodiodli priborlarni qo‘llash mumkin. Landshaft kompozisiyalarining yoritilishini bo‘rttirish, ya’ni ularga alohida urg‘u berish maqsadida obyektni yorug‘lik nuri bilan to‘la qamrab “sug‘oruvchi” projektorlar qo‘llaniladi. Ular yorug‘lik nurini samarali tarzda to‘plovchi va obyektga aynan shu maqsadda “sug‘oruvchang” nur tarqatuvchi optik uskunalar bilan ta’minlanadi [33; 39-49. b].

Manzaraviy yoritish usullarini qo‘llash orqali landshaft kompozisiyalariga turli–tuman nur berish yo‘llari amalga oshiriladi. Manzaraviy yoritish yorug‘lik nurini kiritish orqali kompozisiyaviy yechimlarning “tunga modernizasiya”siga asoslangan. **Dekorativ yoritishni yaratish** maqsadida hozirgi vaqtda turli firmalar faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, ular sizga zarur bo‘lgan tungi chiroqlarning tiplarini, yoritish usullarini tanlash, ularni joyiga o‘rnatish, ayniqsa o‘simliklar guruhlarini tungi yoritish bo‘yicha kerakli maslahatlarni berishi mumkin [64; 80-84. b].

**O‘simliklar guruhlarini yoritish.** tig‘is tanali daraxtlarni chiroyli ko‘rsatish maqsadida ularni bir yoki ikki tomondan yorug‘lik nuri bilan “yopish” lozim. Ular ikki tomondan yoritilsa, turli tonlardagi ranglar yordamida yoritish yanada samarali chiqadi. Tanasi siyrak bo‘lgan daraxtlarni yoritishda nur pastdan yuborilib, butalar esa ichidan nurlantiriladiki, bu ularga yetarlicha manzaraviy ko‘rinish beradi.

Xromatik tonli yorug‘lik nurlarini rangi turlicha bo‘lgan daraxtlar aralash ekilganda qo‘llasa bo‘ladi va u landshaft kompozisiyalarining mavsumiy rangdorligini oshirishga yordam beradi. Masalan, yozgi bargga sof izumrud–yashil tonni berish maqsadida rtutli yoki yashil metallogalogen chiroqli uskunalar qo‘llaniladi, kuzgi palitralarni ko‘rsatish uchun esa natriyeviy yoki sariq metallogalogen lampalarni qo‘llash mumkin. Qishgi peyzajda qor yopgan ignabargli daraxtlarining shoxchalarini “sovuq” tondagi yorug‘lik nurlari bilan yoritish ma’quldir, ularning tanasi esa aksincha– “issiq” tonli nurlar bilan yoritilishi mumkin. Ignabargli guruhlarning qoramtir fonida qayin daraxtining oqishliligini bo‘rttirish uchun uning tanasi

yer sathidan yorug‘lantirilsa yaxshi ko‘rinadi, archalar silueti esa oppoq qor va nur bilan yopilgan maysazor fonida chiroyli ko‘rinadi [33; 39-49. b].

Favvoralar tizginlarini yoritish bir yoki ko‘p rangli bo‘lishi mumkin. Biroq haddan ziyod ranglar aralashmasi tizginlarining badiiy ko‘rinishini darajasi oshirmaydi. Suv o‘z holicha shunday manzaraliki, uni oq yoki yengil moviy rangda yoritish uni yanada chiroyli ko‘rsatadi. Yorug‘lik vositalarining yoritish paytida kuchli favvora tizginlarining shakli, suv harakatining holati va shunga o‘xshash omillar bilan belgilanadi.

Favvorani yoritish usulini tanlash badiiy–me’moriy vazifalar, tizginlar kompozisiyasi, favvoraning plastik yechimi hamda atrof muhit xarakteri bilan aniqlash mumkin. Landshaft obyekti yalpi hududini yoritish ssenariyasi puxta o‘ylanishi zarur va eng qiziq landshaft kompozisiyalarini yoritish dastlabki modellashtirish usullari bilan aniqlanishi mumkin. Buni ko‘tarib yuruvchi qisqa muddatga yonuvchi fonarlar yordamida amalga oshiriladi. Sinab ko‘rilgan g‘oyalar variantlarini tahlil qilib eng qiziqarlisini tanlash zarur va shundan so‘ng stasionar harakatlanuvchi yoritish masalasini yechish mumkin [33; 39-49. b].

Yoritgichlarni tanlashning yakuniy bosqichini loyihalanayotgan hududi uchun qabul qilingan tungi yoritish ssenariyasi asosida amalga oshiriladi. Yer yuzini va past bo‘yli butalarni yoritish uchun nuri atrofga taraluvchi chiroqlar qo‘llash mumkin. Ularning alleya va xiyobonlar bo‘ylab joylashtirilgani ma’qul, chunki bunda predmetlarni yetarlicha ko‘rishni ta’minlanadi. Nur yo‘nalishining boshqaruvchi chiroqlarlarning xususiyati shundaki, landshaft kompozitsiyalari elementlarini chiroqlarning ko‘zni qamashtiruvchi nurisiz ham yaxshi ko‘rishini ta’minlaydi. Predmetni faqat bir tomondan ko‘rish kerak bo‘lganda tomonlarning biridan yuqoriga yo‘naltirib yoritish usuli qo‘llaniladi va chiroqlar yer yuzidan biroz yuqoriga, predmet oldiga o‘rnatish mumkin. Nurlar to‘g‘ri predmetga yo‘naltiriladi. Bunday yoritish usulini relyef kompozitsiyalarini yoritishda qo‘llash yaxshi samara beradi [33; 39-49. b].

Ustunlarga o‘rnatilgan yoritgichlarning yorug‘lik nurlari atrofga birday taraladi. Shahar sayrgohlari, xiyobonlarini yoritishda balandligi 4–5 m ustunlar qo‘llaniladi. Ko‘pgina skver va parklarning xiyobonlarini yoritishda balandligi–2,5–5 m bo‘lgan ustunlarini qo‘llash mumkin. Har bir alohida holat uchun ustun balandligi chiroqlar konstruksiyasining quvvati yorug‘lik kichik bog‘ining yuzi, zaruriy yoritish darajasi kabi ko‘rsatgichlardan kelib chiqqan holda alohida hisoblanadi [64; 112-118. b]. (9-10- ilovalar).

## 2.4. Kichik bog‘larni loyihalashning zamonaviy yo‘nalishlari va tipologiyasi

Yevropa mamlakatlarida zamonaviy kichik bog‘larning xilma-xil turlari keng tarqalgan. Umuman olganda, Yevropada kichik bog‘lar deb maxsus maqsad-larga mo‘ljallangan va muayyan mavzuli manzaraviy funksiyalarni bajaradigan bog‘lar tushuniladi. Kichik bog‘larning zamonaviy tipologiyasini

G.V. Firsova va N.V. Kuvshinovlar kuyidagi guruhlarga bo‘ladi [26]:

1. Tabiiy manzaraviy bog‘lar, masalan bir xil oilaga mansub gullardan tuzilgan bog‘lar, maysazor yassi bog‘lar, suv va suyuqlikni sevuvchi o‘simliklar, moxlar, uzluksiz gullaydigan bog‘lar;
2. “Quruq bog‘lar”, qum, shag‘al, tabiiy toshlardan tashkil topgan va tuproq namsizligiga vaqtincha chidamli bo‘lgan o‘simliklar, masalan, sedumlar, molochalar, tolstyankalar, kaktus kabilar ekiladigan kichik bog‘lar;
3. Haykallardan tuzilgan kichik bog‘lar;
4. Toshloq bog‘lar (rokariylar, alpinariylar, toshloq qirlar);
5. Tomlar ustiga ishlangan kichik bog‘lar;
6. Poliz bog‘lar.

Endi ushbu bog‘larga aloxida to‘xtab o‘tamiz.

**Toshloq bog‘lar-** bog‘ manzarasida tabiiy toshlar va ulardan tuzilgan turli xil kompozisiyalar yetakchi o‘rinni egallaydigan dam olishga mo‘ljallangan kichik bog‘lardir [26].

Hozirgi davrda toshloq bog‘lar butun dunyoga ma’lum va mashhur bo‘lganidan ularning turli xil va ko‘rinishlari shakllanib bormoqda. Ular qatorida asosan Alp tog‘larining o‘simliklari ekiladigan “Alpiyskaya lujayka”lar , pog‘onali, tayanch devorli uchastkalarga ishlanadigan toshloq badiiy bog‘lar ”Arxitekturaviy rokariy”lar, tog‘ vohasi manzarasini eslatadigan “Tog‘ vohasi” bog‘lari, “Tog‘ irmog‘i” bog‘i, “Tog‘ qiri” bog‘i, “Toshloq gryada”lar, “Toshloq xona bog‘i”, “Manzarali rokariy”lar, “Toshloq Miksborderlar”, “Kichik rokariy”lar, “Qoya bog‘lar” va boshqa yangi xildagi toshloq bog‘lar vujudga kelmoqda [26].

Toshloq bog‘lar katta jamoat binolarining ichki hovlilarida, dam olish maskanlarining hovlilari, parklar, bog‘larning alohida uchastkalarida qo‘llanib kelmoqda.

**Parterli bog‘-** tekis maysali maydonlar, yassi sathli gulzorlar va suv havzalari yetakchi o‘rinni egallagan muntazam rejali bog‘. Tekis maysalar, sathi tekis gulzorlar va hovuzlar yetakchi o‘ringa ega bo‘lgan muntazam rejaviy kompozisiyali bog‘. Bog‘da qo‘llanilgan daraxtlar va butalar, odatda,

bog‘ parterlari atrofi va gulzorlar chetlariga ekilib, ularga kuzash uslubida kub, shar, konus kabi muntazam sun’iy geometrik shakllar beriladi [26].

Parter bog‘larning o‘ziga xos ko‘rinishlaridan biri, bu parter bog‘-labirint bo‘lib, u Fransiya va Italiyaning XVI asr bog‘larini eslatadi. Parter bog‘ g‘aroyib shaklga ega gulzor klumbalar va yer sathidan bir oz ko‘tarilgan ajoyib naqshlari va manzaraviy elementlarining ko‘pligi bilan ajralib turadi. Parter bog‘lar, odatda, bog‘ning ikkinchi qavat derazasidan, balkon yoki erkerdan turib bog‘ni tomosha qilishga, undan zavqlanishga mo‘ljallangan. Bog‘-labirintlar ayrim hollarda qirqilgan shamshod (samshid)dan ishlanib, bo‘sh qolgan tekis joylar ko‘p yillik rangdor o‘tli maysalar yoki tarixiy nuqtai nazardan yana ham to‘g‘rirog‘i to‘kilgan rangli qum, ushatilgan mayda g‘isht bo‘laklari yoki shag‘al bilan to‘ldiriladi [26].

**Suv bog‘i -** suv havzalari (ko‘l va hovuzlar)ga to‘g‘ri tanlangan va ekilgan suv o‘simliklaridan iborat bog‘ bo‘lib, u odatda relyefning pastqam, soyali va sernamli joylariga ishlanadi. Bunday bog‘larni tashkillashtirishda suv havzasining gidroizolyasiyasi o‘ta sifatli darajada ishlangan, suvda o‘suvchi o‘simliklar turlari to‘g‘ri tanlangan, suvning muntazam almashib turishi ta’minlangan, suv yuzini sun’iy yorug‘lantirish masalalari hal qilingan bo‘lishi shart. Bunday suv havzasining juda chuqur bo‘lmasligi katta ahamiyatga ega[26].

**Qo‘riq bog‘ (sad-zapovednik)-** bunday bog‘da tabiatan erkin o‘sgan o‘simliklar kompozisiyasi yetakchi ahamiyatga ega bo‘lib,landshaft arxitekturasining aralashuvi deyarli sezilmasligi zarur, asosan tabiiy landshaft elementlari muhim ahamiyatga ega. Angliyada bunday bog‘lar “sad-svyatilishe” (“muqaddas bog‘”), “sad ubejishe” (“qo‘riq bog‘i”) kabi nomlar bilan mavjud.

**Moxlar bog‘i-** yapon kichik bog‘larining biri bo‘lib, bog‘ manzarasi to‘liq moxlar va toshlarning turli-tuman xillari bilan shaklantirilgan. Bog‘da yorqin ranglar yo‘q, asosan namlik darajasiga qarab o‘zgarib turuvchi yashil, tillo, ko‘kimtir ranglar mavjud. O‘simliklar tuproqni go‘yo gilam tarzida yopishi kerak. Yashil mog‘or uchun yupqagina yer qatlami yetarlidir. Shag‘al yoki tosh to‘shalgan yo‘laklar ustidagi yupqa yerda hosil bo‘lgan yashil mog‘orlar ko‘rinishi kishini quvontiradi. Bunday bog‘larni issiq iqlimli va namsiz o‘lkalarda yaratish mushkul ish [26].

**Tom bog‘lari -** ko‘pgina Yevropa mamlakatlari, jumladan Amerika va Yaponiyada yirik jamoat binolari va ayrim turarjoy binolari tomlarida bog‘ loyihalovchi va bunyod etuvchi arxitektorlar vazifasiga kirib bormoqda. Bunday bog‘lar nafaqat manzaraviy zavqlanish uchun, balki rekreasion, ya’ni dam olish maqsadida ham tashkillashtirilmoqda. Ular havoni changlardan, zararli gazlardan, quyosh nurlaridan, tom ustini esa quyosh nuridan saqlab, yuqori qavatlarda havo haroratini susaytirishga ham yordam beradi. Tomlar

ustida bog‘lar tashkil qilishda chidamli va mustahkam bo‘lgan gidro va termoximoyalanishni ta’minlash zarur. Quyidagi rasmda tom ustidagi bog‘ning qirqimi berilgan bo‘lib, unda ko‘rsatilgan. Tomda o‘simliklarni himoyalash uchun bog‘ atrofidan yengil devor ishlanadi. O‘simliklarni o‘stirish uchun esa substrat tarzida “gidroponik” uslubini qo‘llash mumkin [29].

Tom bog‘larini badiiylashtirish maqsadida chuqur bo‘lmagan dekorativ basseynlar, atrofga suv sachratuvchi kichik favvoralar qo‘llanilishi mumkin. Tom bog‘larini ko‘kalamzorlashtirishda maysalar, yer yopuvchi o‘simliklardan ishlangan gulzorlar hamda tik ko‘kalamzorlashtirishda qo‘llunuvchi ayrim o‘simliklar va kichik daraxt turlaridan foydalanish mumkin. Eng oson yo‘li tom ustiga konteynerlarga o‘rnatilgan turli egzotik o‘simliklarni o‘rnatishdir.

**Kayfiyat bog‘lari -** Xitoy kichik bog‘larining bir turi bo‘lib, unda kishi sayr qilsa qalbi ochiladi, yayraydi, fikrlash va o‘ylash uchun kuch to‘playdi. Bunday bog‘lar Xitoyda “adabiyot bog‘lari” deb ham ataladi, chunki unda kishi yolg‘iz qolib, o‘yga cho‘mib nimalarnidir hayol qiladi, ularni yozadi, kayfiyati ko‘tariladi [26].

**Uzluksiz gullovchi bog‘ -** buning uchun alohida joy ajratilib, unda gul navlari shunday tanlanadi va ekiladiki, toki ular yil davomida, ya’ni erta bahordan to kech kuzgacha birin-ketin navbat bilan gullab tursin.

Buning uchun bir yillik va ko‘p yillik o‘tli o‘simliklar, butalar va daraxtlar tanlanadi. Kuzda gullovchi o‘simliklarni, odatda, bir-biriga tig‘is guruh kompozisiyasida ekiladiki, ularning ranli, odatda oq, oqish-ko‘kimtir yoki limon rangiga kirib sezilib tursin [26].

**Poliz bog‘lar -** qishloq bog‘lari yoki “kantri” stilidagi bog‘larning bir turi bo‘lib, odatda, muntazam rejada to‘g‘ri geometrik shakldagi gryadka-klumbalar bilan loyixalanadi. Poliz bog‘ining asosiy vazifasi foydali moddiy maqsadga qaratilgani uchun undagi o‘simliklarga ishlov berish, begona o‘tlarni yo‘qotish, o‘zgartirib turish, hosilini yig‘ib olish uchun imkoniyat yaratish kerak. Shu sababdan bog‘ klumbalarining eni bir metrga yaqin bo‘lishi zarur. Klumbalarning chegaralariga kuzalgan pastqam butalar, masalan bordyurbop o‘simliklardan hoshiya ishlangani ma’qul. Quyidagi rasmlarda A. Kurus ishlagan kichik poliz-bog‘larning o‘ziga xos loyihalari keltirilgan [26].

Ularda klumbalar yer satxidan keskin ko‘tarilgan bo‘lgani uchun ularga yaqin kelib ishlov berish va ularga qarashda hatto bolalar ham qatnashishi mumkin. Bunday klumbalarning balandligi bir metrgacha bo‘lib, eni 120 sm.ni tashkil qiladi. Ulardagi tuproq to‘kilib ketmasligi uchun klumba devorlarini antiseptik taxtalar bilan mahkamlab chiqiladi. Bunday

klumbalarning past qismiga yoqoch qoldiqlari, dernina, chirigan barglar, soloma, kompost va eng ustki qismiga madaniyatlashgan tuproq qatlami yotqiziladi [62].

Poliz bog‘ga ekiladigan o‘simliklar turi faqat poliz va ko‘kat ekinlar (masalan, salatga mos ko‘katlar, karam, ukroplar) bilan cheklinib qolmasdan manzaraviy o‘simliklardan mavritan malvasi, sinniya izyashnaya, kosmos dvajdaperistiy, barxatsi pryamostoyachiyelarning ham ekilishi yaxshi natijalar beradi.

Manzaraviy qovoqlar, qizil, sariq, zarg‘aldoq rangli tomat o‘simliklar, bulg‘ori qalampiri kabi o‘simliklar ham poliz bog‘da ekilishi mumkin.

Poliz bog‘ning modullashgan ko‘rinishi ham mavjudki, bunda barcha klumba va qatorlar muntazam geometrik shakllarda tartib bilan “chorbog‘” uslubida kichik ko‘rinishda ishlanadi. Gryadkalar oraliqlari to‘shamali yoki shag‘alli yo‘laklar bilan ajratiladi. Ana shunday ajoyib poliz-bog‘ning o‘ziga xos ko‘rinishi Fransiyada Villandi mavzesida ishlangan bo‘lib, unda har yili sentabr oyida “poliz kuni” nomli shou o‘tkazilib turiladi. Ushbu shouda 250 ming gacha turli xil qishloq xo‘jalik ekinlari ekiladi [62].

Xullas, poliz bog‘ bu foydali, ya’ni xosilli bog‘ning dam olish bog‘i bilan sintezlashgan ko‘rinishidir. Unda gul chamanlar, parterlar o‘rnini poliz ekinlari ekilgan gryadkalar, klumbalar egallaydi. Biroq, bunday bog‘da sayr qilib dam olish, o‘tirib suhbatlashish, tabiatni tomosha qilish uchun ham yetarlicha sharoit yaratilishi mumkin. Shuning uchun ham bunday bog‘ni biz qishloqlardagi hovlili uylarda, jamoat binolarining hovlilarida qo‘llash uchun tavsiya qilamiz. Bunday bog‘ bizning o‘zbekona Sharq udumlarimizga tamoman mos keladi deb o‘ylayman.

**Xaykallar bog‘i -** bunday bog‘da gulzorlar, daraxtlar, butalar guruhlari yoki parterlardan ko‘ra ko‘proq e’tiborni haykallarga beriladi. Ayrim hollarda o‘simliklar haykallar uchun fon vazifasini bajaradi xolos. Masalan, Parijda Sena daryosi sohillarida ishlangan “Haykallar bog‘i” yoki Stokgolmdagi “zamonaviy haykallar bog‘i”da ana shunday manzaralarni ko‘rish mumkin.

Haykal bog‘larni loyixalashdagi eng qiyin muammo bu ko‘rinish nuqtalarini tanlashdir. Italiyadagi Bomarso mavzeida ishlangan haykallar bog‘ida “monstrlar bog‘i” deb nomlangan haykallar qo‘yilgan. Ushbu bog‘ aslida odatiy manzarali yashil bog‘ bo‘lib, unda tabiat bilan uyg‘un va mutanosib tarzda ko‘p sonli turli xil haykallar joylashtirilgan [26].

Bino va inshootlar interyerlarida shakllantiriladigan sun’iy kichik bog‘lar ko‘lami ham keyingi o‘ttiz yil ichida ancha kengaytirildi. 1967 yili arxitektorlar K. Roch va D. Dinkelu AQShdagi Ford fondining yirik idorasi binosining ichida ulkan qishki bog‘ tashkil etadi. Bog‘da egzotik o‘simliklar vujudga keltirildi. Nyu-York xalqaro moliya makrazi binosida uncha katta

bo‘lmagan shinam va tinch yashil dam olish joylari tashkil etiladi. Interyerlardagi bog‘larga J. Portmanning bu sohadagi harakatlari yangicha mazmun baxshida etgan. U 1973 yili San-Fransiskodagi Xyatt mehmonxonasi vestibyulida manzaraviy ichki yashil muhit vujudga keltirib, unda turli daraxtlar, maysazorlar, favvoralar, chirmoviq o‘simliklardan ajoyib manzara yasashga muvaffaq bo‘lgan. Intererlar muhitiga bunday yondashuv pirovardida o‘zining hayotiyligini ko‘rsatdi. 1970-80-yillar arxitekturasida binolar vestibyullariga keng va tabiiy (hatto sun’iy) kichik yashil bog‘lar yordamida chiroy berish uslubi keng tarqalgan an’anaga aylana boshladi. Sobiq Ittifoqda ana shunday vestibyul ilk bor Moskvada 1980 yili ochilgan Xalqaro Savdo markazida vujudga keltirildi [77].

Ko‘p qavatli binolar ichida kichik yashil landshaft muhitini tashkil qilishning o‘ziga xos uslubi 1976 yili Dushunbe shahrida Tojikistonda ishlab chiqildi. 100 xonadonlik 11 qavatli turar joy binosida temir betondan ichiga unumli tuproq to‘ldirilgan maxsus ustun ishlanib, unga ko‘p yillik daraxtlar va butalar ekish tavsiya qilindi. Tuproqli ustun o‘lchamlari 3x12 metr va u bino ichida joylashgan. Barcha xonadonlar ushbu ustun atrofiga o‘zlarining kichik hovlilari bilan birikkan. Yashil hovlili ikki qavatli uyga “Osma bog‘” deb nom berildi.

O‘zbekistonning Toshkent, Samarqand va Buxoro shaharlarida Hindiston firmalari va O‘zbekiston hamkorligida qurilgan mehmonxonalar vestibyullari va ichki hovlilariga tabiiy landshaft elementlari: interyerlar muhitiga mos g‘aroyib o‘simliklar, ochiq hovuzlar, o‘zbekona va yaponcha bog‘ elementlari va kichik favvoralar qurilgan. [33].

Hozir AQShda va G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida qurilayotgan deyarli barcha jamoat binolarining vestibyullarini kichik bog‘siz tasavvur etish qiyin, hech bo‘lmasa ular kichikroq boqqa ega. Chikagoda qurilgan yangi idora binosining vestibyul bog‘i unda granit postamentlarga qo‘yilgan ikkita g‘aroyib kichik daraxtlar va ular atrofidagi yorug‘ muhit tarzida shakllantirilgan. Nyu-Yorkdagi Manxetten markazining osmono‘par binolari vestibyullarida qator yangi bog‘lar vujudga keltirilgan. Bambuk bog‘lari, palma bog‘lari, gullar bog‘i, toshloq bog‘lar, chirmoviq o‘simliklar bog‘i bir-biridan chiroyli bu bog‘lar birin-ketin joylashgan bo‘lib, ularda o‘tirib dam olish, tamaddi qilish, qog‘oz stakanchalarda shirin qaxva ichish, Nyu-York ko‘chalarining nam va issiq yozgi ob-havosidan so‘ng bu bog‘lar shabbadasida bir zum to‘xtab huzur olish mumkin. AQShdagi eng ulkan kichik bog‘ni Nyu-Yorkdagi xalqaro moliya markazining oynavand qurilmali vestibyulida arxitektor Sezar Pelli ishlagan. Unda granit polning kvadrat kesmalariga joylashtirilgan baland palmalardan yaxlit bir kichik o‘rmoncha tashkil etilgan. O‘rmon usti esa oynavand tarzda ishlangan [33].

2005 yilda Moskvada YE.V. Zabelinaning arxitektorlarga mo‘ljallangan “Poisk novix form v landshaftnoy arxitekture” nomli o‘quv qo‘llanmasi chop etildi. Bu kitob ikki qismga: zamonaviy bog‘lar; “Art-landshaftlar” va ularning turlariga bag‘ishlangan bo‘lib, biz mazkur paragrifni yozishda aynan ana shu kitobga asoslandik [53; 127-132. b].

Ma’lumki, XX asr san’ati turli xil badiiy yo‘nalishlar va oqimlarga boyligi bilan ajralib turadi. Ular orasida oldingi davrlar san’atidagi ilg‘or an’analarni davom ettiruvchi, antik va uyg‘onish davri san’ati tajribalariga taqlid qiluvchi va nihoyat, avvalgi davrlarga xos shakllarni rad qiluvchi kuchli oqim–“modernizm” va uning turli yo‘nalishlari: avangard, dadaizm, pop-art va boshqalar shakllandiki, ular zamonaviy landshaft arxitekturasi rivojiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmadi. Aynan ana shunday o‘zaro ta’sirlar, ilmu-fandagi texnik innovasiyalar, yangi texnologiyalar va materiallar, tasviriy san’atdagi yangi oqimlarni vujudga keltirdi [53; 127-132. b].

XX asr oxiri va yangi XXI asr boshi ijodkorlari (rassomlar, arxitektorlar, haykaltaroshlar, san’atkorlar), inson turmush tarzi, uning rekreasiyasi va badiiy tafakkuridagi o‘zgarishlarni eng avvalo kichik bog‘larning yangi tarmog‘i hisoblangan “Art-landshaftlar” yo‘nalishdagi yangi bog‘larda ko‘ra oldilar. Biroq bunday yangi bog‘larni shakllantirish va yaratish jarayoni ham osonlikcha amalga oshmadi. Ular hozirgi davr landshaft arxitekturasi tarixining alohida bug‘unini tashkil qiladi [53; 127-132. b].

Oxirgi 20 yillikda binolar va landshaft arxitekturasi obyektlarini loyihalashda tabiat va inson ekologiyasini uyg‘unlashtirish harakati shakllandi. Bu g‘oya va yo‘nalishda yaratilgan bog‘lar “Zamonaviy ekologik bog‘lar” deb atalib, quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1. Loyihalanayotgan joy tabiatining bir qismi tarzida yaratilgan kichik bog‘lar;
2. Loyihalanayotgan bino muhandislik tizimining bir qismi sifatida shakllantirilgan mo‘jaz bog‘lar;
3. “Yashil arxitektura” tarzida, ya’ni bino va bog‘ mushtarakligida yaratil gan kichik bog‘lar [53; 127-132. b].

O‘tgan asrning oxiri va hozirgi davrda shakllanayotgan turli xil bog‘lar ichida, bizning bog‘lar haqidagi an’anaviy tushunchamizdan keskin farq qiladigan, alohida yo‘nalishdagi bir guruh bog‘lar borki, ular aksari zamonaviy mutaxassislar tomonidan “Art-landshaftlar” deb nomlangan. Bunday bog‘lar asosan xorijda: AQSH, Yaponiya, Yevropa davlatlarida ilk shakllana boshlagan [53; 127-133. b].

“Art-landshaftlar”ga xos asosiy xususiyatlarni quyidagicha izohlash mumkin:

- bunday bog‘larda san’atning xilma-xil turlari (musiqa, rangtasvir, teatr dekorasiyalari, haykaltaroshlik va mo‘jaz me’moriy shakllarning landshaft arxitekturasidagi o‘zaro birikuvlari va assosiativ tarzda bog‘lanishi aks etgan;

- bog‘ning shakllanishiga yangicha dunyoviy tafakkur bilan yondashilgan. Turli davlatlar, xalqlar madaniyati, an’analarning bir-biriga yaqin lashuvi, mushtarakligi, ular orasidagi masofalar va chegaralarning nisbiy ligi bunday bog‘larni loyihalashdagi xalqaro dunyoviy yondashuvni ta’min lagan;

- “Art-landshaftlar” eng so‘ngi dunyoviy texnik yutuqlar, texnolo giyalar, materiallar va ilg‘or san’at asarlarining mushtarakligini o‘zida aks ettirganligi bilan an’anaviy bog‘lardan ajralib turadi [53; 127-133. b].

Hozirgi “Art-landshaftlar” ning hududi, aksari hollarda, uncha katta bo‘lmagan ochiq muhitlar hisoblanib, kichik bog‘lar ko‘rinishiga ega.

Ularning turlarini quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin: kinetik g‘oyalarga asoslangan bog‘lar; “bog‘ga o‘yin”; bog‘-artefaktlar; bog‘-installyasiyalar; sun’iy elementlarga ega bog‘lar [53; 127-132. b].

Kichik bog‘ning badiiy obrazi me’moriy kompozisiya qonuniyatlari va badiiy vositalaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Hajmiy muhit masshtabi, hudud va uning elementlarining proporsional bo‘lak lanishi, metr va ritm, kontrast va nyuans, hamda rejaviy yechimning (muntazam yoki peyzajli erkin) usullaridan foydalanib landshaft muhiti muayyan tipini yaratish mumkin. Masalan, zamonaviy kichik bog‘ni yaratish g‘oyasi (ayniqsa kottej tipidagi qurilishlarda) “yaponcha”, “ispan–mavri tancha”, “Italyancha”, “fransuzcha”, “inglizcha” bog‘lar stilida yechilishi mum kin. Hozirgi vaqtda kichik bog‘larning eng ommaviylashgan stili–bu yaponcha uslubdir. “Yaponcha kichik bog‘”–bu atrof chetdan holi bo‘lish, har bir bog‘ predmeti va ularning joylashishini tomosha qilish uchun yaratilgan va chuqur simvolik mazmunga ega bo‘lgan xolis muhitdir. Bu, eng avvalo, tarkibiga shag‘al yoki qum ustiga o‘rnatilgan turli xil toshli kompozisiyalarni o‘simliklar (butalar, to‘q yashil moxlar) bilan birgalikda kiritgan, peyzaj yechimidan foydalanib ishlangan landshaft muhitidir [33; 33-34. b].

“Yapon kichik bog‘i”ning ajralmas elementi tosh chiroqlar hisoblanadi. Tosh chiroqlar yo‘lakning burilgan joyida, suv havzasining yoki irmoq chekkasida, ko‘prik yonida va shunga o‘xshash joylarga o‘rnatiladi [53; 135-140. b].

Chirog‘ odatda kichikroq toshlar guruhining asosiy elementi hisoblanadi, ba’zida chirog‘ orqasida daraxt joylashtiriladi. Chiroqlarni tayyorlash uchun turli tabiiy toshlar, yog‘och yoki peyzajdan foydalaniladi. Tosh yo‘lakchalari va xiyobonchalari ham yapon stilidagi bog‘ning muhim

elementi hisoblanadi. Bog‘da yo‘lakchalar qurish uchun bir yuzi tekis bo‘lgan toshlar qo‘llaniladi (toshlarning tekis bo‘lmagan yuzalari yer bilan yopiladi).

“Yapon kichik bog‘i”ga barcha bog‘ qurilmalari va detallarining ideal ishlanmasi, qismlar va shakllarning nafis uyg‘unligi, me’moriy ifodaliligi xarakterlidir. Bularning barchasi o‘z jozibadorligi, oddiyligi, bog‘dagi barcha elementlar va shakllarning o‘ylab joylashtirilganligi, badiiy obrazining yuksakligi bilan inson ongini shoshiradi. [71; 90-92. b].

Turar joy va jamoat binolari qoshidagi hamda ayrim parklar, qishki bog‘lar, tom ustidagi yapon bog‘larining badiiy obrazini shakllantirishda milliy tarixiy ramz va belgilardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ta’kidlash joizki, kichik bog‘ning badiiy obrazini shakllantirishda eng avvalo uning funksional vazifasiga bog‘liq bo‘lib, qanday landshaft dizayni vositalarini tanlash va foydalanishni belgilab beradi [33; 33-34. b].

*Ma’muriy binolar qoshidagi kichik bog‘lar* rejaviy tashkillashtirilishi bo‘yicha o‘ta oddiy, mantiqiy bo‘lishi va aralash rejaviy usulda loyihalanishi zarur. Mazkur bog‘lardagi ko‘kalamlar yovvoyi tabiat muhiti burchagi tarzida ishlanib ko‘chma konteynerlar yoki mobil tavaklar ham qo‘llanilishi mumkin. tig‘is va tor hududlarda ko‘chma kichik bog‘larni yara tish maqsadga muvofiq. Ular turlicha kompozisiyadagi gul tuvaklari, vaza lar yoki gullovchi kompozisiyalardan tashkil etilgan mobil, ya’ni ko‘chma kom pozisiyalar ko‘rinishida bo‘ladi. Ko‘chma bog‘lar har xil pog‘ona va yuza larda yaratilishi mumkin, buning uchun maxsus qurilmalar yoki baland ligi bir xil bo‘lmagan vazalar qo‘llaniladi [33; 54. b].

Ma’muriy bino qoshidagi kichik bog‘ yaxshi yorug‘lantirilishi zarur. Zero yorug‘lik kechqurunlari bog‘ning takrorlanmas badiiy obrazini yaratishga qodir. Buning uchun maxsus “nur, yorug‘lik arxitekturasi” dasturi ishlab chiqilishi ham mumkinki, u o‘z navbatida odatiy va bayramlar payti kichik bog‘da nafaqt badiiy balki utilitar, ya’ni amaliy funksiyani ham bajarishi mumkin. Masalan, piyodalar yurishi ko‘p bo‘ladigan joylarga albatta funksi onal yorug‘lik, ya’ni oddiy chiroqlar o‘rnatilishi zarur. Kechqurun va tungi yoritishda nur arxitekturasining barcha usullarini: obyektning konturi bo‘ylab yorug‘lantirish, faqat yuzani to‘ldiruvchi yorug‘lik hamda aralash usuldir [33; 54. b].

Ko‘rsatib o‘tilgan yorug‘lik berish usullari kechki bog‘ badiiy obrazini to‘laligicha ochib berishga xizmat qiladi. Ekilgan daraxtlarni va uning atrofiga tig‘iz ekilgan bo‘yi past butalarni projektorlar bilan yoritish mumkinki, projektor-lar bu butalar orasida ko‘zga tashlanmay turishi kerak. Yorug‘lik manbalarini ko‘zdan yashirib va ularga rangli filtrlar o‘rnatish orqali o‘ta yuqori badiiy samaralarga erishish mumkinligi hayotda o‘z isbotini topib ulgurgan [33; 55. b].

Eng yaxshi rangli filtrlar–bu yashil dunyoni yanada jozibali qiluvchi yashil rang va qizg‘ich–sariq ranglarki, ular yuqori darajadagi manzaraviy samara berish qobiliyatiga ega. O‘simliklarning tabiiy rangini saqlash va

ko‘rsatish uchun, daraxtlarga yalpi yopuvchi oq rang berish maqsadga muvofiqdir. Kichik bog‘ga undagi suv qurilmalarini nurlarga cho‘mdirish orqali alohida badiiy samara berish mumkin. Bunda suv jozibadorlik kashf etadi. Buning uchun esa suvga chidamli yorug‘lantirish jihozlaridan foydalanish talab etiladi [60; 96-100. b].

*O‘quv muassasalari qoshidagi kichik bog‘lar* talabalar va o‘qituvchilarning dam olishini samarali tashkil qilishga qaratiladi. Bular universitetlar, akademiyalar, institutlar, liseylar, kollejlar va boshqalar qoshidagi bog‘lardir. Ulardagi landshaft muhitini tashkil qilish qoidalari hududi ning me’moriy–landshaft yechimlari ushbu muassasalarning funksional talablariga bo‘ysunishi lozim. Bunday bog‘larda quyidagi maydonlarning bo‘lishi maqsadga muvofiqdir:

- talabalarning dam olish va muloqot maydonchalari;
- me’morial maydon;
- umumiy yig‘ilish maydoni;
- talabalarning bayram va festivallar o‘tkazish maydoni.

Bayramlar o‘tkazish maydoni biron–bir kattaroq sport maydoni, masalan, minifutbol maydoni bilan qo‘shilishi, ya’ni universallanishi mumkin. Talabalarning umumiy yig‘ilish maydoni har bir fakultet yoki bo‘limlar qoshida bo‘lishi mumkin [33; 55. b].

*O‘quv muassasalari qoshidagi kichik bog‘larda* bog‘ ekspozisiyalarini tomosha qilish, bog‘ maydonlari tizimini bog‘lash uchun o‘tish yo‘laklari va xiyobonlar tashkil etilishi zarur. Yo‘laklar va xiyobonlar, maydonlarning o‘lchamlari harakatlanayotgan potok va guruhlar hajmini, harakatlanish masofalarini iloji boricha qisqartirishini ko‘zda tutishi zarur. Harakat-lanish yo‘nalishlari qatorlab ekilgan daraxtlar bilan belgilanishi va o‘z tarkibiga gulzorlar kompozisiyalari–rabatkalar, bordyurlar, klumba larni kiritishi mumkin. Barcha xiyobon va yo‘laklar asosiy o‘quv kompleks lariga yo‘naltirilgan va maydonlar bilan bog‘langan bo‘lishi zarur [33; 55. b].

Manzarali yo‘l to‘shamalarini qo‘llashga va ularni yorug‘lantirishga ham e’tibor berilishi zarur. Istalgan kichik bog‘da yuqori estetik parametrlar (rang, faktura, shakllar)ga ega bo‘lgan to‘shamalarning bir nechta turlarini qo‘llash zarur.

Aslini olganda to‘shamalar istalgan bog‘ning fasadini shakllantiradi, o‘quv binolari va maydonlari qoshidagi to‘shamalar asosiy xonalardan ko‘rinib turishi lozim. Shu boisdan xiyobon, yo‘laklar va maydonlar tizimini

landshaft dizaynining barcha vositalaridan ayniqsa o‘simliklardan foydalangan holda yaratilishi kerak.

Agar bordiyu kichik bog‘ transport magistrallar bilan chegaralangan bo‘lsa, bog‘ hududi o‘simliklar yordamida himoyalanishi kerak. Kichik bog‘ hududining shovqin rejimi o‘simliklarni bir necha oshyon (yarus)lar bo‘yicha joylashtirib ekish orqali yaxshilanishi mumkin. Bunda butalar oldingi birinchi va ikkinchi past yaruslarda, daraxtlar esa yuqori yarusda joylashtirilishi zarur. Shovqindan himoyalanishning eng yaxshi usuli shox–shabbalari barglari tig‘iz joylashgan daraxt va butalarni qatorlab ekishdir.

Agar o‘simliklarni tuproq–yerga ekish qiyinchiligi tug‘ilsa (masalan, yerosti muhandislik tarmoqlari o‘tkazilgan bo‘lsa) yoki tezkor tarzda manzaraviy samaraga erishish zarurati tug‘ilsa harakatlantiruvchi yoki ko‘chi riladigan konteynerlarga ekilgan daraxtsimon o‘simliklardan foyda lanish zarur.

Bog‘ning badiiy landshaft ko‘rinishi gulzorlar yordamida, ularning muntazam va peyzaj usulidagi yechimlaridan foydalanib yaratilishi mumkin. Bunday hududda miksborderlar, alpinariyalarni hamda suv havzalari bilan qo‘shilgan rokariylarni joylashtirish mumkin. O‘simliklarni joylash tirishda hudud insolyasiyasini, ya’ni u kunning qaysi soatlarida ko‘p foydalanilsa uni o‘sha vaqtlarda soyalashtirishga erishish lozim.

Kichik bog‘larni gulzorlar bilan bezashning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Kichik bog‘larda, qoidaga binoan, gulzorlarning ko‘p yillik va bir yillik guruhlaridan hamda yer yopar o‘simliklardan foydalaniladi. Deko-rativ devorlar, pergolalar va trelyajlar bilan mushtarak tarzda chirmashib o‘suvchi o‘simliklar–lianlardan foydalanish ham yaxshi natija beradi. Bunday hollarda atirgul va klematislar bilan bezatilgan ravoq va trapesiya shaklidagi trelyajlarni yaratish maqsadga muvofiqdir. Ularni nafaqat kuzatib tomosha qilish, balki ostida o‘tirib holi tarzda dam olish ham mumkin, chunki ular katta manzaraviy samara va fazoviy–tashkiliy funksiyalarga ham egadir.

*Muzeylar qoshidagi kichik bog‘lar* milliy–tarixiy ramzlar, timsollardan yoki mahalliy tabiat muhitini qayta tiklash orqali yaratilishi mumkin. Muzey qoshidagi bog‘ muhitini obyektning ichki va tashqi vujudi, fazoviy tuzilishini bir–biriga uzviy bog‘lash, uyg‘unlashtirish orqali ham yechish mumkin. Bunday bog‘da ko‘chma ko‘rgazmalar, muzey reklamalarining vitrinasi va muzeyga doir haykallar joylashishi mumkin. Bog‘ rejaviy yechimi aralash usulda qisman muntazam tarhli va qisman peyzajli tarhiy usullarda ishlanishi mumkin. Bunday bog‘ chegarasi bo‘ylab qatorlab ekilgan daraxtlar, ularning yoniga esa qator butalar, yashil to‘siqlar, bosketlar va yashil parter maysazorlar ekilishi mumkin. Gulzorlar kompozisiyasi bog‘ning asosiy landshaft aksentlarini to‘ldirish, ayniqsa haykallar bilan birgalikda bog‘ jozibadorligini oshirishda katta ahamiyat kasb

etadi. Gulzorlarning koloristik yechimini ishlashda, tomoshabinlarning muzey asosiy ekspozisiyasiga bo‘lgan diqqatini tortmaslik uchun asosan, sovuq tonli ranglardagi gullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir [33; 55. b].

**Savdo korxonalari qoshidagi kichik bog‘lar** hududining aniq funksional zonalarga bo‘lingan bo‘lishi zarur. Ularda quyidagi zonalarning tashkillashtirilishi ko‘zda tutiladi: piyodalar intensiv harakati zonasi, ekspozisiyalar zonasi va vaqtinchalik dam olish zonasi. Vaqtinchalik dam olish zonasi do‘konlar, reklamali vitrinalar va piyodalar uchun xiyobonlar bilan o‘zaro bog‘langan dam olish maydonlari tizimidan iborat bo‘ladi. Ushbu maydonchalar kompozisiyasiga gulzorlar, kichikroq favvoralar, dekorativ haykallar va boshqa dizayn elementlari kiritilgan bo‘lishi mumkin. Maydonchalarga o‘rindiqlar, axlatdonlar, yoritgichlar, konteyner lardagi gul butalar joylashtirilishi zarur. Savdo korxonalari qoshidagi bog‘larni yarmarkalarga, attraksionlarga ega bo‘lgan ko‘ngil ochuvchi mini parklarga o‘zgartirish imkoniyati mavjud [53; 55. b].

Savdo korxonalari qoshida xususiy transport vositalari uchun avtostoyan-kalar, taksilar va ommaviy transportlar uchun soyabonli to‘xtash joylari tashkil eti-lishi zarur. Bu yerda geoplastika usullaridan: turli pog‘onalardagi terraslar va tir-gak devorlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Terrassalarning eng pastgisini garajlar, xususiy transport larning turar joy, xo‘jalik sektori, ayrim yordamchi xo-nalar va boshqalar egallashi mumkin. Kichik bog‘larning me’moriy–landshaft ye-chimi bosh va ikkinchi darajali xiyobonlarning aniq belgilangan muntazam rejaviy usulidan ko‘proq foydalanish orqali amalga oshiriladi. Kechqurungi yorug‘lantirish ssenariyalarini va vizual tarmoqlar tizimini ham ishlab chiqish talab etiladi [53; 55. b].

**Davolash muassasalari qoshidagi kichik bog‘lar** hududi davolash komplekslarining funksional vazifalariga asoslangan holda aniq zonalashtirib chiqiladi. Kichik bog‘ni qurilishning janubiy tomonidan joylashtirish maqsadga muvofiq. Bog‘ning rejaviy tizimi muntazam va peyzaj usulida bo‘lishi mumkin. Qaysi rejaviy usulni tanlash hududning relyefiga, mavjud yashil ko‘kalamlarning joylashishiga va boshqalarga bog‘liq. Bog‘ hududi tashqi zararli omillardan yaxshi himoyalangan bo‘lishi kerak. Davolash muassasalarida kichik bog‘ni shakllantirishdagi asosiy omil – bu o‘simliklardir [33; 56. b].

Kichik bog‘ni ko‘kalamlashtirish uchun o‘simliklar assortimenti ularning bemorlarga ijobiy psixologik ta’sir qilishini hisobga olgan holda puxta o‘ylanishi kerak. Bu yerda tashqi ko‘rinishi to‘g‘ri geometrik (ustunsimon, oval, sharsimon) va erkin peyzajli ko‘rinishdagi shakllarga ega

bo‘lgan daraxtlardan foydalaniladi. Ular turlicha kombinasiyalarda qo‘llanilishi mumkin. Daraxtlar va butalardan hosil bo‘ladigan ijobiy ta’sir omillari ularning tashqi ko‘rinishlari balandligi, barglarining ranglari, gullashi va mevalari, xushbo‘y hidi, barg va shoxlarining shivirlashi bilan aniq lanadi. Masalan, tugal qismi tik ko‘rinishli ignabargli daraxt va butalar dan shakllangan yashil massiv (notinch sharpalar hosil qiluvchi oddiy archa, bolqon ) insonning tomosha qilish qobiliyatini foydali tomonga qo‘zg‘atadi, kayfiyatni esa ko‘tarishga yordam beradi. Daraxtlar va butalardan tuzilgan massiv (klen–yavor, soxta kashtan, olxo‘ri, cheremuxa va biryuchina obiknovennaya) asab zo‘riqishini pasaytirishga va yo‘qotishga yordam beradi va hokazo [71; 70-72. b].

Kichik bog‘ landshaftidan sog‘lomlashtirish maqsadida faol foydalanish orqali bog‘ning bemorlar organizmiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga erishish mumkinki, bunda tabiiy kichik bog‘ o‘ziga xos shifo maskani rolini bajarishi shifoxonada ko‘rsatiladigan tabiiy muolajalarga qo‘shimcha sog‘lomlashtirish vositasi tarzida ham xizmat qilishi mumkin [33; 55. b].

Ta’kidlash lozimki, hozirgi vaqtda **kottejlar, yozgi dachalar qoshidagi kichik bog‘lar** keng tus olgan. Bunday bog‘larni tom orqa yoki hovli bog‘lari deb ham aytish mumkin. Ularning me’moriy–landshaft yechimlari turli–tumandir. Uzoq xorijiy davlatlarda hovli yoki kottej bog‘larini kichik parklar tarzida faol va tinch dam olish zonalarini alohida ajratgan holda loyihalash odat tusiga kirgan. Yaqin xorijiy mamlakatlarda esa bunday bog‘larni loyihalashda biroz boshqacha an’ana yetakchilik qiladi. Ularda, odatda, quyidagi asosiy funksional zonalarni uchratish mumkin: ekinzorlar, bog‘, mevali bog‘, xususiy yoki tinch dam olish zonasi, bolalar, sport hamda oila a’zolarining dam olish zonalari.Hududda zonalarning joylashishi yer relyefini, davomli shamollar yo‘nalishini, hududning ufq tomonlarga oriyentasiyasini va boshqa omillarni hisobga olish zarur [33; 56. b].

Bog‘ni rejalashtirishning asosini dam olish uchun eng qulay sharoitlar yaratish, ichki va tashqi hajmiy muhitning uzviy bog‘liqligi, yangi qurilish materiallari va texnologiyalaridan foydalanishni tashkil qiladi.

Kichik bog‘ maydonining chegaralanganligi bog‘ hududini vizual kengay-tirishga yordam beruvchi turli xil rejaviy yechimlardan foydalanishga undaydi. Masalan, uyga olib boruvchi yo‘lakni hovlida diogonal tarzda joylashtirib, bog‘ning u yoki bu xil fragmentlarini ochib beruvchi egiluvchan yo‘lak shaklida loyihalash mumkin. Bundan tashqari geoplastika usullar idan foydalanib bog‘ maydonining bir nechta sahnlarga ajratish mumkin. Bunday hollarda kichikroq irgak devorlar, qiyaliklar, zinapoyalar qo‘llab ularni o‘simliklar guruhlari bilan bog‘lash maqsadga muvofiqdir [71; 76-79. b].

Kichik bog‘ hududini ko‘kalamlashtirishni puxta o‘ylash zarur. O‘simlik- larning rangi, o‘lchamlari, fakturasi, tabiiy ko‘rinishlari va shaklu–shamoyillari turlicha bo‘lishi shart. Gulzorlar esa yilning bahorgi, yozgi va kuz fasllarida ham manzaraviy samara berishini o‘ylash zarur. Kottej hovli bog‘larida gulzorlarning turli xil kompozisiyalaridan foydalanish mumkin, biroq ularning ichida hovli bog‘i uchun eng samaralisi dekorativ suv qurilmalari va kichikroq sharshara yoki shalolalari bo‘lgan alpinariyalardir. alpinariya qumtosh, ohaktoshdan, tufdan va boshqa tabiiy toshlardan ishlanishi zarur. alpinariya yaratishga asos bo‘lib, odatda, dekorativ basseynga qazilgan kotlovandan chiqqan tuproq xizmat qiladi. Toshlar ushbu tuproqning yarimini yoki 2/3 qismini yopishi kerak, shunda alpinariya iloji boricha tabiiy ko‘rinadi. Toshlar atrofidagi yerni zichlash va barcha tirqishlarni to‘ldirish zarur [71; 76-79. b].

Kichik bog‘ning badiiy ko‘rinishini yanada bo‘rttirish uchun landshaft dizaynining deyarli barcha vositalarini (o‘simliklar, relyef, suv qurilmalari) va landshaft kompozisiyalarini yaratish maqsadga muvofiqdir. Masalan, suzish basseynini yaratib, uni alpinariyalarga, ko‘p yarusli klumbalarga va rokariyalarga bog‘lash mumkin. Suzish va dekorativ basseynlarning rejaviy tuzilishiga o‘simliklar–daraxtlar, butalar, gullarni kiritish mumkin [71; 76-79. b].

Hozirgi vaqtda **kottejlar va xususiy hovlili uylar qoshidagi kichik bog‘larda** suvning dinamik va statik holatlarini namoyon etuvchi suv qurilma-laridan foydalanish, hatto maxsus qurilmalar yordamida hovlida suvning kamalak ko‘rinishini yaratishga ham erishilmoqda. Uzoq xorijiy davlatlardagi kottej hovli bog‘larida, hatto ular kichikroq o‘lchamlarga ega bo‘lsa ham, suv qurilmalarining yaxlit bir tizimi, ya’ni o‘z rejaviy tarkibiga buloq, irmoq, dekorativ basseyn, cho‘milish basseyni kabi shakllarini qamrab olgan kompozisiyalaridan ham foydalanilmoqda. Bunday suv qurilmalari, odatda, erkin tabiiy shakllarda bo‘lib, kuchli ijobiy emosional ta’sir ko‘rsatish qobiliyatiga egadir. Hovlili kottejlarda yashovchi ko‘p sonli yevropaliklar uchun suvning shildirayotgan tovushini eshitish bolalikdan odat bo‘lib, agar qandaydir sabablarga ko‘ra ular bu tovushni eshitmasa o‘zlarini noqulay his qila boshlaydilar. Ko‘pgina kichik hovli bog‘larida bunday suv qurilmalari kottej binosi qoshida yoki unga juda yaqin joylashtiriladi. Ularning chegaralari tabiiy toshlarni yoki betondan ishlangan bortlar bilan bezatilgan. Ular atrofida kichik bog‘ning asosiy landshaft kompozisiyalarini ko‘rish uchun yo‘lakchalar ishlanadi [71; 76-79. b].

Kichik bog‘ cheklangan vujudining badiiy g‘oyasi bog‘ bo‘ylab harakat-langanda. Muayyan tomosha qilish nuqtalaridan ko‘rina boshlaydi. Asosiy ko‘rish nuqtasi kottej binosiga birikgan pog‘ona (sahn) hisoblanib,

unda o‘simliklar bilan bog‘langan g‘oyatda jozibador suv qurilmalari tizimiga nigohingiz tushadi [71; 76-79. b].

**Sanoat korxonalari qoshidagi kichik bog‘lar** ushbu korxonalar ishchilari-ning qisqa vaqtli dam olishini maroqli tashkil etish maqsadiga yo‘naltirilgan. Ularning me’moriy–landshaft yechimi ishlab chiqarish jara yonining o‘ziga xosli-gini hisobga olishi va ishchilarning ish davomidagi charchoqlarini pasaytirishga yordam berishi zarur. Bog‘da kichik me’moriy shakllar: o‘rindiqlar, soyabonli tomlar, pergolalar, favvoralar boshqa suv qurilmalari va geoplastika elementlari bilan birga joylashtirilishi maqsadga muvo-fiqdir. Agar korxona bir nechta smenalarda ish yuritsa kechki yoritgichlar, elektr chiroqlarini joylashtirish zarur. Kichik bog‘lar to‘g‘ridan - to‘g‘ri ishchi sexlar qoshida ham yaratilishi mumkinki, agar ular o‘zidan atrofni ifloslovchi moddalar chiqarmasa [71; 80-86. b].

Bunday kichik bog‘larda maysazorlar va gulzorlar kompozisiyasiga yetakchi o‘rin beriladi. Daraxt va butalar faqat aksentlar, fon vazifasini yoki hududni soya–salqinlashtiruvchi landshaft vositalari tarzida xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, bunday bog‘larda manzarali daraxtlar, butalardan tuzilgan guruhlar, ignabargli o‘simliklardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ishlab chiqarish korxonalari hududlaridagi kichik bog‘larni ko‘kalamzorlashtirishga mo‘ljallangan o‘simliklar assortimenti korxonalar va ishlab chiqarishning o‘ziga xosligini, ekologik sharoitlar va korxonalarning shahar rejaviy tizimida joylashishiga qarab aniqlanishi va tanlanishi zarur [71; 80. b].

Eng avvalo tanlangan o‘simliklarning ishlab chiqarishning texnologik xusu-siyatlari asosida shakllangan mikroiqlim sharoitlariga chidamlili gini va rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olishi kerak. Yashil ko‘ka lamlar kompo-zisiyasining elementlari tarzida massivlar, landshaft guruh lari, qatorlar va soliterlar, tik ko‘kalamlashtirish shakllari va tirik to‘s iqlar qo‘llanilishi mumkin [71; 80-86. b].

Landshaft guruhlarining, asosan, bir navlik bo‘lishi ko‘zda tutiladi. Guruh-larning eni qo‘llanayotgan daraxtlar balandligidan kichik bo‘lishi zarur. Qatorlar kompozisiyasi transport yo‘llari bo‘ylab va ishlab chiqarish sexlari qoshida yaratiladi. Ular tik ko‘kalamlarni to‘ldirishi va imorat larni insolyasiya-lardan, shovqindan, changdan va boshqa salbiy omillardan himoyalashi uchun ham xizmat qiladi. Buta o‘simliklarini ko‘pgina sanoat korxonalarida qo‘llansa maqsadga muvofiqdir. Tirik yashil to‘siqlar himoyalanish hamda bog‘ hududini hajmiy tashkillashtirish funksiyasini ham bajarishi mumkin. Go‘zal gullovchi butalardan tuzilgan erkin o‘suvchi yashil to‘siqlar keng tarqalgan. Sun’iy shakllar berilgan yashil to‘siqlar va butalar ishlab chiqarish hududlarida va me’moriallar may donlari qoshiga ekilishi mumkin. Yashil to‘siqlar, shuningdek, hududlarni bir–biridan ajratish va

chegaralash uchun ham foydalanilishi mumkin. Bunday hollarda ular tikonli butalardan ikki yoki uch qatorlab ekilgan bo‘lishi zarur [71; 80-86. b].

Ishlab chiqarish korxonalaridagi kichik bog‘larda nafaqat bir necha xil to‘shamalarni qo‘llash, balki asosan maysazorlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Maysali to‘shamalar nafaqat manzarali bo‘ladi, balki sanita riya–gigiyenik vazifaga ham (changlarni tutib qoladi, havoni tozalaydi, havo haroratini pasaytiradi, namlikni oshiradi). Maysazor fonida turli xil gulzorlar kompozisiyalarini ham joylashtirish imkoniyati yaratiladi [71; 80-86. b]. (11-12-13-14-ilovalar).

## II–bob xulosasi

1. Kichik bog‘larni loyihalashning Vatanimiz tajribalariga bog‘larni xususiy turar-joylar va jamoat binolari hovlilarida shakllantirish, jamoat, ayniqsa, ma’muriy binolar interyerlarida yashil atriumlar yoki qishki bog‘lar tashkil qilish hamda jamoat binolari: savdo va ko‘ngil ochar binolar tomlarida yaratilgan kichik bog‘larni tashkil qilish kabi tajribalar kiradi. Shuningdek, madaniyat va istirohat bog‘lari tarkibidagi mo‘jaz hayvonot bog‘i, qushlar bog‘i, topiar bog‘ va bolalar bog‘larini shakllantirish ham Vatanimiz tajribalariga xos an’analarga kiradi.
2. Kichik bog‘larni loyihalashning xorijiy tajribalari, xorijiy davlatlarda kichik bog‘larni yaratishdagi eng asosiy masala – bu bog‘ning badiiy-me’moriy va landshaft obrazini yaratishdir. Landshaft arxitekturasi amaliyoti kichik bog‘larning turli xil rejaviy stillarini: Misr, antik, islom, o‘rta asrlar , uyg‘onish, Italyancha, fransuzcha, barokko, klassizisizm, peyzajli, inglizcha, eklektika, xitoycha, yaponcha va boshqa mintaqaviy va milliy obrazlarni yaratgan.
3. Xorijiy mamlakatlardagi kichik bog‘lar o‘zida yuzaki chiroy, manzara-viylikni emas, balki tabiat go‘zalligi va tartibotini, me’moriy yaxlitlikni hamda insonning erkin tabiatga bo‘lgan munosabatini chuqur bilish va tushunish asosida yaratilgan.
4. Kichik bog‘larni landshaft loyihalashda qo‘llaniladigan tabiiy vositalarga quyidagilar kiradi: o‘simliklar, suv havzalari, relyef, geoplastika elementlari va tabiiy toshlar.
5. Kichik bog‘larni shakllantirishda foydalaniladigan sun’iy vositalar (landshaft dizayni qurilmalari) quyidagilardan iboratdir: yer relyefi bilan bog‘liq qurilmalar, suv qurilmalari, yer to‘shamalari, mo‘jaz me’ moriy shakllar, tashqi obdonlashtirish elementlari va nurli-rangli yorug‘ lantirish qurilmalari.
6. O‘tgan asrning oxiri va hozirgi davrda shakllanayotgan turli xil

bog‘lar ichida, bizning bog‘lar haqidagi an’anaviy tushunchamizdan keskin farq qiladigan, alohida yo‘nalishdagi bir guruh bog‘lar borki, ular aksari zamonaviy mutaxassislar tomonidan “Art-landshaftlar” deb nomlangan. Bunday bog‘lar asosan xorijda: AQSH, Yaponiya, Yevropa davlatlarida ilk shakllana boshlagan. Hozirgi “Art-landshaftlar”ning hududi, aksari hollarda, uncha katta bo‘lmagan ochiq muhitlar hisoblanib, kichik bog‘lar ko‘rinishiga ega. Ularning turlarini quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin: kinetik g‘oyalarga asoslangan bog‘lar; “bog‘ga o‘yin”; bog‘-artefaktlar; bog‘-instal lyasiyalar; sun’iy elementlarga ega bog‘lar.

7. Kichik bog‘larning zamonaviy tipologiyasi o‘ta boy, mazmunli va ularning soni kundan-kunga ortib bormoqda. Ularning tarkibida kichik bog‘larning tarixiy turlarini rivojlantirishdan tashqari, zamonaviy shakllangan kichik bog‘lar bilan qo‘shilib, o‘ziga xos guldastani tashkil etadi.

Kichik bog‘larning zamonaviy turlariga qishki bog‘lar, tom usti bog‘lari, xususiy uylar va jamoat binolarning hovli bog‘lari, monofunksiyali bog‘lar (haykallar bog‘i, favvoralar bog‘i, topiar bog‘lar, uzluksiz gullovchi gullar bog‘i, poliz bog‘lari), quruq peyzajli bog‘lar va moh bog‘lari, toshloq bog‘lar va ularning turli-tuman xillari (alpinariylar, rokariylar, tosh loq qirlar) kiradi. Va bu tasnif tizim bugungi kunda qotib qolgan emas, u rivojlanishdadir.

8. Ilmiy ishda tarixiy tajribalar sinovidan o‘tgan va zamonaviy landshaft arxitekturasi misollarida e’tirof etilgan beshta asosiy maj oziy belgilar asosida qurilgan kichik bog‘larning tipologiyasi aniqlangan:

"Bog‘ - guldasta " (jonli tabiatni taqlid qiluvchi dekorativ kompozision);

"Osilgan bog‘" (sun’iy yengillik, strukturaning fazoviy tuzilishiga qo‘shilishi);

"Uchrashuv joyi" (ijtimoiy muloqotning qulay muhiti) ;

"Bog‘ - ramz "(mo‘ljal, diqqatga sazovor joy, shahar atrofidagi ramz);

"Shaxsiy bog‘" (muallifning ijodiy tabiatini aks ettiruvchi noyob mualliflik qarori).


2.1.KICHIK BOG‘LARNI SHAKLLANTIRISHNING VATANIMIZ TAJRIBALARI
5
KICHIK BOG‘LARNI YARATISHNING VATANIMIZ TAJRIBALARI
(Muallif ishlanmasi)
RESPUBLIKAMZDAGI KICHIK BOG‘LAR TURLARI
MAQBARALAR QOSHIDAGI KICHIK BOG‘LAR
TOM USTI BOG‘LARI
JAMOAT BINOLARI QOSHIDAGI KICHIK BOG‘LAR
QISHGI BOG‘LAR
O‘QUV MUASSASALARI QOSHIDAGI KICHIK BOG‘LAR
HOVLI BOG‘LARI
SANOAT BINOLARI QOSHIDAGI KICHIK BOG‘LAR
KVARTALLAR ICHIDAGI KICHIK BOG‘LAR
DAVOLASH MUASSASALAR QOSHIDAGI KICHIK BOG‘LAR
MIKRORAYON KICHIK BOG‘LARI
SAVDO KORXONALAR QOSHIDAGI KICHIK BOG‘LAR
XOTIRA VA QADRIYAT BOG‘LARI
VA QADRIYAT KICHIK BOG‘LARI
MAQBARALAR QOSHIDAGI KICHIK BOG‘LAR
Buxoro shahri. Xotira maydoni
HAKIM AT-TERMIZIY MAQBARASI QOSHIDAGI KICHIK BOG‘
Davolash muassasalari qoshidagi kichik bog‘lar
Boysun Omonxona sanatoriyasining kichik bog‘i
TUMAN MARKAZIY SHIFOXONASI

## 2.2.KICHIK BOG‘LARNI SHAKLLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI

7




Yaponiyaning toshloq bog‘ilari



Yaponiya.Qadimiy hovli bog‘ining zamonaviy yechimi



Yaponiya. Bino tomlari ustidagi mo‘jaz bog‘lar







## 2.2.KICHIK BOG‘LARNI SHAKLLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI

8

### ZAMONAVIY KICHIK BOG‘LAR TIPOLOGIYASI, ULARNING MAJOZIY MAZMUNI (Ye.V. Lazareva bo‘yicha)

| BELGINING NOMI | TASVIRNING XUSUSIYATLARI | FOTO VA GRAFIK IFODASI |
|---|---|---|
| 1-BELGISI: BIR NECҺTA TURDAGI NUQTALARDAN TARKIBNI ShAKLLANTIRADIGAN DEKORATIV LANDShAFT | "Bog‘-guldasta"-landshaftning kichik bir qèñiè, tabiiy yorug‘likdan yengil sifatida uzilgan shuningdek, jonli tabiatni taqlid qiluvchi dekorativ kompozitsiyani ifodalovchi vaza ichiga qo‘yilgan gullar guldastasi. Bog‘gul-dastasiga quyidagi kichik bog‘lar kiradi:diagonallar bog‘i; bungalov bog‘i; hovuzli bog‘; favvoralar bog‘i; tropik bog‘; mavsumiy bog‘; yo‘llar bog‘i; suvli bog‘. |  |
| 2-BELGISI: TABIAT ShAKLLARI TASVIRINI O‘Z IChIGA OLGAN SUNЪIY YeNGILLIK | "Osilgan bog‘"- bu me'moriy shakllardan kelib chiqqan va undan ajralib turadigan strukturaning tarkibida joylashgan sun'iy landshaftning kichik bir qismi. Osilgan bog‘ga quyidagi kichik bog‘lar kiradi: ko‘prik bog‘i; qo‘llab quvvatlovchi bog‘; bog‘ narvon; tom usti bog‘lari. |  |
| 3-BELGISI: ANIQ CHEGARALAR, MUAYYAN AЪZOLIK, CHEKLANGAN KIRISh | "Bog‘ uchrashuv joyi" - shahar muhitining band bo‘lgan hududlarida yaqinida joylashgan sun'iy landshaftning kichik bir qèñiè bo‘lib, u juda aniq jismoniy chegaralarga ega bo‘lgan va tasviriy jihatdan ajralib turadi-gan, kompozitsiyaning izolyatsiyasi va atrof-muhitdan izolyatsiya qilingan qulay ijtimoiy muhitni yaratadi. bog‘ uchrashuv joyi bog‘iga quyidagi kichik bog‘lar kiradi: sog‘liqni saqlash bog‘i; uy bog‘i; gul bog‘i. |  |
| 4.BELGISI: MEЪMORIY ShAKLLAR VA LANDSHAFT ELEMENTLARINING RAMZIY YUKI | "Ramziy bog‘" - bu muhim ramziy yukga ega bo‘lgan va inson va tabiatning ideal, garmonik munosabatlari haqida ramziy shaklda ma'lumot berishga qodir bo‘lgan sun'iy landshaftningkichik bir qismi. Bog‘ ramziga quyidagi kichik bog‘lar kiradi: mox bog‘i; yodgorlik bog‘i; parijdagi tinchlik bog‘i;fransiya provintsiyasidagi maktab bog‘i; shisha bog‘i; cherkov bog‘i. |  |
| 5.BELGISI: KICHIK BOG‘NING SHAKLLANISHIGA MUALLIFNING YONDASH UVI, UNING NOMI VA REJASINI TALQIN QILISh. | "Shaxsiy bog‘" -bu shaxsiy yechim aniq o‘qiladigan sun'iy land-shaftning kichik bir qismi, muallifning kontseptsiyasi, unda nom , foydalanish usuli, funk-tsional rejalashtirish tashkiloti, ramz yoki metafora tasvirlangan. Shaxsiy bog‘ga quyidagi kichik bog‘lar kiradi: sevimli joy bog‘i; ikki kishilik bog‘; alyumin bog‘i. |  |


2.3.KICHIK BOG‘LARNI ME`MORIY- LANDSHAFT LOYIHALASHDA QO‘LLANILADIGAN TABIIY VA SUN`IY VOSITALAR
9
KICHIK BOG‘LARNI ME`MORIY LANDSHAFT LOYIHALASHDA QO‘LLANILADIGAN TABIIY VA SUN`IY VOSITALAR TARKIBI
(Muallif ishlanmasi)
KICHIK BOG‘LARDA TABIIY VOSITALAR TURLARI
KICHIK BOG‘LARDA SUN`IY VOSITALAR TURLARI
TABIIY VOSITALARGA
O‘SIMLIKLAR
SUV HAVZALARI
TABIIY REL`EF, ELEMENTLARI
TABIIY TOSHLAR
PARRANDALAR
QUSHLAR VA BALIQLAR DUNYOSI KIRADI
SUNЪIY VOSITALARGA
YER REL`EFI BILAN BOG‘LIQ QURILMALAR
GEOPLASTIK KOMPOZITSIYALAR
SUV QURILMALARI
MO‘`JAZ MILLIY ME`MORIY SHAKLLAR
TASHQI OBDONLASHTIRISH VA XALQ AMALIY SAN`ATI ELEMENTLARI
LANDSHAFTNI NURLI-RANGLI YORUG‘LANTIRISH QURILMALARI KIRITILGAN
KICHIK BOG‘LARGA QUSHLAR VA BALIQLAR DUNYOSINI KIRITISHGA AMILIYOTDAN MISOLLAR
IK BOG‘LARGA MO‘JAZ MILLIY ME`MORIY SHAKLLARNI KIRITISHGA AMALIYOTDAN MISOLLAR


2.3.KICHIK BOG‘LARNI ME`MORIY- LANDSHAFT LOYIHALASHDA QO‘LLANILADIGAN TABIIY VA SUN`IY VOSITALAR
10
KICHIK BOG‘LARGA XALQ AMALIY SAN`ATI ELEMENTLARINI KIRITISHGA AMALIYOTDAN MISOLLAR
KICHIK BOG‘LARNI YORITISHNING NURLI-RANGLI BADIIY KOMPOZITSIYALARI ANIQLANGAN
1 MANZARAVIY YORITISH
2 DEKORATIV YORITISH
3 O‘SIMLIKLAR GURUHINI YORITISH
4 GRLYANDLAR
5 FAVVORALAR TIZGINLARINI YORITISh
6 KICHIK LANDSHAFT KOMPOZITSIYALARNI YORITISH (KULUNBALAR, TEKIS PARTERLAR, RABATKALAR,YO‘LAKLAR, SOLITERLAR)
7 SUV HAVZALARINI YORITISH
8 BOSHQA LANDShAFT ELEMENTLARINI YORITISH (GEOPLASTIK ELEMENTLAR,YASHIL DEVORLAR)


2.4.KICHIK BOG‘LARNI LOYIHALASHNING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI VA TIPOLOGIYASI
11
KICHIK BOG‘LARNI LOYIHALASHNING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI
KICHIK BOG‘LARNI ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI IKKI QISMGA BO‘LINADI
ZAMONAVIY EKOLOGIK KICHIK BOG‘LAR GURUHLARI
“ART-LANDSHAFTLAR” GURUHLARI
ULARNING TURLARINI QUYIDAGI GURUHLARGA BO‘LISH MUMKIN
LOYIHALANAYOTGAN JOY TABIATINING BIR QISMI TARZIDA YARATILGAN KICHIK BOG‘LAR
LOYIHALANAYOTGAN BINO MUHANDISLIK TIZIMINING BIR QISMI SIFATIDA SHAKLLANTIRILGAN MO‘`JAZ BOG‘LAR
“YASHIL ARXITEKTURA” ARZIDA, YA`NI BINO VA BOG‘ MUSHTARAKLIGIDA YARATILGAN KICHIK BOG‘LAR.
ULARNING TURLARINI QUYIDAGI GURUHLARGA BO‘LISH MUMKIN
KINETIK G‘OYALARGA ASOSLANGAN KICHIK BOG‘LAR
BOG‘GA O‘YIN
BOG‘-ARTEFAKTLAR
BOG‘-INSTALLYATSIYALAR
SUN`IY ELEMENTLARGA EGA KICHIK BOG‘LAR.

## 2.4.KICHIK BOG‘LARNI LOYIHALASHNING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI VA TIPOLOGIYASI

12

### KICHIK BOG‘LARNING ZAMONAVIY TURLARI

1. KICHIK BOG‘LARNING ZAMONAVIY TURLARIGA QISHGI BOG‘LAR, TOM USTI BOG‘LARI, XUSUSIY UYLAR VA JAMOAT BINOLARNING HOVLI BOG‘LARI
2. MONOFUNKTSIYaLI BOG‘LAR (HAYKALLAR BOG‘I, FAVVORALAR BOG‘I, TOPIAR BOG‘LAR, UZLUKSIZ GULLOVChI GULLAR BOG‘I, POLIZ BOG‘LARI), QURUQ PEYZAJLI BOG‘LAR VA MOH BOG‘LARI
3. QURUQ PEYZAJLI BOG‘LAR VA MOH BOG‘LARI,TOSHLOQ BOG‘LAR VA ULARNING TURLI-TUMAN XILLARI (AL`PINARIYLAR, ROKARIYLAR, TOSHLOQ QIRLAR) KIRADI.
4. XITOY ZAMONAVIY BOG‘LARINI QUYIDAGI TURLARGA BO‘LISH MUMKIN
5. XITOYNING "VERTIKAL O‘RMON" UY-JOYLARNING BALKONIDA TASHKIL QILINGAN KICHIK BOG‘LAR SHAHAR KICHIK BOG‘LARI, XUSUSIY KICHIK BOG‘LARI
6. HOVLI BOG‘LARI, QIRLI BOG‘LAR, OLIMLAR BOG‘I, DARYOLAR QIRG‘OG‘IDAGI BOG‘LAR , KULUB TURUVCHI BOG‘LAR , HAYAJONLANTIRUVCHI BOG‘LAR, TINCHLANTIRUVCHI BOG‘LAR, AQLLI BOG‘LAR

## 2.4.KICHIK BOG‘LARNI LOYIHALASHNING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI VA TIPOLOGIYASI

13




### KICHIK BOG‘LAR HUDUDINI FUNKSIONAL ZONALARGA BO‘LINISHI

**O‘quv muassasalari qoshidagi kichik bog‘lar talabalar va o‘qituvchilarning dam olishini samarali tashkil qilishga qaratiladi. Bular universitetlar, akademiyalar, institutlar, litseylar, va boshqalar qoshidagi bog‘lardir. Ulardagi landshaft muhitini tashkil qilish qoidalari hududining me’moriy–landshaft yechimlari ushbu muassasalarning funksional talablariga bo‘ysunishi lozim. Bunday bog‘larda quyidagi maydonlarning bo‘lishi maqsadga muvofiqdir:**

- **talabalarning dam olish va muloqot maydonchalari;**
- **me’morial maydon;**
- **umumiy yig‘ilish maydoni;**
- **talabalarning bayram va festivallar o‘tkazish maydoni.**

**Savdo korxonalari qoshidagi kichik bog‘lar hududining aniq funksional zonalarga bo‘lingan bo‘lishi zarur. Ularda quyidagi zonalarning tashkillashtirilishi ko‘zda tutiladi:**

**-piyodalar intensiv harakati zonasi;**
**-ekspozitsiyalar zonasi va vaqtinchalik dam olish zonasi;**
**-vaqtinchalik dam olish zonasi do‘konlar;**
**-reklamali vitrinalar va piyodalar uchun xiyobonlar bilan o‘zaro bog‘langan dam olish maydonlari tizimidan iborat bo‘ladi.**

Ushbu maydonchalar kompozitsiyasiga gulzorlar, kichikroq favvoralar, dekorativ haykallar va boshqa dizayn elementlari kiritilgan bo‘lishi mumkin. Maydonchalarga o‘rindiqlar, axlatdonlar, yoritgichlar, konteynerlardagi gul butalar joylashtirilishi zarur

**Davolash muassasalari qoshidagi kichik bog‘lar hududi davolash komplekslarining funksional vazifalariga asoslangan holda aniq zonalashtirib chiqiladi. Kichik bog‘ni qurilishning janubiy tomonidan joylashtirish maqsadga muvofiq. Bog‘ning rejaviy tizimi muntazam va peyzaj usulida bo‘lishi mumkin.**

**Qaysi rejaviy usulni tanlash hududning relefiga, mavjud yashil ko‘kalamlarning joylashishiga va boshqalarga bog‘liq. Bog‘ hududi tashqi zararli omillardan yaxshi himoyalangan bo‘lishi kerak.**

**Davolash muassasalarida kichik bog‘ni shakllantirishdagi asosiy omil – bu o‘simliklardir.**

Daraxtlar va butalardan tuzilgan massiv (klen–yavor, soxta kashtan, olxo‘ri, cheremuxa va biryuchina obiknovennaya) asab zo‘riqishini pasaytirishga va yo‘qotishga yordam beradi va hokazo.

**Kottejlar, yozgi dachalar qoshidagi kichik bog‘lar quyidagi funksional zonalarga bo‘linadi:**

**Ularda, odatda, quydagi asosiy funksional zonalarni uchratish mumkin:**
**-ekinzorlar zonasi;**
**- bog‘ zonasi,**
**-mevali bog‘ zonasi;**
**- xususiy yoki tinch dam olish zonasi;**
**-bolalar zonasi;**
**-sport hamda oila a’zolarining dam olish zonalari.**

Uzoq xorijiy davlatlardagi kottej hovli bog‘larida, hatto ular kichikroq o‘lchamlarga ega bo‘lsa ham, suv qurilmalarining yaxlit bir tizimi, ya’ni o‘z rejaviy tarkibiga buloq, irmoq, dekorativ basseyn, cho‘milish basseyni kabi shakllarini qamrab olgan kompozitsiyalaridan ham foydalanilmoqda.

**2.4.KICHIK BOG‘LARNI LOYIHALASHNING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI VA TIPOLOGIYASI**

**14**

**Sanoat korxonalari qoshidagi kichik bog‘lar**





**Savdo korxonalari qoshidagi kichik bog‘lar**





**Mikrorayon kichik bog‘lari**





# III–BOB.
# O‘ZBEKISTON IQLIMI SHAROITIDA KICHIK BOG‘LARNI YARATISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

## 3.1. Kichik bog‘larni yaratish bo‘yicha ishlab chiqilgan me’moriy dastur

### 3.1.1. Kichik bog‘larning atributlari va semantikasi

Kichik bog‘ semantikasi – bu bog‘ning mafkuraviy, g‘oyaviy, falsafiy o‘ziga xosligini, kishini his-hayajon va mushohadalarga tortuvchi romantik tomon larini, me’moriy-landshaft alomatlarini belgilovchi atama hisoblanib, bu haqida adabiyot-larda shu choqqacha kam gapirib kelingan [42; 341. b].

Kichik bog‘lar semantikasini chuqurroq tushunish va his qilish uchun biz misol tariqasida yapon kichik bog‘ining semantik xususiyatlariga nazar tash lab ko‘raylik.

Yaponiya ona tabiatiga xos Tog‘u-toshlar, qoyalar, sharshara va irmoqlar, daraxt va o‘simliklarning, tabiiy havzalarning modellashtirilgan ko‘rinish lari an’anaviy yapon kichik bog‘larining asosiy alomatlaridir. Yapon jonli tabiatining mazkur tarkibiy elementlari tabiatda qanday mutanosiblik va uyg‘unlikda bo‘lsa, yapon kichik bog‘larida ham ular shunday tarzda timsollashtiriladi. Yapon kichik bog‘larining semantikasini yaxshiroq tasavvur qilish uchun bu mamlakatning o‘ziga xos geografiyasi va tabiiy-iqlim sharoitlariga hamda yapon xalqining diniy va dunyoviy tafakkuriga e’tibor bermoq zarur. Yaponiyaga xos o‘simlik va suv dunyosi, tog‘-toshlar, sharshara va shalola, irmoqlar, bularning barchasi Yaponiya ona tabiatining simvolikasidir. Yaponiya dini-dzen-buddizm va sintoizm ham yapon xalqini aynan ana shunga, ya’ni ona tabiat go‘zalligini yaxlit holda ko‘ra bilishga, uning elementlari orasidagi mutanosiblikni to‘g‘ri sezish va tushunish, to‘liq his qilishga undaydi. dzen-buddizm hatto ona tabiatni inson o‘zining barcha sezish organlari orqali, ya’ni faqat ko‘rib va ushlab emas, balki hidlab, eshitib va ta’mini totib ham ko‘rishga undaydi. Faqat shundagina inson ona tabiatni yaxshi tushunadi, sezadi va sevadi, deb tushuntiradi. Ko‘rib turibmizki, Yaponiya kichik bog‘larining semantik mazmunida yaponlarning ona tabiati, milliy mafkurasi va diniy axloqiy dunyoqarashlari yotadi.

Xo‘sh, endi O‘zbekiston kichik bog‘larining semantikasi qanday bo‘lishi kerak. Bu masalani ochib berishda akademik G.A. Pugachenkovaning O‘rta Osiyo me’moriy bog‘larining o‘ziga xosligi haqidagi quyidagi fikri o‘ta muhimdir: “O‘rta Osiyo me’moriy bog‘larida

manzarali va mevali o‘sim liklar birga qo‘shilib ekilgan. Dunyoning boshqa mamlakatlari bog‘larida bunday holat uchramaydi” [54; 185-214. b]. Kichik bog‘lar landshaftining asosiy qismini o‘simliklar tashkil qilar ekan, demak ularni tanlash va o‘zi ga xos ekilish usullarini qo‘llash, O‘zbekiston kichik bog‘lari semantikasi ni tashkil qiluvchi asosiy omillardan biridir.

Kichik bog‘larga xos me’moriy atributlar tarzida quyidagi landshaft qurilmalari va obyektlari taklif qilinadi: qurilmalar-bu hovuzlar; favvoralar; sharsharalar; shalolalar; ko‘priklar; haykallar; peyzajli maydonlar; chiroqlar; devor bo‘ylab dekorativ frizlar; suv tovush beradigan va suv labirintlarini shakllan-tiradigan dekorativ elementlar kiradi.

Kichik bog‘larda ko‘rpachada o‘tirib yoki oyoq uzatib dam olishga mo‘ljallangan milliy yostiqlar, gilamlar, “chorpoya” yoki “taxta ravon” lar bo‘lishi va eng muhimi ularning ostidan jildiragan “jannat ariqlari” suvi oqib o‘tishi maqsadga muvofiqdir. Bunday chorpoyalarning quyuq soya-salqinda, yopiq yashil manzaraviy muhitda bo‘lishi odatiy deb qaralishi zarur. Kichik bog‘ yo‘laklarining to‘shamalari tabiiy tosh yoki g‘ishtlardan terilgan tekis sahna va hoshiyalarga ega bo‘lishi, chorpoyalar qoshiga osilgan qafaslardagi kaklik va bedonalarning sayrashi ham kichik bog‘larning semantikasini bildiradi. (16 –ilova).

### 3.1.2. Kichik bog‘larni yaratishning me’moriy dasturi

Kichik bog‘larning me’moriy dasturini yaratishga qaratilgan tadqi qotlar aksari Islom mamlakatlari bog‘lariga xos bo‘lgan fundamental mavzu-“Chorbog‘” konsepsiyasi va bu bog‘ning me’moriy-rejaviy hamda land shaft dunyosini chuqur o‘rganishdan boshlanishi kerak.

Nima uchun kichik bog‘lar deganda aynan “Chorbog‘”ni o‘rganishimiz kerak? Gap shundaki, kichik bog‘ning genezisi, ya’ni ildizi “Chorbog‘” ga borib taqaladi. O‘tmishda, ayniqsa Amir Temir va Temuriylar davrida Samarqandda va Hirotda, Eronda, so‘ngra Shimoliy Hindistonda go‘zal kichik bog‘lar yaratgan bobolarimiz ularni “Chorbog‘” deb atashib, ularning me’ moriy-rejaviy va land-shaft yechimlarini aynan shu “Chorbog‘” uslubida yaratganlar. Me’moriy bo‘lmagan bog‘larni esa “qo‘riq” yoki “qo‘riqxona” deb ataganlar va bunday bog‘larda ham ov qilib dam olishgan, chavandozlik bilan shug‘ullanishgan [74; 53-55. b]. To‘g‘ri, bu chorbog‘larga alohida nomlar ham berishgan. Masalan, Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Jahonamo, Bog‘i Maydon, Bog‘i Shamol va hokazo. Biroq, bu bog‘larning me’moriy yaratilish tartiboti an’a naviy “Chorbog‘” va “Chorbog‘-xiyobon” usullariga asoslangan. Shunday ekan, agar biz kichik bog‘ni an’anaviy “Chorbog‘” uslubida yaratmoqchi bo‘lsak avva lambor O‘rta Osiyoda Temuriylar davri bog‘larining me’moriy asosi bo‘lmish ushbu

uslubga, uning mazmun va mohiyatiga murojat etmog‘imiz maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda, yuqorida ta’kidlaganimizdek, “Chorbog‘” uslubidagi me’moriy bog‘ning grafik rekonstruksiyalari yaratilgan. Mazkur uslubdagi bog‘-saroylarning me’moriy va landshaft yechimlari va ularning shakllanish tamoyillari ham ilmiy aniqlangan [51; 23-26. b]. Biroq, bu bajarilgan ishlarni kichik bog‘larning ilmiy asoslangan me’moriy dasturini ishlab chiqish va uni yaratish uchun yetarli darajada deb bo‘lmaydi.

Xo‘sh, unda nima qilish kerak? Bizga ma’lumki, “Chorbog‘” nafaqat O‘rta Osiyo xalqlarining tarixiy bog‘lariga xos, balki Islom sharq mamlakatlarining ham an’anaviy bog‘lariga xos bo‘lgan uslubdir.Shunday ekan, milliy kichik bog‘larni Islom mamlakatlari bog‘-park san’atidan ayri qarash yoki undan ajratilgan holda o‘rganish maqsadga muvofiq emas. Shu sababdan ham biz mazkur tadqiqotda kichik bog‘ning me’moriy dasturini yaratish maqsadida mazkur muammoni nafaqat Temuriylar va Boburiylar davri bog‘-park san’ati misolida, balki Islom mamlakatlari bog‘chilik san’atining zamonaviy amaliyoti rivojlangan Eron, Turkiya, Marakko, Suriya va ularning bu sohadagi tarixiy va zamonaviy tajribalarni ham o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi davrda Islom mamlakatlarida turli – tuman bog‘lar mavjud. Ular orasidagi asosiy farq turar joylar va shaharlar hududidan tashqarida joylashgan yirik tashqi bog‘lar va xususiy tarixiy turar joylar hovlilari tarkibiga kirgan mo‘jaz bog‘lardadir. Turarjoylar massivi va shahar tashqarisidagi yirik bog‘lar O‘rta Sharq mamlakatlarida, odatda, “bo‘ston” (forscha “mevali bog‘”) Shimoliy Afrikada “agdal” deb atalib, ular o‘tmishda yirik saroylar sohiblariga qarashli bo‘lgan [74]. Biroq, bugungi kunda bunday bog‘lardan ommaviy istirohat bog‘lari tarzida ham foydalanilmoqda. Marokash shahri atrofidagi Menar yoki agdal bog‘- saroylari ana shunday bo‘stonlardandir [37].

Har ikkala bog‘da ham sokin ulkan hovuzlar mavjud bo‘lib, ularning atrofiga zaytun va palma daraxtzorlari, mevali daraxtlar ekilgan. Ulardan kattasi agdal bog‘ining rejaviy kompozisiyasi o‘zida bir necha bor takrorlangan “Chorbog‘” lar panjarasini eslatadi. Bog‘ markazini ulkan hovuz – basseyn egallagan bo‘lib, uning atrofida bir – biri bilan to‘g‘ri chiziqli suv kanallari orqali bog‘langan mayda sug‘orish hovuz lari joylashgan. Bog‘ hududi devor bilan aylantirilib, uning ichidagi son-sanoqsiz kvadrat tarhli “Chorbog‘” larga turli mevali daraxtlar (apel’sin, limon, olxo‘ri, anjir va anorlar ) ekilgan. Bu chorbog‘lar bir-biridan sug‘orish kanallari bilan ajratib, o‘zaro zaytun xiyobonlari va sayr yo‘laklari orqali bog‘langan [37]. agdal va Menar bog‘larida gulzorlar yo‘q, biroq ular ulkan

yashil salqin maskanlar hisoblanib, suv havzalari bo‘yidagi shabbodalardan zavqlanib va daraxtlar soyalarida dam olib ommaviy hordiq chiqarish mumkin.

Islom dunyosining kichik bog‘lariga esa an’anaviy xususiy uylar va saroylar ichidagi mo‘jaz hovli bog‘lari kiradi. Bu kichik bog‘lar “Chorbog‘” kompozisiyasining alohida mahalliylashtirilgan va miniatyura lashtirilgan shakllari hisoblanib, o‘lchamlari jihatidan ancha kichik, yuzasi 6 kv.m.dan to kattaroq- 20 x 15 m gacha boradi. An’anaviy islom shaharlari Damashq, Fest, Aleppodagi xususiy uylar va saroy hovlilari dagi bog‘lar ana shunday mo‘jaz “Chorbog‘” lardir. Ularning aksarida markaziy favvora va hovuz mavjud bo‘lib, bitta-ikkita pal’ma daraxti yoki tuvaklardagi gullar uchraydi [37].

Issiq va quruq, jazirama iqlimli Islom mamlakatlarida suv nafaqat bog‘-park san’ati uchun, balki inson halovati uchun ham hal qil uvchi ahamiyatga egadir. Eron shaharlari, jumladan, Isfaxonda har bir hovlining kichik bog‘i bo‘lib, unda chinor, tol, behi va yong‘oq daraxtlari dan tushgan soyalar sariq, to‘q-sariq, yorqin qizil gulli, xushbo‘y hidli alohida ekilgan atirgul butalarini yopib, hovlida salqin soyali muhit yaratgan. Damashq shahri hovli bog‘larida ham shunga o‘xshash jozibador muhit mavjud. Xususan xususiy turarjoylar devorlari bilan chegaralangan hovli bog‘lari shahar ichidagi mo‘jaz “jannat bog‘lari“ ni eslatadi. Hovli bog‘larining aksariyatida favvora yoki hovuz, gullovchi buta lar va mevali daraxtlar mavjud [37].

Islom mamlakatlari bog‘larining boshqa bir guruhi “guliston” deb atalib, ular “bo‘stonlar” o‘rnini egallashlari mumkin. “Guliston” devor lar bilan aylan-tirilib, chirmoviq atirgullar bilan burkangan ko‘shk yoki bir necha atirgul butalaridan tuzilgan gullik hovli bog‘laridir.

Bulardan tashqari, islom dunyosida memorial “maqbara bog‘lar” ham mavjud bo‘lib, ular ilik bor Shimoliy Hindistonda Boburiylar davrida shakllan-tirilgan [74]. Maqbara bog‘larning kompozisiyaviy tuzilishi ham aslida atrofi devorlar bilan aylantirilgan “chorbog‘” uslubidagi an’anaviy bog‘larga asoslanib, bog‘ markaziy yoki to‘riga endi bog‘ ko‘shki emas, balki vafot etgan kishining dahmasi qo‘yilgan maqbara binosi qurilgan. Maqbara bog‘lar manzarasi va muhiti hovli bog‘laridan farq qilib, markazdan tashqariga ufqning to‘rt tarafiga qaratilgan bog‘lardir.

Ularga mos qilib bizgacha saqlangan uchta mashhur tarixiy bog‘ni keltirish mumkin: Agradagi I’timod ad-davla maqbara bog‘i (I’timod addavla Boburiy Jahongirshoh davrida (1605-1627) davlat xazinachisi bo‘lgan), Lahordagi Boburiy Jahongirshoh maqbara bog‘i va Agradagi Toj Mahal maqbara bog‘i [74; 244. b]. Oxirgi bog‘ ushbu bog‘lar ichidagi me’moriy, dizayn va landshaft yechimlariga ko‘ra eng takomiliga ettirilgan qurilgan bog‘dir. Uning tuzilishi asosida ham an’anaviy “Chorbog‘” bog‘ining me’mo

riy yaratilish g‘oyasi yotadi. Nafaqat Toj Mahalda, balki Islom mamlaka tlari bog‘larining yuqorida bayon etilgan barcha turlarida ham “Chorbog‘” uslubining u yoki bu xil shakllaridan foydalanilgan [84; 162.b].

Yirik bog‘larda, masalan, Marokkashdagi Agdal bog‘larining tarhi da “Chorbog‘” chizmasi bir necha bor takrorlangan va tashqi ko‘rinishidan qara-ganda modulli simmetrik rejali bog‘ shakllangan. Umuman olganda, an’anaviy “Chorbog‘” shaklida Qur’onda yozilgan jannat bog‘i aks ettiri lib, u falakdagi Alloh ramzi va osmon bog‘ini anglatadi [57; 506.b].

Barcha islom bog‘lari, ularning xillari va qayerda joylashishidan qat’iy nazar ularga xos bo‘lgan asosiy tarkibiy tamoyil-bu suv havzalari va quyuq soya hosil qiluvchi qurilmalar hamda ularning turli shakllari (voish, shiypon, ko‘shk ) larni qo‘llashdir.

Qur’oni Karim barcha musulmonlar uchun muqaddas. Shu bois undagi tabiatga bo‘lgan ehtirom va jannat bog‘ining ta’rifi an’anaviy o‘zbek bog‘ining semantikasini tushunishda yoki uni yaratishda katta ahamiyat kasb etadi.

Qur’oni Karimning 55-Rahmon surasida ikki juft jannat bog‘lari haqida so‘z ketadi [58]. Birinchi juft jannat bog‘lari son-sanoqsiz “shox-novdalarga ega” deb ko‘rsatilgan. Bu bog‘larda “barcha mevalarning juft navlari borki,” ular suvni “ikki oqar jannat chashmalari” dan ichadi. Shuning uchun ham ular doim sermeva va soya-salqindir.

Qur’onda bu bog‘larning “mevasi jannat ahliga yaqindir” deb aytilgan. Bu oyat mazmunini biz o‘sha mevali daraxtlarning bog‘da dam oluvchilar va sayr qiluvchilar yo‘laklariga yaqin tarzda ekilganligidan, deb tushundik.

Ikkinchi juft jannat bog‘lari esa birinchi juft bog‘laridan quyiroqda joylashib, daraxtlarining bo‘yi ancha baland, sershox, yanada seryaproq va sersuvdir, shu bois ular birinchi juft bog‘lariga ko‘ra “qoramtirroqdir” [58; 155-392. b].

Ularda tinmay otilib turuvchi ikki chashma, ya’ni favvoralar bordir. “Bu bog‘larda xurmo, anor, anjir va zaytun daraxtlari mavjud”.

Jannat ahli bog‘da “yashil bolishlar, go‘zal gilamlar va shoyi ko‘rpachalar ustida o‘tirib dam oladilar”. Mazkur sura oyatlarida jannat bog‘larining xushhulq hurliqolari va go‘zal yuzli ayollari borligi, bu hurliqolarning chodirlarida turishi ham qayd etilgan [58; 155-392. b]. Ko‘rinib turibdiki, Qur’onning Rahmon surasida ikki juftdan iborat to‘rtta jannat bog‘lari haqida so‘z yuritilgan.

“Jannat” tushunchasi va uni bog‘ tarzida tassavur qilish odati Sharq mamla-katlari xalqlarida faqat Islom davridagina emas, balki qadim zamonlardan buyon shakllanib kelgan. Bunday tassavur xristianlik va hatto

iudizimdan ham ancha avval, Mesopotamiyadagi Shumerlar davrida (eramizgacha 4000-yillarda) yuzaga kelgan, deb hisoblanadi. Ilohlarning jannat bog‘lari haqidagi fikrlari insoniyatiga ma’lum bo‘lgan ilk yozma yodgorliklarda ham uchraydi. Kiyinroq (eramizgacha 2700-yillarda ) bobilliklar Gilgamish haqidagi eposda o‘zlarining “Ilohiy jannat” haqidagi tushunchalarini shunday yozganlar: “Bu boqiy dunyodagi jannat bog‘ida Daraxt bo‘lib, u muqaddas chashma yonida joylashgan” [58]. Ko‘rib turibmizki, jannat bog‘ida ikki asosiy narsa: daraxt va suv bor. Demak, bunda daraxtdan tushgan soya va meva ham bor. Qur’onda bu bog‘lar “Jannat al-firdaus” (ya’ni “jannat makon bog‘lar”) deb atalgan.

Islom Sharqi mamlakatlaridan keng tarqalgan bog‘larni aks ettiruvchi boshqa sharqona atamalar, xususan “chorbog‘”, “choharbog‘”, “bo‘ston”, “guliston”, va “payridez”, forsiy so‘zlar bo‘lib, ular bu atamalarning genezisini, ya’ni kelib chiqishini ham o‘zlarida aks ettirgan. Bu yerdagi “chorbog‘” yoki “choharbog‘” so‘zlari to‘rt qismdan tuzilgan bog‘ ma’nosini bersa. “bo‘ston”-“mevali bog‘”ni, “guliston”-“gullar bog‘i”ni, “payridez”, esa payri-atrof, dez-devor, ya’ni “atrofi devor bilan o‘ralgan bog‘-jannat” ma’nosini anglatadi [37; 8-60. b].

“Payridez”lar aslida Axamoniylar (eramizgacha 590-300 yy.) va Sosoniylar (eramizning 200-300 yy.) davrida qadimgi fors podshohlarining ov qilib hordiq chiqarishiga mo‘ljallangan bog‘lardir [37]. Ular hududi baland devorlar bilan o‘ralgan bog‘lar ko‘rinishida shakllangan. Bu bog‘lar tashqi muhitdan yopiq, ya’ni ajratilgan va istirohat maqsadlariga mo‘ljallangani bois, yevropaliklar, xususan inglizlar ularni “paradise” deb, jannat bog‘lariga qiyoslanganlar [81; 239. b].

Darhaqiqat, islomdagi "jannat" so‘zida ham atrof muhitdan butkul ihotalangan, o‘zining ichki sirlari va sifatlariga ega bo‘lgan jannatmakon bog‘lar tasvirlangan. Islom Sharq mamlakatlaridagi bog‘lar chetini devorlar bilan o‘rash, ya’ni ihotalash aynan ana shunday tushunchalar asosida kelib chiqqan bo‘lsa ajab emas. Shuning uchun ham o‘rta asr miniatyura laridagi sharqona bog‘lar yoki chorbog‘lar atrofi baland devorlar bilan to‘sil gan ko‘rinishda tasvirlangan.

Suvga tanqis, issiq, jazirama iqlimli Sharq islom mamlakatlari (Eron, Arabiston, Afg‘oniston, O‘rta Osië) an’anaviy bog‘larining rejaviy tuzilishi ularda qo‘llanilgan sug‘orish va irrigasiya tizimiga ko‘p jihatdan bog‘lik bo‘lgan. Tekis hududlar uchun eng qulay va tejamli irrigasiya tizimi, ma’lumki, bu to‘g‘ri chiziq shaklida o‘tkazilgan ariq va kanallardir. Aynan shu boisdan ham ushbu mamlakatlar an’anaviy bog‘i "Chorbog‘" ning Tarxiy va hajmiy tuzilishi to‘g‘ri geometrik chiziqlar simmetriyaga asoslangan desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Sharq mamlakatlari bog‘lari uchun suv va soya hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yevropa ilohiy bog‘larining ruhi ulardagi gullar. maysalar va daraxtlarda aks etgan bo‘lsa, Sharq mamlakatlari bog‘larining ruhi boshqa narsada, ya’ni oqar suv va uning turfa xil go‘zal ko‘rinishlari va bog‘larda yaratilgan soya salqinlardadir.

Shunday qilib, ushbu dastur 16 ta qoidadan iborat bo‘lib, unda kichik bog‘larning atributlari va semantikasi, kichik bog‘larda qo‘llaniladigan landshaft kompozisiyalari, suv qurulmalari va mo‘jaz me’moriy shakllar bo‘yicha quyidagi tavsiya va takliflar berilgan:

1. Kichik bog‘ning me’moriy-rejaviy va landshaft yechimini joy relyefiga mos tarzda shakllantirish; tekis hududlarda muntazam rejali yoki erkin kompozisiyali bog‘lar yaratish; qiyaliklarda esa bog‘ hududini muntazam rejaviy yechimlarda ishlangan tekis pog‘onalarga bo‘lib chiqish;
2. Kichik bog‘ markazidan zilolsuvli “jannat hovuzi”, uning o‘rtasida bog‘ ko‘shkining joylashishi va uning choratrof bilan ko‘priklar orqali bog‘lanishi;
3. Bog‘ ko‘shkini tabiiy yoki sun’iy ishlangan tagkursi, platforma yoki stilobatga joylashtirish.Ko‘shkining bog‘ sathiga nisbatan yuqoriroqda, ya’ni “jannat hovuzi” sathidan balandroq tagkursida qurilishi;
4. Kichik bog‘ atrofida xushbo‘y gullarning o‘sib turishi;
5. Kichik bog‘da sayrgoh xiyobonlar, bog‘ yo‘laklarining tashkil etilishi;
6. Kichik bog‘ xiyobonlarining boshi va oxiri, kesishgan joylarining go‘zal me’moriy kompozisiyalar (hovuz, favvora, ko‘shk, voyish, ravoq va shu kabilar) bilan bezalishida;
7. Kichik bog‘larni quyosh nurini e’tiborga olib, ufq tomonlariga mos holda ko‘kalamlashtirish va bog‘da ko‘proq soyali muhitlarning tashkil etilishi;
8. Kichik bog‘ yo‘laklari chetida gullar shunday ekilsinki,ular erta bahordan to kech kuzgacha ochilib tursin;
9. Kichik bog‘da nafaqat manzarali, balki mevali daraxtlarning ham tartib bilan ekilishi. O‘zbek xalqiga azaldan mahalliy hisoblangan manzarali daraxtlardan tol, terak, qayrag‘och, sarv, archa, ar’ar, majnuntol kabi daraxt lar, mevali daraxtlardan olmalarning turli xillari hamda o‘rik, shaftoli, anor, xurmo, nok, olcha, anjir, uzum va bodomlarning turli navlari dan foydalanish;
10. Kichik bog‘da qo‘lga o‘rgatilgan ohular va jannat qushlari-tovuslarning erkin yurishi. Bog‘ hovuzlarida turli rangdagi baliqlarning suzib yurishi;
11. Kichik bog‘da milliy oshxona va choyxonaning bo‘lishligi. Choyxonada stol-stullar emas, ustiga xontaxta va milliy dasturxon to‘shalgan

chor-poyalarning bo'lishligi, ular yonidagi voishlarda esa kakliklar va bedanalarning sayrab turishi;

12. Kichik bog'da ko'rpachada o'tirib yoki oyoq uzatib dam olishga mo'ljal-langan milliy yostiqlar, gilamlar, "chorpoya" yoki "taxtiravon" lar bo'lishi va eng muhimi ularning ostidan jildiragan "jannat ariqlari" suvining oqib turishi;

13. Kichik bog' ariqlaridagi suv quyosh nuri ostida emas, balki soyadan oqqani yaxshi. Bog'da hovuzlar atrofiga sersoyali dov-daraxtlar ekilishi, Masalan: chinor, majnuntol, eman, kashtan va boshqalar. Shunda hovuz yuzi soya bilan yopiladi, suv toza turadi, sog'lom yopiq yashil muhit hosil bo'ladi;

14. Kichik bog'ning o'zi va bog' inshootlari (imoratlar, saroy, favvora, hovuz, so'ri, chorpoya, yo'lak, ariq) bog'ning muhim tarkibiy qismlari deb qaralib, ularning kompozisiyasi esa tarhi va hajmiga ko'ra o'zaro uyg'un bog'lanishda bo'lmog'i zarur;

15. Kichik bog'ning suv va soya, bog' muhiti va imoratlari uyg'unligining ta'minlanishi, kontrast va nyuans, ritm kabi badiiy-me'moriy vositalar dan samarali foydalanish, kichik bog'da ochiq va yopiq yashil muhitlar, bog' senariyasi ketma-ketligining ta'minlanishi. Bog'da kishini bog'ning eng ahamiyatli kompo-zisiyalarini sezishga, insonni she'riyatga, adabiyotga undovchi, tarixiy me'rosga qalban yaqin bo'lishga va shaxs ruhiyatini romantik boyituvchi peyzajlar, me'moriy shakllar va landshaft dizayni qurilmalarining bo'lishligi;

16. Kichik bog'da yuqoridagi funksiyalar va me'moriy sifatlar bo'lmog'i, to'g'rirog'i bu sifatlar uning eng muhim me'moriy-landshaft tamoyil laridan bo'lmog'i kerak. Bu sifatlar kichik bog'da suv dunyosining turli me'moriy shakllari (ariqlarda jildirab oqayotgan suvi, agar bog' qiyalikda joylashgan bo'lib, sahin tekis pog'onalarga bo'lingan bo'lsa shalola lardan shildirab oqayotgan suv) ham kichik bog'iga xos muhim hususiyatlardan bo'lishi kerak.

Kichik bog'da ana shu tamoyillar yetakchi o'rinni egallashlari zarur. Bu asosiy me'moriy tamoyillarga manzarali va mevali daraxtlar, kuzalib sun'iy sha-kllar berilgan manzarali daraxt lar, tokzor (uzum), gulzor va sabzovotlar hamda qo'lga o'rgatilgan hayvonat dunyosiga ham tegishli joy va o'rin berilishi shart. Ana shundagina bu kichik bog' nafaqat o'zbekning, balki boshqalarning dilini ham yaratish xususiyatiga ega bo'ladi.

Bunday kichik bog'dagi ariq suvlari chorpoyalar, ko'shklar va daraxtlar soyasi tagidan jildirab oqib o'tmog'i, hovuz va favvoralar dagi suv sahni esa sayr qilish yo'laklaridan past bo'lib, ularning yuza siga quyuq soya tushmog'i zarur.

Kichik bog‘lar bunday sifatlarga tom ma’noda ega bo‘lmog‘i, to‘g‘rirog‘i bu sifatlar uning eng muhim me’moriy-landshaft tamoyillaridan biri bo‘lmog‘i kerak. Kichik bog‘dagi suv dunyosining turli me’moriy shakllari (ariqlarda jildirab oqayotgan suv,favvoralardan tizilib otilayotgan suv, sokin hovuz suvi, agar bog‘ qiyalikda joylashgan bo‘lib, sahni tekis pog‘onalarga bo‘lingan bo‘lsa shalolalardan shildirab oqayotgan suv) ham kichik bog‘ga xos muhim xususiyatlardan bo‘lishi kerak.

Kichik bog‘lar o‘zida yuzaki chiroy, manzaraviylikni emas, balki tabiat go‘zalligi va tartibotini, inson va tabiatning ilohiy yaxlitligi ni chuqur bilish va tushunish asosida yaratiladigan an’anaviy “Chor bog‘” uslubidagi jannatiy bog‘ bo‘lmog‘i kerak [72; 73].

Shuni unutmasligimiz kerakki, bizning hozirgi kunlarimizda Kichik bog‘ va umuman tabiat tushunchalari har qanday milliylikdan, irqiy, diniy va mafkuraviy tushunchalardan yuqori turishi kerak. Chunki, masalan, yapon yoki fransuz bog‘i nafaqat yapon va fransuzlarga, balki barcha ahli-insonlarga ham birday go‘zallik baxshida etishi hammamizga ma’lum. Shunday ekan kichik bog‘ning ham ana shunday go‘zal sifatlarga va ulardan ham yuqori jannatiy fazilatlarga ega bo‘lishi kutiladi.

Kichik bog‘dagi gulzorlar manzarasini jozibalashtirish va bo‘rttirish uchun ularning burchaklariga bittadan sarv daraxtini ekish, shuningdek, kichik bog‘ning bosh xiyoboni bo‘ylab ham qatorlab sarvlarni ekish; qatorlab ekishda sarvdan tashqari qora archalardan hamda sitrusli va xushbo‘y hidli daraxtlardan foydalanish zarur. Hovuz va havzalar yuzasini soyalashtirish uchun, ularning atrofiga barglari tushmaydigan sadaqayrag‘och, arar kabi daraxtlar ekish; kichik bog‘ning esa yashil shamshod tusiq majnuntol (panjara)larini shakllantirish uchun chirmashuvchi va tirmashuvchi o‘simliklar (chirmashib o‘suvchi o‘simliklar)ni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. (16-17-18-ilovalar).

## 3.2. Bog‘larda qo‘llaniladigan o‘simliklar va landshaft kompozisiyalari bo‘yicha tavsiyalar

Kichik bog‘dagi eng muhim masalalardan biri unga ekilgan ekinlar, daraxtlar turi va ularni ekishda qo‘llangan landshaft kompozisiyalaridir. Bu masalada avvalo shuni ta’kidlash lozimki, O‘rta Osiyo me’moriy bog‘larida mevali va manzarali daraxtlar birgalikda ekilgan. Chorbog‘dagi mevali daraxtlar turiga XVI asr boshida Hirotda ёzilgan "Iroshoduz ziroat fi ilmil harosat" asarida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra o‘rik (zardolu), bodomning bir necha xillari, shaftoli, anor, behi, olcha, gilos, nok, anjirning bir necha

navlari, jiyda, tut va pistalar kirgan hamda alohida uzumzorlar tashkil qilingan [51: 42a-42. b].

Sharofiddin Ali Yazdiy Temurning Samarkand atrofidagi Dilkusho bog‘ida turli-tuman mevali daraxtlardan tashqari bog‘da o‘stirilgan ayrim uzum navlarini ham sanab o‘tadi. Ular ichida shakar angur, soxibi, xusayni, lali yak dona kabilar keltirilgan [78; 12. b].

Bog‘larda mevali daraxtlar va toklardan tashqari soya-salqin beruvchi, o‘zidan xushbo‘y hid tarqatuvchi manzarali daraxtlar: tol (tabar xun), mirza terak (Safidori Samarqandiy), chinor, sarv va arbar (qora archa) kabi daraxtlar o‘rin olgan. Majnuntollar, sarv va ar’arlar bog‘lardagi hovuzlar atrofiga ekilgan.

Bog‘larda mevali va manzarali daraxtlardan tashqari har xil gullar va ko‘katlarga ham alohida joy ajratilgan. Tarixiy kitoblar (Niyoziy, Bobur, Xondamir, Sharafiddin Ali Yazdiylarning asarlari)da ularning quyidagi turlari qayd qilingan: hamisha bahor, savsani rasmiy, xanjariy, kuk binafsha, salbar, za’faron, nargiz, bog‘ lolasi, tog‘ lolasi, dardari go‘sh, dardari kokiliy, oddiy savsan, saxroyi savsanning bir necha turlari, oddiy shaloyik, shabbo‘y, sariq lola, nastarin, bag‘dodiy, kazgo, guli rano, ko‘knor gul, sariq yosumon, guli shash moha, nilufar, karanfulgul, savsani xatmiy, shab va duston, chaman afruz va gultojixo‘roz kabilar ma’lum. Bu gullar shunday tartibda ekilganki, biri ochilib tugasa, ikkinchisi gullay boshlagan [11; 108-123. b]. Bu an’analar chorbog‘ uslubidagi bog‘lar yechimida muhim memoriy-rejaviy va landshaft tartiboti tarzida ko‘p asrlar davomida qo‘llanib kelingan.

Bog‘lardagi xiyobonlar bosh yo‘l va sayrgoh yo‘laklarning ikki tarafiga quyosh yo‘nalishiga qarab soyabon daraxtlar va mavsumiy gullar ekish orqali tashkil qilingan.

Xiyobonlar daraxt va o‘simliklarning ekilish tartibiga qarab ochiq yoki yopiq ko‘rinishlarda bo‘lgan. Ochiq xiyobonlarda daraxt shoxlari bir-biriga qo‘shilib ketmagan. Yopik xiyobonlarda esa, aksincha, daraxtlar o‘sib yo‘lak ustini yuqoridan yopib qo‘ygan. Natijada bunday xiyobonlar sersoya va salqin bo‘lgan, yo‘lak chetiga qo‘yilgan o‘rindiqlarda o‘tirib, hordiq chiqarib dam olingan. Bosh xiyobonlar, hovuzlar bo‘ylaridagi supalar va ayvonlar atroflari, chorbog‘ devorlari qoshiga manzarali daraxtlar, sayrgoh yo‘lakchalar, chorchamanlarga esa mevali daraxtlar ekilgan.

Kichik bog‘lar ichida ikki xil manzarali muhit: sersoya ochiq va yopiq yashil muhitlarni kuzatish mumkin. Yopiq yashil manzaraga, odatda, sersoya xiyobonlar, daraxtzor yo‘laklar kirsa, ochiq yashil muhitga maysazor, bedazorlar, gulzorlar va chamanzorlar kirgan. Har ikkala muhitning maydoni nisbat jihatidan bir biriga taxminan teng bo‘lgan [8; 40. b]. Yopiq va ochiq muhitda yashil maydonlar bir-biridan landshaft, havosining musaffoligi, namligi va haroratiga qarab farq qilgan, yopiq yashil muhitda havo issiqligi

sezilarli ravishda past, nisbatan nam, ochiq yashil muhitda esa aksincha. Har ikkala muhit mikroiqlimi orasidagi ushbu fark tufayli bog‘da yozning jazirama issiq kunlarida ham yengil shabada tulqini sezilib turgan. Ushbu samara chorbog‘ uslubidagi O‘rta Osiyo bog‘lariga xos bo‘lib, sersoya suv havzalari atrofidagi chorpoyalarda yanada sezilarli va zavqli bo‘lgan. X. Po‘latovning "Chorbog‘" maqolasida (O‘zbekiston milliy ensiklo pediyasi, 9-jild) ekinlarni ekish xususida kuyidagilar yozilgan: "Baland bo‘yli daraxtlar bog‘ devoriga yaqin ekiladi, undan so‘ng mevali daraxtlar va gullar tartib bilan ekiladi, ularning erta baxordan kech kuzgacha ochilib turishiga e’tibor beriladi".

Boburiylar bunyod etgan bog‘larda Jaxongirshox birinchi bo‘lib "Chorchinor" uslubini qullagan. Bu uslubga ko‘ra, kvadrat yer sathining to‘rt chekkasiga to‘rtta chinor daraxti simmetrik tarzda ekilgan. Buning natijasi da chorchinorlar egallagan bog‘ maydoni kun bo‘yi soya-salqinda bo‘lgan.

Chinorga alternativ tarzda keng va tig‘iz soya beruvchi zarang, qayrag‘och, kashtan va yapon saforasi kabi daraxtlarni ko‘rsatishimiz mumkin. Hozirgi istirohat bog‘larimizda chinor o‘rniga kashtan daraxti keng qo‘llanilmoqda. Chunki, u nafaqat quyuq soya beradi, balki chiroyli gullaydi ham. Sharq bog‘larining go‘zali hisoblangan sarv daraxtini esa o‘zgartirishga hojat yo‘q. u xushqomat, doim yashil, nina bargli ustunsimon daraxt. Uning ko‘kimtir turlari ham mavjud [9; 192. b]. Birok, soya hosil qilishda chinor, dala zarangi va maklyuralardan o‘tadigani yo‘q. Sharqona sarvga Irlandiyaning tis daraxti ham o‘xshab ketadi. Bog‘larda uni qo‘llash ham yaxshi samara berishi mumkin. Juda baland, doim yashil, xushqomat kedr ham ustunsimon shaklli igna bargli daraxtdir. Baland sarv va kedr daraxtlaridan xiyobonlarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Sharqona bog‘larda sarv yoniga mevali daraxtlar ekish odatiydir. Bunday holat Sharq miniatyuralarida ham o‘z aksini topgan.

Sarv va uning yoniga ekilgan gullik, mevali daraxt hayot umrboqiyligi va o‘tkinchiligiga, tabiatning erkaklik va ayollik ramzlariga ham ishoradir. Ehtimol shu sababdan ham O‘rta Osiyo, Shimoliy Hindiston va Pokiston bog‘larida sarv va mevali daraxtlar (olma, nok, olxo‘ri, o‘riklar) birga ekilgan. Bu daraxtlar ko‘zni qamashtiruvchi mevalaridan tashqari davomiy issik yoz kunlarida salqin soya hosil qilishga ham qodirdirlar. Islom bog‘larida sarvlarni juft holda ekish ham odatiydir. Aytishlaricha, ular Layli va Majnun sevgilarining ramzlarini berar ekan [60]. Islom bog‘larida o‘simliklarni kuzab, ularga turli xil naqsh ko‘rinishlarini, masalan girix, islimiy naqshlar berish, yashil devorlar, darvozalar, toklar, bordyurlar shakllarini yasash mumkin.

Islom mamlakatlari tarixiy bog‘lariga keng maysazorlar xos emas. Buning asosiy sababi issiq va quruq iqlim sharoitida maysazorlarni o‘stirishning qiyinchiligidadir. Biroq, hozirgi vaqtda bunga imkon beruv chi zamonaviy texnik qurilmalar mavjudki, ular yordamida serquyosh o‘lkalar da ham maysazorlarni hech qiyinchiliksiz o‘stirish mumkin. Agar biz Qur oni Karimda ko‘p martalab eslatilgan jannat bog‘larining ilohiy yashil va Islom bayrog‘ining ham shu rangda ekanligini eslasak, zamonaviy kichik chorbog‘larda ham yam-yashil maysa-zorlarning bo‘lishligiga e’tirozimiz yo‘q. Buni ayniqsa, Toshkentning Mustaqillik maydonidagi maysazorlar isbot lab turibdi.

Ma’lumki, Amir Temur va Temuriylarning Samarqand bog‘larida uzum-zorlar va anjirzorlar ham bo‘lgan. Samarqandning Bog‘i Baland bog‘iga qarashli anjirzorlarning bir qismi hozirgacha saqlanib qolgani buning isbotidir. Xo‘sh, agar biz Temuriylar davri Chorbog‘larini tiklasak, ularga xos o‘sha uzumzor va anjirzorlarni ham tiklaymizmi? Albatta, tiklanaëtgan an’anaviy Chorbog‘ asliga o‘xshashi va uni bizga eslatishi shart. Faqat tokzorlar tanasini yer bag‘irlatib emas, balki an’anaviy soyabon uslubida, ya’ni baland, ingichka ustunlarga o‘rnatilgan yassi panjaralar ustiga chiqarish maqsadga muvofiqki, soyabonlar ostida o‘tirgan yoki yurgan kishi osilib turgan uzumlarni bemalol ko‘rsii va uzib iste’mol qilish imkoniyati bo‘lsin. Toklarni ko‘tarib qo‘yishning bu kabi tajribalari O‘rta Osiyoda hozirgacha saklanib qolgan. Bir vaqtning o‘zida tartibli yashil tokzor va soyabonga ega bo‘lish, tokzorlar ostidan unumli foydalanish, unda o‘tirib dam olish, g‘arq pishgan uzumlarni tomosha qilish va tatib ko‘rish, bu uslubning samarali xususiyatlaridandir.

Arxitektura nomzodi L.A. Adilova o‘zining "Принсипи формирования ландшафтов городов, расположенних в сухом жарком климате Узбекистана" nomli dissertasiyasida (1984 y.) sug‘orish kanallari va ariqlar tizimi atrofidagi landshaftlarni shakllantirish, ya’ni daraxtlar va butalardan tuzilgan landshaft kom-pozisiyalarini tashkillashtirishning bir qator usullarini taklif qilganki, kelajakda ulardan bog‘ landshaftini shakllantirishda ham unumli foydalanish mumkin [38; 184. b].

O‘tmishda me’moriy bog‘lar dil ochuvchan va ertaknamo bo‘lishligi uchun ularni chiroyli hayvonotlar bilan bezaganlar. Bog‘da sayr qilib yurgan oxu va tovuslar, hovuzlarda suzib yurgan baliqlar, o‘rdak va g‘ozlar shular jumlasidandir.

Tovuslar bog‘lar bezagi uchun yaratilgan maxsus qushlar bo‘lib, Temuriylar yaratgan bog‘larda turli xil shunday qushlar bo‘lgan.

Klavixo xam Temurning Samarkanddagi Davlatobod bog‘ida ohu va tustovuqlar bo‘lganidan dalolat beradi [41; 104-115. b]. Bog‘lardagi

hayvonot olamini ko‘pgina nafis suratlar (miniatyuralar)da ham uchratish mumkin.

Hirot bog‘larining birini maxsus "Hovuzi Moxiyon" (Baliqlar hovuzi) bezagan [17; 92. b]. Bunday jonzotlar Sharq bog‘lari xusniga xusn qo‘shgan.

Ko‘cha va maydonlarga faqat nina bargli daraxtlarni ekib, landshaft kompozisiyasini kambag‘allashtirib qo‘yish ham yaramaydi. Ular orasiga yapa lok bargli ko‘rkam, shu bilan birga bargini bir tekis tashlovchi, maydon ni ifloslantirmaydigan manzarali daraxtlar (shumtol, oq terak, majnun tol, kashtan, safora, chinor, zarang va shularga uxshash) daraxtlar ekilsa, kompo zisiyaga tarovat bag‘ishlanadi (19-20-21-22-23-24-25-ilovalar).

### 3.3. Kichik bog‘larda qo‘llaniladigan suv qurulmalari va mo‘jaz me’moriy shakllar bo‘yicha tavsiyalar

Kichik bog‘ning bog‘ bo‘lishi, yashnab gurkirashi uchun birinchi navbatda suv masalasi to‘g‘ri hal qilingan bo‘lishi lozim. O‘tmishda bunyod etilgan bog‘lar daryolardan qazilgan kanallar, maxsus rezervuarlar, tabiiy buloqlar suvi, ko‘llar, katta ariqlar suvi bilan sug‘orilgan. Boburning yozishicha, Ko‘xak, ya’ni Zarafshon daryosidan Darg‘om kanalidan Samarqandning janubi va uning atrofidagi tumanlar va bog‘lar suv ichgan [32; 11-44. b].

Samarqanddan shimolda va sharqda joylashgan bog‘lar esa (Bog‘i Baland, Bog‘i Maydon, Bog‘i Naqshijahonlar) Obirahmat arig‘ining suvi bilan sug‘orilgan. O‘. Alimov I.A. Suxarevning tadqiqotlari va boshqa yozma manba larga asoslanib, Samarqandning janubiy sharqiy qismlaridagi bog‘lar Zarafshon daryosidan qazib chiqilgan Abbos va Koraunas kanallari yordamida sug‘orilgan, degan fikrni bildiradi [69; 102-123. b].

Kanallardan tortilgan ariqlar nafaqat bog‘larni, balki bog‘lardagi hovuzlarni ham suv bilan ta’minlagan. Ariqlarga uzilib tushgan turli rangdagi olmalar ariqlardan hovuzlarga oqib, kishi kuzini quvontirgan. Klavixoning yozishicha, Amir Temurning Davlatobod bog‘ida oltita hovuz bo‘lib, ular bir-biri bilan ikki chetiga har xil daraxtlar o‘tqazilgan yo‘laklar bilan bog‘langan ekan [36; 105-115. b]. Tarixchi I.A. Suxarev bu hovuzlardan ayrimlarining o‘lchamlarini aniqlagan: ulardan biri tug‘ri to‘rt burchak shaklida 28x62 m. boshqalari esa kvadrat shaklida 25x25; 32x32 m bo‘lgan [56; 5-6. b].

Bog‘i Nav saroyi oldida katta hovuz joylashgan bo‘lib, saroyning aksi hovuzga tushib turgan. Bunday holat boshqa chorbog‘larga ham xos xususiyat sanalib, bu hovuzlarning ayrimlarida o‘rdak va g‘ozlar suzib yurgan [60; 11-44. b].

Bog‘dagi hovuzlardan tashqari bog‘ markazida, tagkursida joylashgan ko‘shk-saroyni chor tarafdan o‘rab turgan xandaqlar bo‘lganligi ham aniqlan gan. Bu xandaqlar doimo hovuzlar singari suv bilan limmolim to‘lib tur gan. Ularning eni turli kattalikda, masalan, Amirzoda Shoxrux bog‘idagi xandaq eni 6 metr. Bog‘i Davlatobod xandaqining eni esa 20 metrdan ziyod bo‘lgan [11; 102-123. b].

Xandaqlar ustidan saroyga o‘tish uchun chiroyli bog‘ ko‘priklari qurilgan. Ayrim bog‘lardagi ana shunday kupriklar kechalari kutarilib quyilgan. Xandaqlarning bog‘dagi tutgan o‘rni ham asosan hovuzlar kabi bog‘ xusniga husn qo‘shish, mos va soz mikroiqlimat yaratish, ularda saroy va daraxtlarning aksi tushib turishidan, o‘rdak va g‘ozlarning erkin suzib yurishidan iborat bo‘lgan. O‘. Alimovning fikricha, bu Xandaqlar saroy mudofasiga ham xizmat qilgan [11; 102-123. b].

Ariqlar, hovuzlar, xandaqlardan tashqari bog‘larni otma favvoralar ham bezagan. Ispan elchisi Klavixo bunday favvoralarni Samarkanddagi Bog‘i Dilkushoda va Shaxrisabzdagi Oksaroy majmuasining hovli bog‘ida kurgan ligi va ulardan zavklanganligini yozib qoldirgan [40; 104-115. b]. Bunday favvora namunalarini biz "Boburnoma" asariga ishlangan rasmlarda, Alisher Navoiyning "Xamsa"siga va boshqa tarixiy asrlarga ishlangan miniatyuralarda ham ko‘ramiz. Favvoralarning shakli va o‘lchamlari turlicha bo‘lgan. tarhi kvadrat, olti va sakkiz burchak shaklida bo‘lgan favvoralar ko‘p uchraydi. Suv tizgini favvora hovuzning o‘rtasidan balandga otilib turgan. Buning uchun maxsus muhandislik qurilma-laridan foydalanganlar. Favvo ralar, odatda, ko‘shk va saroylar oldiga, ichki hovlilarga, bog‘ yo‘laklari kesishgan joylarga qurilgan bo‘lib, bog‘ ko‘rkiga ko‘rk qo‘shgan, saroy va bog‘ mikroiqlimini yaxshilashga yordam bergan.

O‘rta asrlarda bog‘lardagi suv ta’minoti va qurilmalarining me’moriy muhandislik yechimlari tinmay takomillashtirilib borilgan. Boburiy larning shimoliy Hindistonda, arablarning Ispaniyada, forsiylar ning Eron shaharlarida bunyod etgan bog‘laridagi murakkab suv qurilmalari bunga misoldir.

Ma’lumki, X-XIV asrlarda arablar Ispaniyaning Kordova, Granada, Sevilya shaharlarida amirlikka xos mustahkam istehkom qasr va saroylar, ularning qoshida esa go‘zal bog‘-rog‘lar bunyod etganlar. Buning uchun esa Syerranevada tog‘ tizmalaridagi erigan qor suvlarini ulkan yer osti hovuzlariga yig‘ib, ulardan usti yopiq katta kanallar "aseki" va akveduklar tizimi orqali pastga, bog‘ va saroy hovlilariga qarab suv oqizilgan, chunki Arabistondagi kabi Ispaniyada ham suv hayot manbai va soyasalqin asosi bo‘lib xizmat qilgan. Granada shahrining Generalif Algambra saroy-bog‘lari Ispaniyada hukmronlik qilgan arab amirlarining yozgi reziden siyasi (istiqomat va dam olish) maskanlari hisoblangan. Ular Granadada XII asrdan

boshlab to XV asrgacha shakllantirilgan. Algambra va Generalif qasrlari bog‘larining sathi asosan 100-150 kv.M. dan oshmaydigan, bir nechta pogonalarda alohida joylashgan, bir-biriga zinapoyalar va suv kanallari orqali bog‘langan hovli bog‘laridan iborat [41].

Generalif Algambra saroylaridagi aksari ichki hovli bog‘lari sharkona mumtoz "Chorbog‘" uslubida, turt simmetrik qismlarga bo‘lingan holda shakllantirilib, ularda asosiy o‘rinni hovli markazida joylashgan hovuz (basseyn) yoki favvora va ularga to‘rt tomonidan tutashgan toza oqar suvga to‘la ariqlar egallaydi. Bunda suv markaziy favvoradan hovli bog‘ining to‘rt tarafida yoki burchagida joylashgan mu’jaz favvorachalardan markaziy favvoraga qarab ochish hollari uchraydi. Algambarning "Sherlar hovlisi"da aynan shunday, ya’ni hovli burchaklaridagi turtta favvora chalardan markazga, "Sherlar favvorasi"ga suv oqib keladi [35; 127. b].

Hovli bog‘lari tarxda tug‘ri turtburchak shakllarda bo‘lib, ularning arxitekturasi hovlini o‘rab turgan binolarning devorlari, eshiklari, derazalardagi naqshlar, kuzalgan yassi yashil bordyur, izgorodlar va eng asosiysi, g‘aroyib suv inshootlari - favvora va hovuzchalar shakllarining o‘zaro kompozitsiyaviy uyg‘unligi, ularning "inson masshtabi"ga mutanosib ligidadir [41].

Ma’lumki, Chorbog‘ning mumtoz Tarxiy yechimida ham o‘rtada joylashgan katta hovuz yoki favvoradan toshib tushgan suv dunëning to‘rt tarafiga qarab yo‘naltirilgan to‘rtta "jannat arqlari" bo‘ylab oqadi to‘rtta "jannat bog‘i" ni tashkil qiladi: "bitta ariqdan suv oqca, ikkinchisidan sut, uchunchi sidan asal, to‘rtinchi-sidan esa sharob oqqan" [37; 14. b]. Kur’oni Karimda tasvirlangan bu bog‘ "jannat al-firdaus" ni, chorbog‘ni, markaziy hovuz va undan to‘rt tarafga oqqan ariqlarni eslatadi.

Suv hayot manbasi hisoblangan issiq Sharq mamlakatlari bog‘larida suv yuzasiga soya tushirishdan ko‘ra uning o‘zini tomosha qilish afzal sanaladi.

Shuning uchun ham suv havzalarining yuzi kengroq, daraxtlar esa ularning soxillariga emas, balki chetlariga qatorlar ekilgan. Havzalarni suv bilan ta’min-lovchi o‘q ariqlarni esa aksincha, tor, ensiz qilishga harakat qilingan. Ularning chetlariga qatorlab soyapar daraxtlar ekish an’anaviy bo‘lgan [82; 48. b].

Sharq bog‘bonlari va muhandislari suvni yuqoriga chikarish, favvora va sharsharalar qurish, suvni shovullatish, tizginlash, nakshinkor ko‘rinishda pufak-chali oqizish, yaltirok sokin suv oynalarini hosil qilish va inshoot larining ustasifarang bulib ketganlar. Oddiy hovuzlardan tortib, ulkan kanallar yoki suvga turlicha jilolar beruvchi "chadar"lar, suvni chuqur jarliklar va qiyaliklardan olib o‘tuvchi "akveduk"lar bunga misoldir. Bu

sohada, ayniqsa, arablarning janubiy Ispaniyada bunyod etgan garoyib suv inshootlari -"aseki"lar va Boburiylarning Kashmir va Laxorda bunyod etgan ko‘p pogonali bog‘laridagi suv qurilmalari - "chadar". "chini-xana" va "chabutra"lar haqida to‘xtalish muhimdir [82].

Bu qurilmalar nafaqat samarali suv tomoshalaridan zavqlanish, balki issiq iqlim sharoitida qulay mikroiqlim yaratish uchun ham shakllan tirilgan.

"Chadar" tabiiy tosh marmardan ishlanib, yuzaga yoki geometrik o‘yma naqshlar bajarilgan qiya, yuzi tekis va keng plita bo‘lib, uning satxidan suv yuqoridagi pog‘onadan pastga, katta hovuzga turlicha jilolanib, shildirab oqib tushadi [37].

Bu jilolanishlar chadar satxining qanday o‘yib ishlanishi va plastikasiga bog‘lik bo‘lib, qiyalikdan sachrab tushayotgan suv go‘yoki shalolani eslatadi va hosil bo‘lgan suvning oq yog‘dusi kishiga zavk bag‘ishlaydi 38-ilova.

Kashmir va Laxordagi pogonasimon chorbog‘larda chardarlardan tashqari yana bir o‘ziga xos suv shalolalari ham mavjudki, ular "chini-xana" deb ataladi. Chini-xana shalola orqasidagi toshlarga o‘yib ishlangan qator tokchalar ko‘rinishida bulib, tunda bu tokchalarga yondirilgan sham yoki moy chiroqlar quyib chiqilgan [37]. Tokchalardagi alangalar oldidan oqayotgan suv pardasi, ya’ni shalola tunda o‘ta yoritib tus olgan va inson qalbini zavqu-shavqqa to‘ldirgan. Kunduz kunlari esa bu tokchalarga tuvaklarga solingan gullar quyilgan.

Suv samaralari bilan bog‘liq yana bir bog‘ qurilmasi "chabutra" deb atalib, u ham Hindistondagi Boburiylar yaratgan bog‘larga mansubdir.

Chabutra yuzasi tekis tosh yoki marmar platforma, tug‘rirog‘i o‘ziga xos tosh supa hisoblanib, u suvi oqib turuvchi tekis havzaning o‘rtasiga yoki chetiga, suv ustiga qurilgan [37]. Chabutrada o‘tirgan sulton yoki imperator o‘zini suv ichida, uning asiri tarzida, guyo uning tagidan suv oqayotgandek yoki suvda suzayotgandek sezgan.

Chabutrada o‘tirib zavqlanmoqchi bo‘lgan sulton ayonlari unga suv kechib, oyoq yalang bo‘lib o‘tishgan. Tekis yuzali suvda oyoq yalang yurish ham kishiga zavk bag‘ishlagan. Kuyosh nurida parlangan suv esa go‘zal va yoqimli mikroiq lim yaratgan.

Shuni ta’kidlash kerakki, chadar, chini-xana va fakat Boburiylar yaratgan islom bog‘lariga xos suv dizaynlaridir.

Kashmir va Laxor bog‘larining qiyalikda ko‘p pog‘onali tarzda chabut ralar ishlanganligi bunday suv qurilmalarini samarali qo‘llash va ulardan foydalanish uchun katta imkoniyat yaratgan. Bunday qurilmalar Shimoliy Hindistonda yaratilgan pog‘onasimon chorbog‘larning o‘ziga xos g‘aroyibot lari va bezaklari vazifalarini bajargan desam, o‘ylaymanki, xato qilmay man. Bog‘lardagi bunday qurilmalarni qurish uchun tabiiy materiallardan

foydalanilganki, ular suv dunyosi va bog‘ tabiati bilan hamohang tarzda uyg‘unlashgan. Tabiiy toshlar, marmarlar, pishiq g‘isht Sharq bog‘larining asosiy materiallari hisoblangan [83; 86. b].

*Mo‘jaz me’moriy shakllar.* Har qanday bog‘ning o‘ziga xos o‘simlik va suv dunësi, relyefi, obi havosi va hayvonot dunyosi mavjud. Kichik bog‘lar inson uchun, uning kayfi-safosi, dam olib xordiq chiqarishi uchun yaratilgan ekan, ularni insonlarga xizmat qiluvchi me’moriy shakllarsiz (ayvon, shiypon, urindiq, supa, suri, chorpoya, ko‘shklarsiz) tasavvur qilib bo‘lmaydi. Aslida bog‘larning me’moriy mo‘jaz shakllariga biz yuqorida tuxtab o‘tgan suv quril malari bog‘ (favvoralar, hovuzlar, sharsharalar, chadarlar chinixanalar, chabutralar) ham kiradi. Biroq, ular asosan guzal bog‘ manzaralari, sozland shaft muhiti va mikroiqlim yaratish uchun qullanilgan.

Chorbog‘da dam oluvchilar asosan taxti ravon, shiypon, chodir. ayvonlar, ko‘shklardan foydalangan. Ayvonlar va ko‘shklar bog‘ning doimiy obyektlari xisoblansa, taxti ravon, shiypon va nodirlar vaqtinchalik yoki mavsumiy bog‘ qurilmalari sanalgan. Biroq, XIV. XV asrlardagi Samarqand bog‘larida shiyponlar va chodirlarning tutgan mavqei kushk va saroylardan kam bo‘lmagan [76; 24. b].

Samarqand bog‘larini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan Klavixo ularda pakdan va boshqa qimmat materiallardan tikilgan ko‘plab chodirlar, har xil rangli gilamlardan ishlangan shiyponchalar bo‘lganligini yozadi [37].

G.A.Pugachenkova bog‘larda chodirlar va shiyponlar qurishni Sharq mamlakatlari uchun an’anaga aylanib qolganligi to‘g‘risida yozadi, bu narsani ko‘chmanchilar an’anasi va ularning to‘qish san’ati bilan bog‘laydi [55; 161. b].

Xerman Vamberining "Buxoro yoxud Movarounnaxr tarixi" nomli asarida Samarqanddagi Konigil mavzeidagi bayram va sayllar paytida tikiladigan chodirlar haqida yozilgan.Bu yerda chodirlar shunchalik ko‘p va rangbarang bo‘lganki, shamol turgan kezlar ular uzoqdan go‘yo shamolda tebranaëtgan lolazorni eslatadi.

Chodirlarning ko‘pchiligi kigizdan ishlangan bo‘lib, dumaloq shaklda bo‘lgan [20; 25. b]. Bu yerda Vamberi o‘tovlarni nazarda tutgan bo‘lsa kerak, deb yozadi O‘. Alimov. Ular ichra Arabistondan olib kelingan cho‘zinchok shakldagi chodirlar ham, Eron sarpardalari (pardalardan tashkil topgan saroy) ham bo‘lgan. Sarpardalar to‘rtburchak shaklda bo‘lib, kengligi yuz qadamdan, balandligi esa uch nayza bo‘lgan. Uning o‘rta qismi ko‘shkka o‘xshash havo rangiga bo‘yalgan bo‘lib, uni o‘n ikkita ustun ko‘tarib turgan. Ko‘shk usti yarim aylana shaklidagi gumbaz bilan yopilgan bo‘lib, ustunlariga tortilgan ipak materiallar un ikkita qavariq yarim yoy shaklini hosil qilgan. Bulardan tashqari ko‘shkning har tarafida oltita ustun yordamida

ushlab turilgan baland eshiklari bo‘lgan. Bularning hammasi besh yuzdan ortiq bog‘ichlar yordamida tortib mustahkamlangan.

Ko‘shkning ustki qismi qora, sariq va oq shoyi paloslar, ichki qismi esa zarhal ipaklar bilan tikilgan shokilali gilamlar va ipakdan ishlangan har xil bezaklardan iborat bo‘lgan. Yon taraflardagi gumbazlarning ustki qismlari esa g‘oyatda boy bezaklar bilan bezalgan bo‘lib, ko‘shkning turt burchagida qanotlarini keng yoygan burgutlar aks ettirilgan. To‘rtala burchak dagi ustunlar shar va yarim oylar, o‘rtadagi beshinchi ustun ham shular kabi, lekin katta hajmdagi bezaklar bilan bezalgan.

Xullas, ko‘shk uzoqdan qasrga o‘xshab, minorali baland va rang barang devor bilan o‘ralgan ko‘rinishga ega bo‘lgan. Bu kabi ma’lumotlar bilan tanishar ekanmiz, shularga asoslangan xolda bog‘lardagi chodirlar xam shunday shakllarda yo shularga o‘xshash bo‘lgan, deb yozadi O‘. Alimov [11; 102-123. b].

Chodirlar va naqshli taxta so‘rilar tasvirini Nizomiyning "Xamsa siga ishlangan miniatyurada ham uchratamiz. Ular ichida aylana shaklida (o‘tovga o‘xshash), tepa qismi qubbali qilib ishlangan rangli chodirlarni qurish mumkin. Boshqa miniatyuralarda ham yuqoridagi hollarni uchratish mumkin. Ko‘pchilik hollarda so‘rilar oldida otilib turgan favvoralar aks ettirilgan.

Temur qurdirgan ayrim bog‘lardagi (jumladan, Bog‘i Davlatobod, Bog‘i Behisht, Bog‘i Chinor) bog‘ saroylari, yuqorida eslatganimizdek tabiiy yoki sun’iy baland tepaliklar (takkursilar) ustiga qurilgan bo‘lib, ular bog‘ning turli tomonlaridan ayniqsa, saroy va ularga eltuvchi xiyobonlardan yaqqol ko‘zga tashlanib turgan. Go‘zal saroylar qurilgan tepaliklar poyiga ushbu saroylarning aksi tushib turuvchi sun’iy suv havzalari ishlanib ular chor tarafdan keng ariq, xandaqlar yoki hovuz, favvoralar tarzida bo‘lgan. Bu kabi meyoriy uslublar bog‘ni yanada go‘zal va tarovatli qilgan, dam oluvchilar dilini zavqu-shavqqa to‘ldirgan.

Biz yuqorida Boburiylarning Kashmir va Lahorda qurdirgan ko‘p sahnli pog‘onasimon istirohat bog‘lari haqida gapirib o‘tdik. Bu bog‘lar dagi mu’jaz meyoriy shakllarga yuqorida eslatilgan madar, chini-xana, chabutralardan tashqari, hovuz-favvoralar, zinapoyalar pogonalarni bir-biriga bog‘lovchi qiyaliklar, tirgak devorlar, soyabonlar, ayvonlar kirgan.Xar bir me’moriy shakllar kompozisiyasi bog‘ kushk saroylari, pavilionlar, darvozalar tuzilishi kabi go‘zal me’moriy proporsiyalar, arxitekturaviy shakl mutanosibligi va bog‘ muhitiga uyg‘unlik, masshtablilik qoidalariga amal qilgan holda ishlangan. Bunday qoidalarga simmetriya, kompozisiya yaxlitligi, me’moriy shakllarning takrorlanish maro-miritm asosiy shakl (xajm)ning ustuvorligi, bog‘ imoratining kursisi, kirish qismi darvozasi va tugal qismlarning yechimiga e’tibor berish, shuningdek, imoratni bezash

tamoyillari ham quriladigan obyekt me’moriy guzalligi va shakllar garmoniyasini ta’minlash vositalari tarkibiga kirgan (26-27-28-ilovagacha).

### 3.4. Amaliy loyihaviy takliflar

Kichik bog‘lar bo‘yicha amaliy loyihaviy takliflarni ishlashda biz yuqorida 3.1.2.paragrifda ishlab chiqqan kichik bog‘larni yaratishning me’mo riy dasturidan foydalanishni taklif etamiz.

Kichik bog‘ning umumiy me’moriy–badiiy g‘oyasi, uning elementlari–yo‘laklar, tirgak devorlar, zinapoyalar, qiyaliklar, yashil o‘simliklar guruhi ning joylashishi va suv havzalarining o‘zaro uyg‘un masshtabliligi va mutanosibligiga deyarli to‘lig‘icha bog‘liq bo‘ladi. Kichik bog‘, odatda dam olish (rekreasion) ehtiyojlarni qondirishga va me’moriy–badiiy vizual estetik funksiyalarni bajarishga mo‘ljallanadi. Uni shakllantirish bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi:

- mavjud hudud holatini tahlil qilish va uning landshaftini baholash;
- bog‘ning funksional zonalarini belgilash;
- kichik bog‘ning me’moriy–rejaviy uslubini aniqlash;
- ekiladigan o‘simliklar va ulardan tuziladigan guruhlarni tanlash, bunda ularning biologik va me’moriy–badiiy imkoniyatlarini hisobga olish;

Bog‘ning landshaft dizayni elementlari, funksional zonalarga mos keluvchi bog‘ qurilmalari va kichik me’moriy shakllar tarkibi va hajmini aniqlash.

Dastlab berilgan mavjud holat tahlil qilinadi, undagi obyektlar holatiga, joyning relyefi, mavjud landshaftga baho beriladi, o‘simliklar holati o‘rganiladi.

Loyihalanayotgan hududning insolyasiya rejimi, ya’ni unga quyosh nurining davomiy tushish vaqti o‘rganilishi zarur. Kichik bog‘ hududi chegarasi bo‘ylab qatorlab daraxt ekish, ayrim soyalashtirilishi zarur bo‘lgan hududlarni janubiy–g‘arbiy va g‘arbiy tomonlardan tushadigan quyosh nuridan himoyalash kerak. Kechga borib bog‘ hovlisi va hududining qizib ketmasligi uchun bog‘ hududi bo‘ylab erkin havo harakati va shamollatish imkoniyatini tug‘dirish zarur.

Shuningdek, ishda kichik bog‘ning landshaft tashkillashtirishda Markaziy Osiyo xalqlari o‘tmishi bog‘-park san’atiga xos bo‘lgan "Chorchinor" va "Topiar" (o‘simliklarni kuzab ularga sun’iy shakllar berish kompozisiyalarini qayta tiklash amaliyotini ham yulga qo‘yish tavsiya qilindi.

Dissertasiyada muallif tomonidan amaliyotda qo‘llash uchun uchta kichik bog‘ loyihasi taklif etilgan. Ularning biri kichik topiar bog‘i, ikkinchisi

Navoiy viloyati, Karmana tumani tibbiyot birlashmasi qoshidagi kichik bog‘i, uchinchisi Narpay tumani Oqtosh shahridagi Islom shoir va Bektosh Rahimov bog’ining landshaft dizayni taklif loyihasidir.

**Topiar** – bu daraxt va butalarga kuzab shakl berish yo‘li bilan sun’iy manzarali yashil kompozisiyalar, alohida geometrik yoki fantastik shakllar hosil qilish usulidir. **Topiar uchun bargi va novdalari mayda va tig‘iz joylashgan o‘simliklar, masalan, lavr, oddiy ligustrum, sharq biotasi, doimyashil shamshod, mevali zarnab** turlarini qo‘llash mumkin.

Bunday shakl berishda oldindan tayyorlangan qoliplardan foydalaniladi. Qoliplar ko‘chma va doimiy o‘rnatiladigan bo‘ladi. Agar daraxt va buta larning tabiiy shox-shabba tuzilishiga yaqin shaklni yaratmoqchi bo‘lsak, unda qoliplardan foydalanish shart emas.

Manzarali daraxt-buta o‘simliklardan topiar shakllarni yaratishda ularni quyidagi yoritish qoidalarga amal qilish talab etiladi:

- yaratilayotgan shakllarning tomoshabinlarga yaxshi ko‘rinishi uchun ularni tomoshabinlarga nisbatan shimol tomondan joylashtirishi zarur shunda ularga quyosh nuri yaxshi tushib yorqin jonli ko‘rinishga ega bo‘ladi.
- sharq va g‘arbdan ularning yorug‘ligi biroz pastroq, shimol tomondan esa ularga yorug‘lik nuri tushmaydi;
- istalgan topiar shaklning yuzasi tekis holatda yassi yoki tik bo‘lsa ham yaxshi yorug‘lanmaydi. Shuning uchun shaklning yuzi muayyan burchak ostida bo‘lishi kerak. Shu boisdan ham yashil shakllar, masalan, jonli devorlarning eng yaxshi shakli bu kesik konus yoki trapesiya hisoblanadi.
- shaklning navbatdagi o‘sgan qismlarini kesishni avvalgi kesilgan joyning yuqorisidan boshlash zarur, toki shakl ichidagi novdalar endi yalong‘ochlanib qolgan va uyqudagi kurtaklar deyarli uyg‘onmaydi va shu sababdan shaklning hajmi sekin-asta kattalashib boradi.

Kichik bog‘ning rejaviy tuzilishini shakllantirish uning hududini fuksional zonalarga bo‘lish va bu zonalarga mos tarzda hududning rejaviy elementlarini aniqlash orqali amalga oshiriladi. Kichik bog‘ni shakllantirishning asosiy vazifa-lariga bog‘ hududini atrofdagi qurilmalardan holilashtirish, bog‘ning asosiy imo-ratiga kelish va ketish yo‘llarini tashkillashtirish, dam olish maydonlarini joylashtirish, piyodalar marshrutlarini yaratish, bosh va yonbosh xiyobonlarni o‘tkazish va boshqalar kiradi. Kichik bog‘ rejaviy yechimini ishlab chiqishda ushbu asosiy vazifalar puxta o‘ylanib yechilishi shart. Eng murakkab masala esa kichik bog‘ning badiiy me’moriy–landshaft obrazini yaratish va shakllantirishidir (29-30-31-32-ilovalar).

## III–bob xulosasi

1. Mazkur bobda, bog‘-parklar amaliyotidagi kompozisiyaviy vositalar va landshaft qurulmalaridan foydalanishning an’anaviy va zamonaviy usullari, kichik bog‘larni yaratishning me’moriy dasturi, kichik bog‘ning atributlari va semantikasi, uning istirohat funksiyalari, kichik bog‘ning landshaft yechimlari, suv dunyosi va mo‘jaz me’moriy shakllari bo‘yicha tavsiyalar hamda ilmiy loyihaviy takliflar berilgan.

2. Kichik bog‘ning semantikasi (bog‘ning mafkuraviy, g‘oyaviy falsafiy va romantik o‘ziga xosligi, kishini shoirona his-hayajon va mushohadalarga tortish darajasi hamda tarkibidagi me’moriy-landshaft alomatlari) bizga tarixiy yaqin bo‘lgan islom bog‘lariga xos xususiyatlarni o‘ziga singdi rishi maqsadga muvofiq. Chunki islom mamlakatlarida keng tarqalgan an’a naviy bog‘larning me’moriy g‘oyasi xuddi biz o‘zbeklarniki kabi “Chorbog‘” uslubiga asoslangan. Bu esa bizning issiq va quruq subtropik iqlim sharoitimiz, suv resurslarmiz va mafkuraviy g‘oyalarimizga hamohangdir.

3. Kichik bog‘ni yaratish bo‘yicha taklif etilayotgan me’moriy dastur mazmuni quyidagilardan iboratdir:

Kichik bog‘ning me’moriy yechimi muntazam yoki erkin rejaviy – landshaft kompozisiyasida ishlanib, unda to‘g‘ri yo‘l va xiyobonlar, ariq va hovuzlar, jildiragan favvoralar, xullas oqar suv va soyali muhitning mavjudligi yoki erkin landshaft yechimida bo‘lishligi muhim ahamiyatga ega bo‘lmog‘i kerak.

Kichik bog‘ning imoratlarini bog‘ sahnidan balandroq, teparoq joylarga qurish va iloji boricha janubga qaratib joylashtirish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilinganda ulardan bog‘ sahni va manzarasining yaxshi ko‘rinib turishi ta’minlanadi. Kichik bog‘ ariqlaridagi suv qo‘yosh nuri ostida emas, balki soyadan oqqani yaxshi. Kichik bog‘da hovuz bo‘lishi, uning atroflariga bargi tushmaydigan soyali dov-daraxtlar ekilishi maqsadga muvofiq. Shunda hovuz yuzi soya bilan yopiladi, suv toza turadi, sog‘lom yopiq yashil muhit hosil bo‘ladi. Kichik bog‘da ekilgan daraxtlar ortidan joy tashlab turli nav gullardan tuzilgan gulzorlar shakllantirib, oldingi yopiq yashil muhitga kontrast tarzda ochiq yashil muhit hosil qilinadi. Gulzorlar muhitida keyin esa doim yashil manzarali daraxtlar ekiladi. Kichik bog‘ perimetri bo‘ylab tirma shib o‘suvchi gullovchi butalar ekilsa yaxshi chiqadi. Kichik bog‘ning so‘ng gi to‘rroq qismiga esa istalgan mevali daraxtlardan ekilsa ular shim oldan esuvchi shamollardan bog‘ni himoya qiladi va chiroyli

mevalar beradi. Mevali daraxtlar orasiga oddiy xushqomat anorlar ekilishi maqsadga muvofiqdir.

Kichik bog‘ markaziga bog‘ ko‘shkini baland qilib, teparoq joyga qurish zarur, toki undan butun bog‘ning so‘lim manzaralari ko‘rinib tursin.

Ko‘shkka chirmashgan atirgul va mirt, atrofiga esa bog‘ni gulgun va xushbo‘y qiluvchi gulzorlar ishlash yaxshidir. Va bu bog‘ning bo‘yi enidan katta bo‘lmog‘i kerakki, unda yurganlar ko‘zi uzoqdagi go‘zal manzara larga, chaman va gulzorlarga tushsin.

Kichik bog‘da ko‘rpachada o‘tirib yoki oyoq uzatib dam olishga mo‘ljallangan milliy yostiqlar, gilamlar, “chorpoya” yoki “taxti ravon” lar bo‘lishi va eng muhimi ularning ostidan jildiragan “jannat ariq lari” suvi oqib o‘tishi maqsadga muvofiqdir. Ariq yoki kanal tagiga shag‘al toshlardan terib chiqilsa suvning jildirashi yanada oshib kishiga zavq bag‘ishlaydi.

Kichik bog‘ning o‘zi va bog‘ inshootlari (imoratlar, ko‘shk, saroy, favvora, hovuz, so‘ri, chorpoya, yo‘lak, ariq ) bog‘ning muhim tarkibiy qisimlari deb qaralib, ularning kompozisiyasi esa tarhi va hajmiga ko‘ra o‘zaro uyg‘un bog‘lanishda bo‘lmog‘i kerak. Ana shu me’moriy yaxlitlik, ya’ni bog‘ va uning imoratlari yoxud bog‘ elementlari orasidagi uyg‘unlik bog‘ dizaynining bosh tamoyiliga aylanishi zarur.

Kichik bog‘da ana shu qonuniyatlar, ya’ni tamoyillar yetakchi o‘rinni egallashlari zarur. Bu asosiy me’moriy tamoyillarga manzarali va mevali daraxtlar, kuzalib sun’iy shakllar berilgan manzarali daraxt lar, tokzor (uzum), gulzor va sabzavotlar hamda qo‘lga o‘rgatilgan hayvonot dunyosiga ham tegishli joy va o‘rin berilishi shart. Ana shunda gina bu kichik bog‘ nafaqat o‘zbekning, balki boshqalarning dilini ham yaratish xususiyatiga ega bo‘ladi.

Bunday kichik bog‘dagi ariq suvlari chorpoyalar, ko‘shklar va daraxtlar soyasi tagidan jildirab oqib o‘tmog‘i, hovuz va favvoralar dagi suv sahni esa sayr qilish yo‘laklaridan past bo‘lib, ularning yuza siga quyuq soya tushmog‘i zarur.

Kichik bog‘lar bunday sifatlarga tom ma’noda ega bo‘lmog‘i, to‘g‘ri rog‘i bu sifatli uning eng muhim me’moriy-landshaft tamoyil laridan biri bo‘lmog‘i kerak. Kichik bog‘dagi suv dunyosining turli me’moriy shakllari (ariqlarda jildirab oqayotgan suv,favvoralardan tizilib otila yotgan suv, sokin hovuz suvi, agar bog‘ qiyalikda joylashgan bo‘lib, sahni tekis pog‘onalarga bo‘lingan bo‘lsa shalolalardan shildirab oqayotgan suv) ham kichik bog‘ga xos muhim xususiyatlardan bo‘lishi kerak.

Kichik bog‘lar o‘zida yuzaki chiroy, manzaraviylikni emas, balki tabiat go‘zalligi va tartibotini, inson va tabiatning ilohiy yaxlitligi hamda insonning yerdagi roli va mazmunini chuqur bilish va tushunish asosida yaratiladigan bog‘ bo‘lmog‘i kerak.

Ana shunday me’moriy tafakkur va tamoyillar, semantik tushun chalar asosida yaratilgan har qanday kichik bog‘ juda katta ijtimoiy-madaniy va badiiy estetik imkoniyatlarga ega bo‘lishi muqarrardir.

4. Bizning hozirgi kunlarimizda kichik bog‘ va umuman tabiat tushun chalari har qaday milliylikdan, irqiy, diniy va mafkuraviy tushun chalardan yuqori turishi kerak. Chunki, masalan, yapon yoki fransuz bog‘i nafaqat yapon va fransuzlarga, balki barcha aqlu-insonlarga ham birday go‘zallik baxshida etishi hammamizga ma’lum. Shunday ekan kichik bog‘ ning ham ana shunday go‘zal sifatlarga va ulardan ham yuqori jannatiy fazilatlarga ega bo‘lishi kutiladi.

5. Biz kichik bog‘ni yaratishda yuqorida bayon etilgan dasturuamallarga, tartibotlarga va tarixiy qadriyatlarga asoslansak, ularga og‘ishmay amal qilsak kelajakda bunyod etiladigan kichik bog‘ning ilmiy asoslangan tamal toshini qo‘ygan bo‘lamiz va ana shu qadriyatlar, qoida - tartibotlari va me’moriy dasturga asoslanib kichik bog‘larni yaratish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.


3.1.1. KICHIK BOG‘LARNING ATRIBUTLARI
VA SEMANTIKASI
15
KICHIK BOG‘LARGA XOS ME’MORIY ATRIBUTLAR TARZIDA
QUYIDAGI LANDSHAFT QURILMALARI VA OBYEKTLARINI KO‘RSATISH MUMKIN
LANDSHAFT
QURILMALARI
VA OB'EKTLARI
XOVUZLAR
CHARXPALAKLAR
AYVONLAR, SHIYPONLAR, CHODIRLAR VA O'TOVLAR
FAVVORALAR, SHARSHARALAR, SHALOLALAR
MILLIY CHOYXONA VA OSHXONALAR QOSHIDAGI KICHIK BOG'LAR
"TOPIAR" MAYDONCHASI

## O`ZBEKISTON SHAROITI UCHUN KICHIK BOG`LARNI LOYIHALASH VA YARATISH BO`YICHA TAKLIF ETILAYOTGAN ME`MORIY DASTURINING ISBOTI

16

| № | Dastur punktlarining nomi | Dastur punktining dessertatsiya tekstida isbotlab berilishi (betlar soni ko`rsatilgan) | Isbotlarning grafik ko`rinishi | Dastur punktining amaliy samarasi bo`yicha isboti |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Kichik bog’ning me’moriy-rejaviy va landshaft yechimini joy rel’efiga mos tarzda shakllantirish; tekis hududlarda muntazam rejali simmetrik yoki erkin kompozitsiyali bog’lar yaratish;qiyaliklarda esa bog’ hududini muntazam rejaviy yechimda ishlangan tekis pog’onalarga bo’lib chiqish yoki erkin kompozitsiyali rejada ishlash. | 37-38-39-betlar |  | Bog`ning me`moriy - rejaviy va landshaft yechimini joy rel`eliga, iqlim sharoiti va bog’ funksiyasiga qarab shakllantirish imkoniyati yaratiladi. |
| 2 | Chorbog’ uslubidagi kichik bog’ markazida zilol suvli “jannat hovuzi”,uning o’rtasida dam olish ko’shkining joylashishi va uning chor atrof bilan ko’priklar orqali bog’lanishi. | 44-46-94- betlar |  | Chorbog` uslubidagi kichik bog`ni yaratishda uning yetakchi kompozitsiyasini aniqlashga yordam beradi. |
| 3 | Bog’ ko’shkini tabiiy yoki sun’iy ishlangan tagkursi, platforma yoki stilobatga joylashtirish. Ko’shkining bog’ sathiga nisbatan yuqoriroqda, ya’ni “jannat hovuzi” sathidan balandroq tagkursida qurilishi. | 95-114-betlar |  | Bog` imoratlarining fazoviy vizual ko`rinishini yaqqollashtirishni ta`minlaydi. |
| 4 | Kichik bog’ni tashkil qiluvchi sun’iy va tabiy elemetlar, maydon va yo’laklarning bog’ muhitiga mos tarzda masshtabli bog’lanishi. | 105-bet |  | Kichik bog` muhitini masshtabini sezishga va bog` tarkibiy elementlarini uyg`unlashtirishga yordam beradi. |
| 5 | Kichik bog’ yo’laklari atrofidagi erta bahordan to kech kuzgacha ochilib turadigan xushbo’y gullarning o’sib turishi. | 104-bet |  | Bog’ muhitining estetik va manzaraviy sifatini oshirishni ta`minlaydi. |
| 6 | Kichik bog’ yo’laklari va xiyobonlarining kesishgan joylarini go’zal me’moriy kompozitsiyalar (hovuz, favvora, kushk voish, dekorativ elemetva shu kabilar) bilan bezalishi. | 92-96-betlar |  | Bog’ muhitining estetik va manzaraviy sifatini oshirishni ta`minlaydi. |
| 7 | O’zbekistonning issiq - quruq iqlimini e’tiborga olib,kchik bog’larni ufq tomonlariga mos xolda ko’kalamlashtirish va bog’da ko’proq soyali muhitlarning tashkil etilishi. | 95-103-104-betlar |  | Issiq -quruq iqlimli bog`da ekologik sog`lom myhitni yaratishga yordam beradi. |
| 8 | Kichik bog’da nafaqat manzarali, balki mevali daraxtlarning ham tartib bilan ekilishi. O’zbek xalqiga azaldan mahalliy manzarali daraxtlardan tol, terak, qayrog’och, sarv, archa, ar’ar, majnuntol kabi daraxtlardan foydalanish. | 92-97-betlar |  | Bog` o`simliklariga milliylik va o`ziga xos jihatlarini ochib berishni ta`minlaydi. |

## O`ZBEKISTON SHAROITI UCHUN KICHIK BOG`LARNI LOYIHALASH VA YARATISH BO`YICHA TAKLIF ETILAYOTGAN ME`MORIY DASTURINING ISBOTI *(DAVOMI)*

17

| № | Dastur punktlarining nomi | Dastur punktining dessertatsiya tekstida isbotlab berilishi (betlar soni ko`rsatilgan) | Isbotlarning grafik ko`rinishi | Dastur punktining amaliy samarasi bo`yicha isboti |
|---|---|---|---|---|
| 9 | Kichik bog`da qo`lga o`rgatilgan jannat qushlari tovuslarning erkin erkin yurishi. Bog` hovuzlarida turli rangdagi baliqlarning suzib yurishi. | 107-bet |  | Bog` muhitida jannatiy sifatni xis qilishga yordam beradi. |
| 10 | Kichik bog'da o'zbek milliy oshxonasi va choyxonasining bo'lishligi. Choyxonada stol-stullar emas,ustiga xontaxta va milliy dasturxon to'shalgan chorpoyalarning bo'lishligi, ular yonidagi voishlarda esa kakliklar va bedanalarning sayrab turishi. | 44 -107- betlar |  | Bog`ning milliylik xususiyatlarini namoyon etishni ta`minlaydi |
| 11 | Kichik bog'da ko'rpachada o'tirib yoki oyoq uzatib dam olishga mo'ljallangan milliy yostiqlar, gilamlar, "chorpoya" yoki " taxtiravon" lar bo'lishi va eng muhimi ularning ostidan jildiragan "jannat ariqlari" suvining oqib turishi. | 97-98-101-102-107-betlar |  | Bog`ning milliylik xususiyatlarini namoyon etishni ta`minlaydi. |
| 12 | Kichik bog' ariqlaridagi suv quyosh nuri ostida emas,balki soyadan oqqani yaxshi.Bog'da hovuzlar sersoyali dov-daraxtlar ekilishi. Masalan:chinor,majnuntol,eman,kashtan va boshqalar.Shunda hovuz yuzi soya bilan yopiladi,suv toza turadi,sog'lom yopiq yashil muhit hosil bo'ladi. | 99-102-betlar |  | Bog` muhitida suv tanqisligining oldini oladi va estetik muhitni yaxshilaydi. |
| 13 | Kichik bog'ning o'zi va bog' qurilmalari (ko'shk, favvora,hovuz, so'ri, chorpoya, yo'lak, ariq) bog'ning muhim tarkibiy qismlari deb qaralib, ularning hajmiy va vizuval kompozitsiyasi bog' muhiti va me'moriy masshtabiga, ko'ra o'zaro mutanosib, uyg'un bog'lanishida bo'lmog'i zarur. | 47-110-betlar |  | Bog` elmentlari va qurulmalari bog` muhiti masshtabiga moslashtirishni ta`minlaydi. |
| 14 | Kichik bog'ning landshaft muhiti va imoratlari arxitekturasi uyg'unligining ta'minlanishi, kontrast va nyuans, ritm kabi badiiy-me'moriy vositalardan samarali foydalanish, kichik bog'da ochiq va yopiq yashil muhitlar, bog' senariyasi ketma-ketligining ta'minlanishi. Bog'da kishini bog'ning eng ahamiyatli kompozitsiyalarini sezishga, insonni she'riyatga, adabiyotga undovchi, me'moriy shakllar va lan dshaft dizayni qurulmalarining bo'lishligi. | 92-96-betlar |  | Bog` hududida ochiq va yopiq yashil muhitlarni yaratish, soya-salqinlikni ta`minlaydi. |
| 15 | Kichik bog'larni me'moriy - landshaft yaratish g'oyasi (ayniqsa, kottej tipidagi yoki jamoat binolari hovlilaridagi qurilishlarda) "yaponcha", "ispan-mavritancha","italyancha", "fransuza", "inglizcha", "chorbog'" stili yoki zamonaviy "art - landshaftlari" stilida yechilishi mumkin. | 45-47-48-49-50-52-76-80-betlar |  | Bog` obrozi va g`oyasining turfa xil milliy xususiyatlarini oshiradi va ta`minlaydi. |
| 16 | Kichik bog'da yuqoridagi qayt qilingan holatlar funktsiyalar va me'moriy sifatlar bo'lmog'i, to'g'irog'i bu sifatlar uning eng muhim me'moriy-landshaft tamoyillariga kirishi kerak. Bu sifatlar kichik bog'da suv dunyosining turli me'moriy shakllari (ariqlarda jildirab oqayotgan suvi,agar bog' qiyalikda joylashgan bo'lib, sahni tekis pog'onalarga bo'lingan bo'lsa shaloladardan shildirab oqayotgan suv) ham kichik bog'iga xos muhim hususiyatlardan. | 92-97-betlar |  | Bog`ning kompozitsiyasining yaxlitligi va g`oyaviy obrozini mustahkamlaydi. |


KICHIK BOG‘LARNI FUNKSIONAL TASHKIL ETISH XUSUSIYATLARI
(Ye.V.Lazareva bo‘yicha)
18
OCHIQ KIRISH
CHEKLANGAN KIRISH
YOPIQ KIRISH
BINO ICHIDA
Me’moriy majmua ichida joylashgan kichik bog‘ga ochiq kirishni tashkil etishda “Bog‘ guldastasi”,“Osilgan bog‘” obrazlari guruhidan foydalanish mumkin.
1
Me’moriy majmua ichida joylashgan kichik bog‘ga cheklangan kirishni tashkil etishda“Xususiy bog‘”, “Ramziy bog‘”obrazlari guruhidan foydalanish mumkin.
2
Me’moriy majmua ichida joylashgan kichik bog‘ga yopiq kirishni tashkil etishda “Osilgan bog‘” obrazlari guruhidan foydalanish mumkin.
3
BINO YAQINIDA
Me’moriy majmua yaqinida joylashgan kichik bog‘ga ochiq kirishni tashkil etishda “Osilgan bog‘” obrazlari guruhidan foydalanish mumkin.
4
Me’moriy majmua yaqinida joylashgan kichik bog‘ga cheklangan kirishni tashkil etishda “Ramziy bog‘” va “Xususiy bog‘” obrazlari guruhidan foydalanish mumkin.
5
Me’moriy majmua yaqinida joylashgan kichik bog‘ga yopiq kirishni tashkil etishda “Ramziy bog‘” obrazlari guruhidan foydalanish mumkin.
6
BINODAN MASOFADA
Me’moriy majmuadan ma’lum masofada joylashgan ochiq kirishni tashkil etishda “Uchrashuv joyi” obrazlari guruhidan foydalanish mumkin.
7
Me’moriy majmuadan ma’lum masofada joylashgan cheklangan kirishni tashkil etishda “Ramziy bog‘” obrazlari guruhidan foydalanish mumkin.
8
Me’moriy majmuadan ma’lum masofada joylashgan yopiq kirishni tashkil etishda “Bog’ guldastasi” obrazlari guruhidan foydalanish mumkin.
9
Shartli belgilar
Binolar va inshootlar
Piyodalar harakati.
Kichik bog’lar.
Kichik bog’larning tipologiyasida obe’ktni joylashtirish belgisi
1 2 3
4 5 6
7 8 9
Jadval-diagramma bog’ning tabiatini va uni yaratish vositalarini aniqlashning kalitidir


3.2.KICHIK BOG‘LARDA QO‘LLANILADIGAN LANDSHAFT KOMPOZITSIYALARI BO‘YICHA TAVSIYALAR
19
LANDSHAFT KOMPOZITSIYALARI BO‘YICHA TAVSIYALAR DIZAYNI QURILMALARI VA ULARNING TASNIF TIZIMI
(A.S.Uralov bo‘yicha)
YER REL'EFI BILAN BOG‘LIQ LANDSHAFT QURILMALARI
SUV HAVZALARI BILAN BOG‘LIQ LANDSHAFT QURILMALARI
MO‘‘JAZ ME'MORIY ShAKLLAR BILAN BOG‘LIQ LANDSHAFT QURILMALARI
LANDSHAFT ARXITEKTURA SINING O‘SIMLIKLAR BILAN BOG‘LIQ QURILMALARI
LANDSHAFT QURILMALARINING ME'MORIY TIPOLOGIYASI
TIRGAK DEVORLAR
TIRGAK DEVORLAR
ZINAPOYALAR VA PANDUSLAR
XIYOBONLAR VA MAYDONLARNING TO‘SHAMALARI
AL'PINARIYALAR
ROKARIYLAR
CHADARLAR
CHINNIXANA
CHABUTRALAR
HOVUZLAR
VA PRUDLAR
DEKORATIV
BASSEYNLAR
FAVVORALAR
SHARSHARA VA SHALOLALAR
SOHILLAR
QIRG‘OQLAR
KO‘PRIKLAR
KIRISh, DALON VA SHIYPONCHALAR
TO‘SIQLAR VA DARVOZALAR
PAVIL'ONLAR, RATONDALAR, BOLYUSTRADALAR
KO‘SHKLAR
PARK MEBELLARI (O‘RINDIQLAR VA KURSILAR)
DEKORATIV DEVORLAR
TASVIRIY OYNA VOSITALARI
TRELYAJLAR,
PERGOLALAR
SHPALERALAR,
VOISHLAR
BORDYURLAR, MIKSBORDERLAR, YASHIL TO‘SIQLAR (IZGORODLAR)
GULDONLAR, BASKETLAR
PAL'METALAR
OSIB QO‘YILADIGAN KORZINKALAR

## KICHIK BOG`LAR UCHUN O`SIMLIKLARNI TANLASH BO`YICHA TAVSIYALAR

20

### O'SIMLIKLARNI O'STIRISH VA PARVARISHLASH BO'YICHA O'ZBEKISTON HUDUDINING ZONA VA TUMANLARGA BO'LINISHI

*(Tash ZNIIEP, 1984 y)*

| Hududlar | | Mintaqaviy geografik tumanlar | | Ma'muriy tumanlar |
|---|---|---|---|---|
| Nomlanishi | Indeksi | Nomlanishi | Indeksi | |
| SHIMOLIY HUDUD | I | Amudaryo | I-A | Amudaryoning quyi oqimidagi tumanlar (Amudaryo, Nukus, Xujayli, Shumanay va ularga yondosh joylashgan Qoraqalpog'iston va Xorazm viloyatining) |
| | | Orol oldi | I-B | Mo'ynoq, Chimboy tumanlari va Qo'ng'irot tumanining suv yuvgan hududlari |
| | | Qizilqum | I-C | Qoraqalpog'istondagi Taxtako'pir, Kegeyli, Beruniy, To'rtkul tumanlarining saxro qismi, Buxoro viloyatining Tomdi tumani va Konimex tumanining shimoliy qismi |
| | | Ustyurt | I-D | Qoraqalpog'iston Qo'ng'irot tumaniga qarashli Ustyurt platosi |
| SHARQIY HUDUD | II | Tog' oldi | II-A | Toshkent viloyati (Bekobod tumanisiz); Farg'ona vodiysi, Samarqand viloyatining Samarqand va Urgut tumanlari |
| | | Mirzacho'l | II-B | Sirdaryo va Jizzax viloyatlari; Toshkent viloyatining Bekobod tumani |
| | | Adir joylar | II-C | Respublika sharqiy zonasi chegarasidagi qir-adirlik hududlar |
| JANUBIY HUDUD | III | Buxoro-Qarshi | III-A | Buxoro viloyati (Tomdibuloq va Konimex tumanining shimoliy qismlarisiz); Qashqadaryo viloyati |
| | | Zarafshon | III-B | Samarqand viloyati (Samarqand, G'allaorol, Yrgut va Nurota tumanlarisiz) |
| | | Surxandaryo | III-C | Surxandaryo viloyati, Denov, Termiz va Sherobod tumanlari |
| | | Adir joylar | III-D | Janubiy zona chegarasidagi qir-adirlik hududlar |

**Eslatma** Kukalamlarni yaratish sharoiti II-A indeksi tog'oldi tumanlarida yaxshi; Buxoro-Qarshi, Zarafshon va Surxandaryo ( III-A, III-B, III-D indeksi) tumanlarda chegaralangan; qolgan barcha boshqa tumanlarda esa noqulaydir.

Yuqoridagi jadvalga kiritilgan barcha zona va tumanlarning tabiiy iqlim va tuproq sharoitlari haqidagima'lumotlar dissertatsiyaning 1-ilovasida keltirilgan. advalda keltirilgan tumanlarda kukalamzorlashtirish ishlarini samarali olib boorish uchun ularda quyidagi agrotexnik va meliorativ tadbirlarni u yoki bu darajada olib borish talab etiladi [ ]:

I-A, I-B, I-D, II-A, II-B, III-A, III-B va III-C indeksli tumanlarda yer osti suvlari sathini pasaytirish va qish faslida sho'rlangan tuproqlarni yuvish tadbirlarini o'tkazish.

I-B, I-C, I-D, II-C va III-D indeksli tumanlarda tuproqni almashtirish yoki bu tumanlarga hos qumli va galkali tuproqlarga mayin tuproq gruntlarini qushish usuli bilan tuproq sifatini yaxshilash ishlarini olib borish.

II-C va III-D indeksli tumanlarda yer qiyaliklarini joylarda tekis pog'onalar –“ chel “larga bulib chiqish ishlarini o'tkazish.

O'simliklarning vegetatsiya mavsumida ularni tejamli va meyoriy sug'orish ishlarini bajarish va o'tkazish, ya'ni:

I-C, II-B, III-C, III-D tumanlarda kukalamzorlashtirilayotgan yerlarni mavsumda 18-23 marta sug'orish, bunda 1gektar yerga 12-15 ming

## KICHIK BOG`LAR UCHUN O`SIMLIKLARNI TANLASH BO`YICHA TAVSIYALAR

21

### SHO`RHOQ VA OHAKLI HAMDA QUMLOQ TUPROQLARDA EKISH UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN DARAXT VA BUTALAR

**O'simliklarni ekishda tuproqni yaxshilash imkoni bulmasa, eng to'g'ri yo'l bu shu tuproqqa mos keluvchi o'simlikni tanlashdir.**

| № | Salbiy ekologik ta'sirlar ba tabiiy sharoitlar | Qo'llanishga tavsiya etiladigan daraxtsimon o'simliklar |
|---|---|---|
| 1 | Sho'rxok va oxakli tuproqlarga ekish uchun | Sho'rxok tuproqlarga: sho'ralar, yulg'un, saksovul, kelreyteriya metelchtaya kabi o'simliklar xlorli sho'r tuproqda o'sa olish qobiliyatiga ega. Oxakli tuproqlarga: shumtol, jo'ka, dafna, zaytun kabilar. Xatto oxakli tuproqqa talabchan daraxtsimonlardir. Aylant (xitoy shumtoli) esa neft bilan ifloslangan tuproqda xam o'sa oladi. |
| 2 | Qumloq tuproqlarga ekish uchun | Bunday tuproklar uchun plamofitlar (plamofit) deb ataluvchi o'simliklar tavsiya etiladi. Ularga yassi bargli va dala ko'kboshi, sharq bo'tako'zi, quyon suyak, ayg'ir qiyoq, chinnigul, serastium va boshqalar. |
| 3 | Toshloq joylarga ekish uchun | Petrofitlar (petrofit) qo'llaniladi. Ularga qoyachigul, sedum, prolomik, va boshqalar. |
| 4 | Gazlardan himoyalanish uchun ekishga tavsiya etilgan daraxt va butalar: | Pensilvaniya zarangi, o'omon yong'og'i, kashtan konskiy, manchjurskaya, gledichaya (tikandaraxt), kulrang va kora terak, kanada teraki, oq akasiya, sarv, oq tut, virjin qora archasi, oddiy ligustra, jo'ka va boshqalar. |
| 5 | Changlardan himoyalanish uchun ekish tavsiya etilgan daraxt va butalar | Qayrag'och, oq tol, kashtan konskiy, kulrang zarang, tatar zarangi, kanada teraki, terak bolle, oddiy va yashil shumtol, sariq akasiya, oddiy ligustra, tavolga Van-Guttalar. |
| 6 | Shovqindan himoyalanish uchun ekishga tavsiya etilgan daraxt va butalar | Igna bargli zarang, oddiy qayrag'och, mayda bargli jo'ka, oddiy qorarag'ay, shilvi (uchqat), sariq akasiya. |
| 7 | Shamolni to'sish va hududni soyalashtirish maqsadida tanlanadigan daraxtlar | Oddiy eman, kashtan konskiy, nayzabargli dala zarangi, oddiy qorarag'ay eman, (tikandaraxt), magnoliya, maydabargli jo'ka va boshqalarni tanlash tavsiya etiladi. |
| 8 | Ixota ekinlari uchun | Tol, ok terak, tut, qayrag'och, eman, chinor, oq akasiya, gledichiya (tikandaraxt), kabi daraxtlar va butalar. |
| 9 | Qirtishlash, kuzash va sun'iy shakllar berish uchun | Shamshod, ligustrum, evropa va yapon behisi, oddiy grab, nayzabargli padub, taflon, jo'ka, forzisiya, sarv, archa, oddiy zarnob, archa, oddiy tiss, sharq sauri. |
| 10 | Yer yopar o'simliklar | Katta va kichik borvinok, chamandagul, Hind dyusheneyasi (zemlyanika), sedum karneum, floks, chirmoviq. |

## 3.2.KICHIK BOG‘LARDA QO‘LLANILADIGAN LANDSHAFT KOMPOZITSIYALARI BO‘YICHA TAVSIYALAR

22

**KICHIK BOG‘LAR LANDSHAFTI UCHUN O‘ZBEKISTON TABIATI VA IQLIMIY SHAROITLARINI HISOBGA OLIB, ULARGA XOS QUYIDAGI O‘SIMLIKLAR TURLARI TAVSIYA ETILGAN**

***Tabiiy-iqlim sharoitiga qarab O‘zbekiston hududlarini guruhlarga bo’linishi***

| № | VILOYATLAR | DARAXT-BUTALAR ASSORTIMENTI | | |
|---|---|---|---|---|
| | | BUTALAR | YAPROQBARGLI DARAXTLAR | NINABARGLI DARAXTLAR |
| 1 | *I hudud Iqlimi keskin bo‘lgan hududlar* Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati | Amorfa, yulg‘un, qandim, astragal, cherkez, ligustrum, gibiskus | Qayrag‘och turlari, gledichiya, shumtol, sofora, jiyda, turang‘il, saksovul, aylant, oq akatsiya, maklyura, go‘zal katal`pa | Biota, virgin archasi |
| 2 | *III hudud Iqlimi o‘ta keskin bo‘lgan hududlar* Buxoro, Navoiy viloyatlari | Amorfa, yulg‘un, qandim, cherkez, chum akatsiyasi, ligustrum, gibiskus | Qayrag‘och turlari, gledichiya, sofora, jiyda, aylant, oq akatsiya, saksovul, maklyura | Biota, virgin archasi |
| 3 | *II hudud Iqlimi mo‘tadil bo‘lgan hududlar* Samarqand va Jizzax viloyatining tekislik qismi | Amorfa,yulg‘un, cherkez, ligustrum, gibiskus, shilvi, Forzitsiya, totim, drok, lagerstermiya, na’matak | Gingko biloba,qayrag‘och turlari, gledichiya, sofora, jiyda, aylant, Oq akatsiya, Saksovul maklyura, chinor | Biota, virgin archasi, el dor qarag‘ayi, botqoq sarv daraxti, qrim qarag‘ayi, doimyashil sarv |
| 4 | *II hudud Iqlimi mo‘tadil bo‘lgan hududlar* Samarqand va Jizzax viloyati ning tog‘li qismi | Zirk, buzina, kalina, magoniya, shilvi, Forzitsiya, pirokanta, na’matak, gibiskus | Ipak akatsiyasi, kanada bagryannigi, do‘lana, diyda, terak, oq akatsiya, aylant, qog‘oz tut daraxti, eman, katalpa, soxtakashtan, zarang, jo‘ka, sovun daraxti, shumtol, pavlovnip | Biota, virgin archasi, tuya, tikanli qoraqarag‘ayning moviy shakli, tyan-shan qoraqarag‘ayi, qrim qarag‘ayi, qora (Avstriya) qarag‘ayi, metasekvoyya |
| 5 | *II hudud Iqlimi mo‘tadil bo‘lgan hududlar* Sirdaryo viloyati | Amorfa, yulg‘un, qandim, cherkez, ligustrum, gibiskus, anor | Qayrag‘och turlari, gledichiya, shumtol, sofora, jiyda, turang‘il, aylant, oq akatsiya, saksovul, maklyura, terak | Biota, virgin archasi, qrim qarag‘ayi |
| 6 | *III hudud Iqlimi o‘ta keskin bo‘lgan hududlar* Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatining tekislik qismi | Amorfa, yulg‘un, qandim, cherkez, qum akatsiyasi, ligustrum, gibiskus, shilvi, forzitsiya, totim, drok, na’matak | Qayrag‘och turlari, gledichiya, sofora, jiyda, pavlovniya, aylant, oq akatsiya, saksovul, maklyura | Biota, virgin archasi, eldor qarag‘ayi, sarv, botqoq sarvi |
| 7 | *III hudud Iqlimi o‘ta keskin bo‘lgan hududlar* Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatining tog‘li qismi | Zirk, buzina, kalina, magoniya, shilvi, forzi siya, pirokanta, na'matak, gibiskus, shamshod, hind nastsarini | Ipak akatsiyasi, kanada bagryannigi, do‘lana, jiyda, terak, oq akatsiya, aylant, qog‘oz daraxti, eman, katalpa, soxtakashtan, zarang, jo‘ka, sovun daraxti, shumtol, chinor | Biota, virgin archasi, tuya, moviy rang tikanli qarag‘ayning shakli, tyan-shan qoraqarag‘ayi, qrim qarag‘ayi, qora qarag‘ay, metasekvoyya |
| 8 | *II hudud Iqlimi mo‘tadil bo‘lgan hududlar* Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlari | Zirk, buzina, kalina, magoniya, shilvi, forzi siya, pirokanta, na'matak, gibiskus, shamshod, hind nastarini, drok, snejnoyagodnik, nasta rin, skumpiya, totim | Ipak akatsiyasi, kanada bagryannigi, do‘lana, jiyda, terak, oq akatsiya, aylant, qog‘oz tut daraxti, eman, katalpa, soxtakashtan, zarang, jo‘ka, maklyura, sofora, sovun daraxti, shumtol, oqqayin, terak, chinor, pavlovniya | Biota, virgin archasi, sabina archasi, uzun bandli archa, tuya, tikanli qoraqarag‘ay ning moviy rang shakli, qrim qarag‘ayi, tyanь-shanь qoraqarag‘ayi, qrim qarag‘ayi, qara qarag‘ay, metasekvoyya, sarvi |
| 9 | *II hudud Iqlimi mo‘tadil bo‘lgan hududlar* Toshkent shahri va Toshkent viloyati | Zirk, Buzina, Kalina, magoniya, shilvi, forzi siya, pirokanta, na'matak, gibiskus, shamshod, Lagerstermiya, Drok, Veygela, Budleya, Snejnoyagodnik, Siren, skumpiya, sumax | Ipak akatsiyasi, kanada bagryannigi, do‘lana, jiyda, terak, oq akatsiya, aylant, qog‘oz daraxti, eman, katalpa, soxtakashtan, zarang, jo‘ka, maklyura, sofora, sovun daraxti, shumtol, oqqayin, terak,chinor, pavlovniya | Biota, virgin archasi, sabina archasi, uzun bandli archa, tuya, tikanli qoraqarag‘ayning moviy shakli, qrim qarag‘ayi, qrim qarag‘ayi, tyanь-shanь qora qarag‘ayi, метасеквойя, сарви |


3.2.KIChIK BOG‘LARDA QO‘LLANILADIGAN
LANDSHAFT KOMPOZITSIYALARI BO‘YICHA TAVSIYALAR
23
KICHIK BOG‘LARDA
QO‘LLANILADIGAN
GUL O‘SIMLIKLARI-
DAN NAMUNALAR
Begoniya grasilis
(Begonia semperflorens)
Pelargoniya
(Pelargonium)
Gvozdika Turetskaya
(Dianthus barbatus)
Nartsiss
(Narcissus L)
Iris (Iris)
Astra (Aster )
Sinniya
(Zinnia)
Petuniya
(Petunia)


3.2.KICHIK BOG‘LARDA QO‘LLANILADIGAN
LANDSHAFT KOMPOZITSIYALARI BO‘YICHA TAVSIYALAR
24
Uzluksiz gullashning landshaft kompozitsiyalari
KICPIK BOG‘LARDA DARAXTSIMONLARDAN ISPLANGAN KOMPOZITSIYALAR
1 SOLITERLAR
2 GURUHLAR
3 QATORLI
4 XIYOBONLAR
5 TOPIARLAR
6 YASHIL MASSIVLAR
KICHIK BOG‘LARNI LOYIHALASHDA QO‘LLANILADIGAN LANDShAFT KOMPOZITSIYALARINING TURLARI TAKOMIL LASHTIRILGAN
LASHTIRILGAN GULLARDAN ISHLANGAN KOMPOZITSIYALAR
1 KLUMBALAR
2 ARABESKALAR
3 RABATKALAR,MIKSBORDERLAR
4 PARTERLAR, QUTILAR VA TUVAKLARDAGI GULLAR
5 GULLIK MASSIVLAR VOYIShLAR
6 GULLIK TIK REL’EFLI KO‘KALAMLAR
Landshaft kompozitsiyalari
Rabatkalar
Amaliyotdan misollar
Kulunbalar
Soliterlar
Topiarlar
Respublikamizdagi kichik bog’larga daraxtsimonlardan tuziladigan yashil kompozitsiyalar turlaridan asosan soliter, guruh, qator, xiyobon va topiarlardan ishlangan kompozitsiyalarni qo’llashni tavsiya qilamiz.
Respublikamizdagi kichik bog’larga gullardan va lianlardan ishlangan kompozitsiyalarni qo’llashni tavsiya qilamiz.

## 3.3. KICHIK BOG'LARDA QO'LLANILADIGAN SUV QURILMALARI VA MO'JAZ ME'MORIY SHAKLLAR BO'YICHA TAVSIYALAR

25

| № | SUV QURILMALARI NING NOMI | GRAFIK KO'RINISHLARI | ASOSIY FUNKTSIYASI | QO'LLANILISH XOLATI |
|---|---|---|---|---|
| 1 | HOVUZLAR |  | Yaltiroq sokin suv oynasini hosil qilish, yoqimli mikroiqlim va suvda cho'milish imkoniyat larini yaratish, suv manbai vazifasini bajarish | Sathi tekis kichik bog'larda |
| 2 | HOVUZ-FAVVORA (kanal favvora) |  | Go'zal suv manzarasi va mos mikroiqlim yaratish, suv tizgini va tovushdan hosil bo'lgan zavqli samaraga erishish | Sathi tekis va pog'onali kichik bog'larda |
| 3 | FAVVORA |  | Suv harakati va tovushidan hosil bo'ladigan landshaft samarasiga erishish,yoqimli mikroiqlim yaratish | Sathi tekis va pog'onali kichik bog'larda |
| 4 | KICHIK BOG' MARKAZIDAGI SOYABONNING CHOR TARAFDAN O'RAB TURGAN HANDAQLAR |  | Shaffov suv manzarasi, mos mikroiqlim va kichik bog' soyabonning suvdagi aksini yaratish,o'rdak va g'ozlarni kichik bog' landshaftiga uyg'unlashtirish | Sathi tekis kichik bog'larda |
| 5 | SHALOLA VA SHARSHARALAR |  | Suv qurilmasi tomoshasi suvning oq yog'dusidan zavqlanish va kichik bog' muhitida mos mikroiqlim yaratish | Pog'onali kichik bog'larda |
| 6 | CHADAR |  | Suv qurilmasi tomoshasi - suvning oq yog'dusidan zavqlanish hissiyotini tug'dirish va kichik bog' muhitida mos mikroiqlim yaratish | Pog'onali kichik bog'larda |
| 7 | CHINNI XANA |  | Inson qalbini zavqlantirishi va landshaftda tabiiy mikroiqlimini yaratish | Pog'onali kichik bog'larda |
| 8 | CHABUTRA |  | Inson qalbiga zavq va orom berish, ochiq muhitda yoqimli mikroiqlim va dam olish sharoitini yaratish | Sathi tekis va pog'onali kichik bog'larda |

## 3.3. KICHIK BOG‘LARDA QO‘LLANILADIGAN SUV QURILMALARI VA MO‘JAZ ME’MORIY SHAKLLAR BO‘YICHA TAVSIYALAR

26




Kichik bog‘ hududining mo‘‘jaz guldonlari



Suv havzalarini yoritgichlari



Pog‘onali shalola




PERGOLALAR



SUHBATGOHLAR

Landshaft dizayni qurilmalarining o‘simliklar bilan bog‘liq shakllari




Kichik bog‘dagi o‘simliklar guruhlarini yotirish amaliyotdan misollar




Kichik bog‘ni gul bilan bezash amaliyotdan misollar







3.3. KICHIK BOG'LARDA QO'LLANILADIGAN SUV QURILMALARI
VA MO'JAZ ME'MORIY SHAKLLAR BO'YICHA TAVSIYALAR
27
Mo'jaz arxitekturaviy formalar
dekorativ haykallar
Mo'jaz arxitekturaviy formalar
dekorativ haykallar
"Она-бола кийик" композицияси
1,4,5.Тилло рангга бўялган композициянинг турли ракурсдан кўринишлари;
2,3.Металл рангга бўялган композициянинг икки хил ракурсда кўриниши.


3.4.AMALIY LOYIHAVIY TAKLIFLAR
28
NAVOIY VILOYATI, KARMANA TUMANI TIBBIYOT BIRLASHMASI
QOSHIDAGI KICHIK BOG‘ LOYIHASI (MUALLIF TAKLIFI)
KICHIK BOG‘NING OLDIDAN KO‘RINISHI
M 1:1000
KICHIK BOG‘NING BOSH REJASI
Bosh Reja M1:1000
KCHIK BOG‘NING LOYIHASINI TIBBIYOT
TAKLIF-SITUATSION SXEMASI
Majnuntol
Majnuntut
